

2021-YIL – YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA AHOI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YILI



Haftalik ilmiy-ma'rifiy gazeta

e-mail: zamonaviyustoz@mail.ru

ZAMONAVIY USQOZ

№ 23-24 (24)-son, 2021-yil 9-sentabr, payshanba, obuna indeksi: 425

zamonaviy_ustoz_gazetasi



Birni ko'rib
fikr qil...

KO'ZDA YOSH-U QO'LDA KITOB OH-FIG'ON BOLASI!

14-16 →

Mustaqillik yillarda ta'lim

O'zbekistonda ta'lif
renessansi 30 yil o'tib
bo'y ko'rsatdimi?

17-19 →

Intervyu

Munojatxon Yo'licheva:
"Hech qachon hayotdan charchadim
degan so'zni aytmaganman!"

6-7 →

Mushohada

Bolangizni "bobov" larga
berib qo'y mang!

26-28 →

IJTIMOIY QIYIN AHVOLGA TUSHIB QOLGAN VOYAGA YETMAGANLAR BILAN ISHLASH BO'YICHA TAJSIYALAR BERILDI

BMT Bolalar jamg'armasi xalqaro eksperti Svetlana Rijikovaning O'zbekistonga tashrifi doirasida 27-avgust kuni Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasi hamda Sirdaryo viloyatining Baxt shaharchasidagi Respublika o'g'il bolalar o'quv-tarbiya muassasasida seminar-trening tashkil qilindi.

Ushbu treningda xalqaro ekspert Svetlana Rijikova, YUNISEFning bolalar dasturi rahbari Antonio Merkel, YUNISEF

mutaxassislari Sofinaz Axayeva, Nulchexra Nigmatjanovalar tomonidan ijtimoiy qiyn ahvolga tushib qolgan voyaga yetmaganlar bilan ishlash va ularni ijtimoiy hayotga moslashuvida pedagog-xodimlarning oldida turgan vazifalar haqida tavsiyalar berildi.

Seminar-trening jarayonida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Ichki ishlar vazirligi hamda Milliy gvardiyaning rahbar va mas'ul xodimlari



ham ishtirok etishib, YUNISEFning ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda o'zaro hamkorlikni davom ettirishga kelishib oldi.



46 NAFAR RESPUBLIKA FAN OLIMPIADALARI G'OLIBLARINING O'QITUVCHILARI TAQDIRLANDI

4-10-yanvar kunlari fan olimpiadasining viloyat bosqichlari o'tkazilib Respublika bo'yicha jami 19 711 nafar o'quvchi ishtirok etgandi. Shundan 9-sinfda 628 nafar, 10-sinfda 477 nafar, 11-sinfda 500 nafar o'quvchi olimpiadaning viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan.

Viloyat bosqichida g'olib bo'lgan 11-sinf o'quvchilar esa olimpiadaning respublika bosqichida ishtirok etish yo'llanmasini ham qo'lga kiritgandilar.

Fan olimpiadasining respublika bosqichi joriy yilning may-iyun oylarida umumta'lim maktablarining 11-sinf hamda akademik litsey va kasb-hunar maktablarining 2-bosqich o'quvchilar o'rtasida ta'lim turizmini rivojlantirish maqsadida birinchi marta Buxoro, Navoiy, Namangan, Samarcand viloyatlari hamda Toshkent shahrida o'tkazildi.

Olimpiadaning respublika bosqichida 46 nafar o'quvchi g'oliblikni qo'lga kiritdi. G'oliblarga o'z fan yo'nalişlaridan oly o'quv yurtiga kirishda ix-tisoslik fani bo'yicha maksimal

ball berish huquqini beruvchi sertifikat hamda qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydag'i 4306-soni Qaroriga ko'ra, Fan olimpiadasining respublika bosqichi g'oliblarining o'qituvchilari bazaviy hisoblash miqdorining quyidagi miqdorlarida bir martalik pul mukofotlari bilan taqdirlanishi belgilab qo'yilgan:

1-o'rın uchun — 50 baravari (12 250 000);

2-o'rın uchun — 35 baravari (8 575 000);

3-o'rın uchun — 30 baravari (7 350 000).

Mukofotlar barcha viloyatlarda o'qituvchilarga tantanali ravishda topshirilishi tashkil etildi.

SOBIQ O'QUVCHI O'ZI O'QIGAN MAKTAB TA'MIRIGA 2.5 MILLIARD SO'M AJRATDI

Qamashi tumanidagi 37-maktabda ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazilib, foydalanishga topshirildi.

E'tiborli, maktabning sobiq o'quvchisi, bugungi kunda tadbirkor Sirojiddin Xoliyorov tashabbusi bilan muassasa-ning to'liq ta'miri uchun 2.5 milliard so'm ajratilib, maktab obod maskanga aylantirildi. Maktab hovlisida zamonaviy sport maydoni ham qurilib, o'quvchilar va mahalliy yoshlar foydalanishi uchun sharoit yaratilgan.

Tuman hokimi va tadbir mehnmlari maktabda bo'lib, yaratilgan sharoitlar bilan tanishishdi. Maktab kitob fondiga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining kitoblari sovg'a qilindi.

Maktab ochilish marosimida konsern dasturi ham namoyish etildi.

VAZIR CHIROQCHIDA MAKTAB FILIALLARINING BUGUNGI HOLATI BILAN TANISHDI

Xalq ta'limi vaziri ilgari maktab filiali bo'lgan hamda hozirda zamonaviy shart-sharoitlarga ega Chiroqchi tumanida yangi barpo etilgan 192-, 199-maktablar faoliyatini bilan tanishdi.



Prezidentimizning Qashqadaryoga tashrifi davomida bergan topshiriplari asosida biringa Chiroqchi tumanidagi paxsa devorli 17 ta maktab binosi o'rnida yangi zamonaviy maktablarning o'quv binolari qurilayotgan bo'lsa, investitsiya dasturi asosida 29 ta, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" Davlat dasturlari doirasida esa 4 ta maktab binolarida qurilish ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Mazkur ta'lim muassasasi Investitsiya dasturi asosida "Bahor qurilish invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan bунyod etilgan. Maktabda o'quvchilarning ta'lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan bo'lib, xonalar fanlar bo'yicha jihozlangan, kutubxona, sun'iy qoplamlari mini stadion o'quvchilarning bilim olishi va sport bilan shug'ullanishlariga yaqindan yordam beradi.

Ma'lumot o'rnida, Chiroqchi tumani "Navro'z" mahallasi Haytkul qishlog'iда 180 nafar o'quvchini bag'riga qabul qiladigan 199-soni umumta'lim maktabining zamonaviy barcha qulayliklarga ega yangi binosi foydalanishga topshirilgan.

YOZGI TA'TIL DAVRIDA JANUBIY KOREYALIK OLIM TOMONIDAN BOLALARNING KOMPYUTER SAVODXONLIGI OSHIRILDI

Janubiy Koreyalik olim janob Jeong Jun LEE tomonidan Samarqand viloyati Samarqand shahridagi AKTga ixtisoslashtirilgan 9-sonli maktabda yozgi ta'tilda o'tgan ikki oy davomida o'quvchi-yoshlari uchun "Entry u Scratchday dasturlashni o'rgatish uchun Dasturlash tili"ni o'qitish bo'yicha bepul darslar tashkil qilindi.

Bundan tashqari Samarqandda joylashgan IT Park o'qituvchilar uchun ikki kunlik trening ham o'tkazildi.



POP TUMANIDA 917 MLN. SO'M EVAZIGA MUKAMMAL TA'MIRDAN CHIQQAN MAKTAB

917 mln. 348 ming so'm "Obod qishloq" dasturi mablag'lari evaziga zamon talablari asosida mukammal ta'mirdan chiqqan Pop tumanidagi 47-umumiyo'rta ta'lim maktabi foydalanishga topshirildi.



Ma'rifat maskanining tanta-nali ochilish marosimida tuman hokimi A'zamjon Sultonov, keng jamoatchilik vakillari, o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning ota-onalari qatnashdi.

Tuman hokimi ustoz-muallimlar va o'quvchi-yoshlar, ota-onalarni yangi maktabning foydalanishga topshirilishi bilan muborakbod etib, kelgusi ishlariga zafarlar tiliadi. 1-qavat 160 o'rindan iborat ilm maskani 8 ta sind xonasini o'z ichiga olgan bo'lib, axborot texnologiyalari, to'garak xonalari, kimyo, biologiya, fizika laboratoriya xonalari, xorijiy tillarni o'qitishga mo'ljalangan o'quxonalar, musiqa xonasasi, kutubxonalarning barchasi o'quvchilar ixtiyorida.

RESPUBLIKADAGI ILK STEM FANLARIGA IXTISOSLASHGAN MAKTAB OCHILDI

Bugun matablarning shaklini o'zgartirish uchun saxovatli tadbirkorlar ham o'z hissasini qo'shamoqda.

Mana shunday tadbirkorlardan biri G'ofur Rahimov mablag'lari evaziga 45-maktabning eski binosi o'rnida zamonaviy ta'lim maskani qad rostladi.

Maktabda o'quvchilarning zamonaviy ta'lim olishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. 600 o'ringa mo'ljallab qurilgan ta'lim muassasasida 634 nafr o'quvchiga 43 nafr pedagog ta'lim beradi.

Maktab eng zamonaviy jihozlar va so'nngi axborot texnologiyalari bilan jihozlangan. STEM fanlariga



ixtisoslashtagan tayanch maktabida matematika, chet tili, axborot texnologiya va kimyo-biologiya fanlari chuqurlashtirgan holda o'qitiladi.

AVICENNA XALQARO XUSUSIY MAKTABI O'Z FAOLIYATINI BOSHLADI

Urganch shahrida Avicenna Xalqaro xususiy maktabining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Ochilish marosimida Xorazm viloyati hokimi o'rinosbasari San'at Salayev, Xorazm viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Xamro Bektemirov, Urganch shahar hokimi Oybek Xolboyev, mahalla faollari va ota-onalar ishtirok etishdi.

Mazkur maktabda o'ziga xos yangi International GK-11 Curriculum o'quv dasturi orqali o'quvchilarga ta'lim beriladi.

Xususan, AIS o'quv fanlaridan ingliz tili, rus tili, o'zbek tili, musiqa, drama, matematika va logika-matematika, Science – tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya), Social studies – Ijtimoiy fanlar, Soft skills, PE – jismoniy tarbiya, Art – san'at(rasm) va IT – informatika fanlarida o'quvchilarga chuqur bilim beriladi.

Ishtirokchilar maktab faoliyati bilan yaqindan tanishib, dars mashg'ulotlarini kuzatdilar.

Dilshod IBODULLAYEV tayyorladi.



→ Xitoyda "Si Jinping fikri" mafkurasi maktab dasturiga kiritiladigan bo'ldi



"Si Jinping fikri"dan maqsad – o'smirlarda marksizm g'oyasini shakllantirish. Bu – Kommunistik partiyaning jamiyatdagi rolini mustahkamlash bo'yicha XXR raisining yana bir urinishi.

Mafkura bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan mehnat ta'limi va milliy xavfsizlik ta'limi qismlariga bo'lingan. Darslardan chuqur islohotlarga da'vatlar, tabiat bilan uyg'un yashashga undov, xalq armiyasi ustidan partiya hukmronligini ta'minlash kabi Kommunistik partiya g'oyalari o'rinni oladi.

→ Global sammit maktablarga 4 milliard dollar miqdorida yordam puli ajratdi



Londonda global ta'lim sammiti bo'lib o'tdi. Unda Boris Jonson: "Dunyoning eng qashshoq mamlakatlari ta'limiga sarmoya kiritish – insoniyat kelajagiga qiladigan eng yaxshi sarmoyamiz", – deya ta'kidladi.

Dunyo rahbarlari maktablarni global hamkorlik orqali qo'llab-quvvatlash uchun 4 milliard dollardan (2,9 milliard funt) ko'proq mablag' ajratdilar.

Sammitda Nobel mukofoti sovrindori Malala Yusufzay, ayniqsa, qizlar "ta'lim inqirozi"ga duch kelganini aytdi.

→ Uels hukumati: Maktab o'quvchilari muntazam ravishda testlardan o'tishi zarur



Uels hukumatining ko'rsatmasiga ko'ra, sentabr oyida maktabga qaytgan o'rta maktab o'quvchilari haftasiga ikki marta test topshirishlari zarur.

O'rta maktab va kollej o'quvchilari maktabga qaytishdan bir hafta oldin, shuningdek, uch kunlik tanaffusda ikkita test topshirishlari so'raladi. Boshlang'ich maktablarda esa faqat xodimlar muntazam test sinovlaridan o'tishi kerak.



→ HINDISTON STIPENDIYASI: HAR BIR BOLAGA A'LO TA'LIM BERISH IMKONIYATI

Hindistonda dunyodagi eng yirik stipendiya dasturlaridan biri – "Teach For India" taklif qilinmoqda. Ushbu stipendiya dasturiga kam ta'minlangan sinflarda o'qishga bo'lgan muhabbat va ko'nikmalarni yuzaga keltira oladigan, qadriyatlar va tafakkur imkoniyatlarini to'liq ishga sola oladigan talabalar ishlashga taklif qilinmoqda. Tanlangan talabalar 1-sinfdan 10-sinfgacha ingliz tili, matematika va ijtimoiy fanlar bo'yicha dars beradigan davlat yoki xususiy maktablarga o'qituvchi sifatida joylashtiriladi.

"Koronavirus pandemiyasini paytida deyarli 18 oy uyda qolib ketgan bolalarga maktablarning yopilishi salbiy ta'sir qildi. Ular har qanday ta'lim formatiga qanday kirishni bilishadi. Biz oxirgi bir yarim yil ichida bolalarning savodxonlik va hisoblash qobiliyatini unutganini, maktabni tashlab ketayotganini, pul ishslash bilan shug'ullanayotganini yoki turmush qurbanini ko'rdik. Maktab yopilishining davom etishi bolalarimizning ruhiy salomatligi va ovqatlanish holatiga ham ta'sir qiladi", - deydi "Teach For India" asoschisi Shohin Mistri.

Shotlandiyada koronavirus: Kasaba uyushmalari barcha o'rta maktab o'quvchilarini emlashga chaqiradi

Covid-19 kasalligi bilan kasallanganlar soni ko'payayotganligi sababli Kasaba uyushmalari barcha o'rta maktab o'quvchilarini emlashga chaqirmoqda.

Kasaba uyushmalarining ta'kidlashicha, maktablarda virus tarqalishini to'xtatish uchun ehtiyyotkorlikni davom ettirish zarur.

Bosh vazir Nikola Sturgeon yaqinda ekspertlar 12-15 yoshli barcha bolalarga emlashni tavsiya qilishidan umid qilishini aytgan.



Tibbiyot maktablari iqlim inqirozi haqida dars berishi kerak

Buyuk Britaniyadagi tibbiyot talabalari o'z maktablardan iqlim inqirozini o'quv dasturining asosiy tarkibiy qismi sifatida kiritishni talab qilmoqdalar.

Ekstremal ob-havo hodisalari, shu jumladan, jazirama, o'rmon yong'inlari, suv toshqinlari, bo'ronlar va qurg'oqchiliklar kuchayib bormoqda, sog'liqdagi mavjud tengsizliklar kengaymoqda, oziq-ovqat xavfsizligi, uy-joy va tirikchilik yo'qotilmoqda.

Oksford tibbiyot fakultetining oxirgi kurs talabasi Xanna Cheyzning aytishicha, iqlim o'zgarishi faqat taxmin qilinmoqda, aniq asoslangan faktlar va ularga yechim uchun esa ilmiy izlanishlar qilish zarur.

Ko'zlarining yummang: Afg'oniston o'qituvchilarini dunyoni qizlarning ta'limini himoya qilishga chaqirishadi



"Afg'onistonning qizlar uchun yagona maktab-internati vaqtinchcha Ruandaga ko'chib o'tdi", – deydi uning asoschilaridan biri ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan videoda.

250 talaba va xodimlari bilan Kobuldan qochgan Shabana Basij-Rasix dunyoni ortda qolgan millionlab qizlardan "ko'z uzmaslikka" chaqirdi.

Daniya: stolsiz sinflardan iborat yangi maktab ochildi

Daniya ijodkorlikka e'tibor qaratib, Vardda yangi turdag'i mактаб ochish orqali o'z ta'lim tizimini yangilashga umid qilmoqda. Mahalliy daniyalik rassom Otto Frecko sharafiga nomlangan ushbu mактаб 900 nafar o'quvchini o'z bag'riga sig'dira oladi. U o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, mактабda sinflar ham, stollar ham yo'q. Buning o'rniga, mактабda har bir fan uchun maxsus "fan xonalari" mavjud. "O'quvchilar nima bilan ishlashlari kerakligi haqida hech qachon shubha qilmaydilar. Xonalar har bir mavzu bo'yicha aniq modellashtirilgan", – dedi direktor Morten Moeller Jensen.



Maktab arxitekturasi o'quvchilar uchun qulay bo'lishi uchun kirish joyida tosh, yog'och va termal yog'och kabi materiallardan foydalilanilgan. "Bu mактаб bizga kelajak uchun kafolat beradi", – deydi shahar meri Erik Buxl.

Noilaxon AHADOVA tayyorladi.


MUNOJATXON YO'LCHIYEVA: “HECH QACHON HAYOTDAN CHARCHADIM DEGAN SO'ZNI AYT MAGANMAN!”

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tegishli farmoniga asosan to'rt nafar yurtdoshimizga "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilib, oliy nishon – "Oltin yulduz" medali topshirildi. Ular orasida san'atimizga o'zining beqiyos hissasini qo'shib kelayotgan O'zbekiston xalq artisti, Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti an'anaviy ijrochilik kafedrasи mudiri, professor Munojatxon YO'LCHIYEVA ham bor. Biz ularni ushbu ulug' unvon bilan tabriklab, gazetamiz uchun intervyu uyuştirdik.

– Avvalambor, "O'zbekiston Qahramoni" unvonini ol-ganingiz bilan tabriklaymiz. Bolaligingiz, san'atga qo'ygan ilk qadamingiz haqida eslab o'tsak...

– Bolaligim Andijon viloyatining Buloqboshi tumaniga qarashli Shirmonbuloq jamoa xo'jaligidagi o'tgan. Sakkiz yoshimda maktabga borganman. Aqlimni taniganimdan buyon san'atga oshufta bo'lib, muhabbat qo'yib ulg'ayganman. Oilamizda san'atga bo'lgan mehr, qiziqish kuchli bo'lgan. Bunga onamiz sababchi bo'lgan, desam adashmayman. Chunki onamning qo'nig'iroqdek ovozi bor edi. Buni butun qishloq ahli bilishar edi. Dalaga ishlagani chiqishgan paytlari qishloqdagi teng-qurlari onama: "Muborakxon, siz ishlamasdan jo'yakning boshida ashula aytib turing, sizning o'ningizga biz mehnat qilamiz", – deb aytishar ekan. O'qishlarni bitirganimizdan keyin, bizdan 3-4 yosh katta mahalladoshim institutdan yozgi ta'tilga kelganda kolxoz dalasida uzoqdan chiroyli nolali ovoz eshitigan. Yo'lda to'xtab ovozni tinglagan. Bu ovoz kimniki ekan deb hayron bo'lgan. Keyin bilsa, u mening onam ekanlar. O'shanda menga u shu ovozga mahliyo bo'lganini, menga ham onamning chiroyli ovozi o'tganini aytgan edi.

Biz oilamizda sakkiz nafar farzand bo'lgan bo'lsak, ulardan ikkitasi o'g'il, oltita qiz: Muhtaramxon opamiz, Abdushoshim akam, men va mendan keyin Muhammadali ukam, keyin Saboxon, Manzuraxon, Matluba-xon, Dilfuzaxon ismli singillarim bor – hammalari ashula aytib turishadi, barchasining o'ziga xos ovozlari bor. Maktabda har qanday tadbir bo'ladimi, bayram dasturlari bo'ladimi, bizning chiqishlarimizsiz o'tmas edi. Nafaqat bizning oilamizdagilar, balki xolamning o'g'llari ham rubob chalishar, tog'amning qizlari ham ashula aytishar edi. Hammamiz deyarli tengdosh bo'lganmiz. Qarabsizki, hammamizning iste'dodimiz bor edi. Yangi yil bayrami konsertlarida, maktab tadbirlarida musiqa ustozimiz boshchiliklarida o'zimiz konsert dasturlari uyuştirar edik. Bir yili tumanimizda "Madaniyat uyi" bo'Imaganligi uchun viloyat hokimiyatidan "Madaniyat uyi" tuzish haqida buyruq kelgan. Shundan so'ng har bir viloyat maktablaridan qo'shiq aytishga, raqs tushishga iqtidori bor bolalardan ansambl tuzilgan. Unga rahbarlik qilish esa O'zbekiston xalq artisti Fattohxon Mamadaliyevga topshirilgan. Ushbu ansamblga meni ham taklif qilishgan. Fattohxon Mamadaliyev barcha tanlanganlarni o'zları sinovdan o'tkazganlar. Lekin negadir meni o'shanda xonandalikka o'tkazishmagan. Ota-onam raqqosalikka ruxsat berishmaydi, meni xonandalikka o'tkazing deb norozi bo'lganman. Shunda menga: "Sizga qo'shiq kuylashni ham o'rgatamiz, hozircha raqs guruhiga odam kerak. Qolaversa, qo'l harakatlaringiz ham mos tushdi", – deb aytishgan. Shu tariqa, raqs guruhiga qo'shilganman. Oradan taxminan yarim yilcha muddat o'tib, bizni Toshkentda bo'ladigan konsert dasturiga qatnashishga olib ketadigan bo'lishdi. Men bora olmayman, otam ruxsat bermaydilar deganman. Otam juda qattiqxo'l inson bo'lganlar. Chunki oilamdagilarga xonandalik to'garagiga boryapman deb



“

*Biz maqomchi bo'lamiz
deganimizga ba'zi
o'qituvchilar mensimagan.
Meni nimagadir opera-
akademik xonandalik
yo'nalishiga ovozi to'g'ri
kelmaydi deyishgan va
ustozimga yo'naltirishgan.
Ustozim xursand bo'lib:
"Mana men tayyorlayman",
– deb bajonidil qabul
qilgandilar.*

”

aytgandim-da... Aksiga olib otam sanatoriya dam olayotgan edilar. Shu fursatdan foydalanib, kolxozimiz raisi, "Madaniyat uyi"ning direktori, Ayollar qo'mitasining raisi va yana bir necha kishi onamdan ruxsat olish uchun uyga kelishgan. Ammo onam: "Yo'q, otasi ruxsat bermaydi", – deb rad qilgan edi. Bir qancha urinishlardan so'ng onamni amallab ko'ndirishgan. Toshkentga borib, ommaviy chiqish qilganmiz. Uyga kelishda otam ko'rgan bo'lsa, nima qilaman deb yuragimni hovuchlab kelganman. Uyimiz eshigining yoni-

da onam ko'rib qoldilar. Ularga qarab, "Otam uydami?" – deb so'raganman. Onam: "Ha, uyda, kiraql", – degandilar. Avvaliga kirgim kelmay, so'ng tavakkal qilib hovliga qadam bosganman. Meni uzoqdan ko'rgan otam: "Ly-e, qizim, keldingmi", – deb ochiq chehra bilan kutib olganlar. Otam meni televizorda ko'rmabdilar shekilli deb o'ylab, bemalol dasturxon atrofiga kelib o'tirganman. Endi ovqat yeyish arafasida turganimizda otam: "Qizim, sanatoriya paytim televizor ko'rib o'tirganimizda seni ham konsertda ko'rsatishdi", – deb aytdilar. Otamdan kutilmaganda bu gapni eshitib, tanamda titroq turgan. "Sheriklarimga qizim ekanligingning aytib maqtandim", – deya xursand bo'lib aytganlardan keyin o'zimga kelganman. Mana shu voqeordan so'ng, agar menga ashula o'rgatishmaydigan bo'lsa, boshqa "Madaniyat uyi"ga bormayman degan qarorga kelgandim. Yillar o'tdi, akam armiyaga ketadigan bo'ldi. O'sha paytlar biror yigitni armiyaga kuzatish tantanali tarzda o'tkazilar edi. Uyimizda katta bayram dasturxonni yozilgan, butun qishloq aholisi yig'ilgan. Shunda kimdir: "Munojat ham ashula aytib bersin", – dedi. U paytlarda men O'zbekiston xalq artisti Habibaxonim Oxunovaning ashulalarini xirgoysi qilib yurar edim.

(Davomi 8-9-sahifalarda)



Bilganlarimni to'rt qator-to'rt qator qilib aytib berdim. Shunda ichkarida tog'am onamdan: "Bu ashulani aytayotgan kim", – deb so'raganlar. Onam: "Jiyaning Mu-nojat-ku, tanimadingmi", – deb javob bergenlar. So'ng men ichkariga choy ko'tarib kirib qolganman. Tog'am: "Jiyan, qo'shiqni rostdan ham sen aytdingmi, qani, menga ham aytib ber-chi", – degan edilar. Men bilgan ashulalarimdan oz-ozdan xirgoyi qilgandim. Shundan keyin tog'am mendan kim bo'limoqchi ekanligimni so'raganlarida, otamga eshittirmasdan madaniyat institutining musiqa bo'limiga topshirmoqchiman degandim. Hatto bolalarcha beg'uborlik bilan Xudoga akam tezroq armiyaga ketsin, otamni amallab ko'ndirarman, deb iltijo ham qillardim. Oradan ancha vaqt o'tib, bir kuni tog'am yana uyimizga mehmonga kelgandilar. Hovlida meni ko'rib, jiyan hujjatlingni qayerga tayyolaysan, deb qoldilar. Ammo o'shanda tog'am bilan suhbatimizni hovlida ketmon chopib turgan otam ham eshitib qolgan, "Sen qiz, haliyam san'atkor bo'lish fikringdan qaytmadingmi? Hech qayoqqa bormaysan. Seni erga bera-man?" – deb mendan qattiq jahli chiqqan edi. O'shanda tog'am otamga: "Siz jiyanimga to'sqinlik qilmang, uning yuz yilda ham kelmaydigan noyob ovozi bor, – deb tinchlantirishga harakat qildilar. – Men ham san'atkorlar ichida yuraman. Lekin hamma san'atkorlar ham yomon emas. Agar jiyanim xato qilsa, o'zim uning jazosini beraman. Qolaversa, siz va opamning tarbiyasini olgan qiz bizni uyaltirib qo'ymasligiga ishonaman. Lekin hozir uning kelajagiga to'sqinlik qilmang". Peshindan so'ng soat uchda boshlangan bahs tonggi oltigacha davom etgan. Orada menga qanchadan-qancha pand-nashitatlar berishgan. Oxir-oqibat otam tog'amni hurmati uchun menga oq fotiha bergandilar.

– Taqdirlanganingizni eshitganin-gizda qalbingizdan qanday hissiyotlar kechdi?

– Televideniyeda bayram oldi tadbiriga suratga tushayotgan edim. Boshida aytishganida ishonmadim, juda ham dovdirab qoldim, kimdir hazillashyapti

deb o'yladim. Yo'g'-e, bo'lishi mumkin emas, xabarim yo'q-ku dedim. Chunki bunday taqdirlanishlar oldidan doim rasm yoki hujjatlar so'ralar edi. Hozirgacha hayajonim juda ham cheksiz. Qanchalik yuksak mukofot bo'lsa, mana shunchalik yuki ham og'ir bo'lar ekan. Xudo xohlasa, xalqimiz uchun yanada yaxshi ijod mahsullari yaratib, chiroyli konsert dasturlarini o'tkazishda davom etamiz.

– Shu unvonga loyiq ko'rilingun-ingizcha qanday yo'llarni bosib o'tdin-giz, qanday mashaqqatlarni, uyqusiz tunlarni boshdan kechirdingiz?

– Albatta, bunday mukofotgacha juda ko'p o'zimiz bilgan, bilmagan, sezmagan to'siqlarni bosib o'tdik, to'qnashdik. Lekin mana shunday og'ir damlarda yuragimda bir ilinj bo'lar edi. Bu – Allohma va uning marhamatiga ishonch. Keyingi navbatda kasbimga bo'lgan mehr va fidoyilik. Mana shunday narsalar menga kuch berar edi. Vaqt kelganda quvonar edim, o'kinar edim. Ammo shunda ham "Ayol kishining joni qirqa bo'ladi, qirq birinchisiga ham kuch topa oladi" degan naqlida aytiganidek men o'zimda metin bir irodani sezardim va haligacha uni his qilaman. Shu bilan birga, men san'at olamiga qadam qo'yganimdan boshlab faqatgina yaxshi insonlarga yondashdim, ularga havas qildim. Aynan shu havas meni mana shunday kunlarga olib kelgani ham Allohnning marhamati, deb o'layman. To'g'ri, insonda ruhiy tushkunlik bo'lsa, undan chiqib ketishi qiyin bo'ladi. Lekin bularni sabr bilan yengib, kuch topa olish lozim. Men yoshlik paytimda otamdek qaysar, mard, katta yurakli qiz edim. Biroq hayot o'z me'yorida, sekinlik bilan turmush tarziga tarbiyalab olib kirib qo'yar ekan. Shu paytgacha qiyinchiliklardan nolib, biror kishiga arz qilmadim yoki bir marta ham hayotdan charchadim demadim. Bularni gapirsangiz ham shu turmush tarzi davom etadi, gapirmsangiz ham. Faqat qaysi yo'l siz uchun to'g'ri yoki noto'g'riliqini anglab olishingiz kerak. Qachonki shu to'siqlarni yengib oldinga qadam tashlasangiz, yomon xayollardan voz kechib, yorug'likka intila boshlaysiz.

– Bilamizki, hozir O'zbekiston davlat konservatoriyasida faoliyat yuritib kelmoqdasiz. Ushbu muassasada ustozingiz O'zbekiston xalq artisti, taniqli sozanda va bastakor Shavkat Mirzayevning maslahatlarini amalda qay tarzda qo'llab kelmoqdasiz?

– Mening ustozlarim O'zbekiston xalq artisti, el sevgan san'atkor, sozanda va bastakor Muhammadjon Mirzayev va ularning farzandi O'zbekistonda xizmat ko'satgan artist Shavkat Mirzayevdir. Men 1978-yil oddiygina o'rta maktabni bitirib, Toshkent davlat konservatoriyasiga (hozirgi O'zbekiston davlat konservatoriysi) hujjatlarimni topshirganimda, ustozim Shavkat Mirzayevga talabalariga xonandalikdan, rubob chalishdan dars bergan. O'shanda komissiya a'zolari ichida ustozim ham bo'lганlar. Biz maqomchi bo'lamic deganimizga ba'zi o'qituvchilar mensimagan. Meni nimagadir opera-akademik xonandalik yo'naliishiga ovozi to'g'ri kelmaydi deyishgan va ustozimga yo'naltilishgan. Ustozim xursand bo'lib: "Mana men tayyorlayman", – deb bajonidil qabul qilgandilar. O'sha payt musiqiy bilimiz yetarli bo'lmaganligi sababli bizni ikki yillik tayyorlov bo'limiga qabul qilishdi. Bu vaqt mobaynida ustozim tinglovchilar e'tiboridan chetda qolgan ashulalarni ovozimga moslab kuylattirganlar. So'ngra ularni radio-televideniye qoshidagi yozuv studiyasida yozdirib, "Oltin fond"ga qoldirishgan. Ustozimni dars jarayonida juda ko'p kuzatganman. Talabalik davrimdanoq ular bilan birgalikda yosh talabalarga dars o'tganimiz. Talabalarga ovoz apparatlari, ovozni yo'naltirish, ovoz apparatlarini boshqarish, g'azallarni tahlil qilish, fors tili va boshqa ko'p jihatlarni o'rgatar edik. Domlaning o'zi xonanda bo'lmagan bo'lsalar-da, lekin ulardan ham kuchliroq iqtidorga ega edi. Ularda ichki ovoz bo'lgan. Ya'hi ular yarim ovozda xirgoyi qilib o'rgatar edilar. Biz o'shani to'liq ovoz bilan yetkazib berishga qiyinalar edik. Buni anglab olgan odam bilardi.

– Yaqin orada yana duet yaratish rejangizda bormi?

– Takliflar tushib turibdi. 2019-yilda biz Javohir Zokirov bilan "Fig'onkim" qo'shig'ini duet tarzida kuyladik. Bunday olib qaraganda ijro uslubimizni umuman o'zgartirmasdan kuyladik, faqatgina elektron cholg'ular yordamida bezak berildi. Lekin bu ijro yo'naliшини o'zimning yo'naliшимга emas, o'sha qolipga moslab ijro etib berdim. Vaholanki bu qo'shiqni milliy yo'naliishni qabul qila olmaydigan yosh tinglovchilarimiz ham juda yaxshi kutib olishgan. Aytmoqchimanki, faqatgina mana shu narsalarni e'tiborga olgan holda duet qilish mumkin. Buning uchun shoshilmasdan hamma tomonning tarozisini teng pallada olish kerak.

Yana bir bor Munojatxon Yo'chiyevni gazetamiz tahririyati nomidan unvon bilan tabriklab, kelgusidagi ijodida yanada yuksak parvozlarni tilab qolamiz!

Dilrabo TOLIBOVA suhabatlashdi.



Yangi o'quv yilining boshlanishi maktabgacha ta'lif muassasalari uchun ham muhim qadamdir. Zero, mazkur muassasalarda katta guruhlarda ta'lif tarbiya oladigan bolalar boshlang'ich ta'lifga tayyorlanishadi. Bugun dolzarb masalalardan biri ham aynan 6 yoshli bolalarning maktab ta'lifiga tayyorlanishi bo'lib qoldi. Boisi bu bolaning kelgusida boshlang'ich ta'lifni yaxshi egallashidagi ilk poydevor vazifasini o'taydi.



**Nega davlat MTMlari
tarbiyalanuvchilarini 3 yoshdan
xususiy bog'chalar esa
1,5-2 YOSHDAN QABUL QILADI?**



Bu borada bugun yurtimizda mutlaqo yangi "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi amalga joriy etildi. Xo'sh, aslida bugun yurtimizda boshlang'ich ta'lifga tayyorgarlik qay holatda?

Vazirlar Mahkamasining
2018-yil 8-dekabrdagi
“Bolalarni boshlang’ich
ta’limga majburiy bir yillik
tayyorlashga bosqichma-
bosqich o’tish chora-
tadbirlari to’g’risi”dagi
999-sonli qaroriga
asosan 2018-2019-o’quv
yilida Qoraqalpog’iston
Respublikasi To’rtko’l
tumanida, Farg’ona
viloyatining Furqat tumani
va Quvasoy shahrida hamda
Toshkent shahrining Mirzo
Ulug’bek, Mirobod, Bektemir,
Uchtepa, Yashnobod,
Chilonzor, Yunusobod va
Shayxontohur tumanlarida
bolalarni boshlang’ich
ta’limga majburiy bepul
bir yillik tayyorlash tizimi
tajriba-sinov tariqasida
muvaffaqiyatli amalga
oshirildi.
Tajriba-sinov doirasida
Qoraqalpog’iston
Respublikasi, Farg’ona viloyati
va Toshkent shahrida tashkil
etilgan bolalarni boshlang’ich
ta’limga majburiy bepul bir
yillik tayyorlov guruuhlarining
494 ta’guruhida 11 ming
103 nafar bola tayyorlovdan
o’tdi. Natijalar asosida
Vazirlar Mahkamasining
2020-yil 9-mayda “Bolalarni
boshlang’ich ta’limga
majburiy bir yillik tayyorlash
tizimini yanada rivojlantirish
chora-tadbirlari to’g’risida”gi
132-sonli qarori qabul qilindi.
Ushbu qaror doirasida
o’tgan davr mobaynida
muktabgacha ta’lim
muassasalarining qamrovi
ortdi.



– Bog’chaga qamrab olingan 669 mingdan ziyod 6 yoshli bolalarning 114 mingdan ortig’i qisqa muddatli guruhlarda, 89 mingdan ortig’i boshlang’ich ta’limga majburiy bir yillik bepul tayyorlov guruuhlarida, yana 311 mingdan ortig’i esa muktabga tayyorlov guruuhlariga qamrab olindi, – **deydi**
Muktabgacha ta’lim vaziri Agrippina SHIN. – Ularning barchasi muktabga tayyorlov bilim, ko’nikmalariga ega bo’ldi. Tan olish kerak, 6 yoshli bolalarning barchasini to’liq qamrab ulgurganimizcha yo’q. Biroq keyingi yillarda bu ko’rsatkich yanada ortishiga harakat qilmoqdamiz. 2025-yilga kelib 6 yoshli bolalarning barchasini bir yillik bepul tayyorlov guruuhlariga jalb qilishga erishish kutilmoqda.

Muktabga qanday tayyorlanadi?

6 yoshli bolalarni qisqa yoki uzoq muddatli tayyorlov guruuhiga kiritish bilan ish bitmaydi. Ularning mazmunli vaqt o’tkazishi va ilm olishga tayyorlanishini ta’minalash lozim. Bu esa o’ziga xos dastur, darslik va o’quv qurollarini talab etadi. Shu bilan birga, yetarlichcha bilim bera oladigan kadrlarga ham talab ortadi.

Buni qarangki, bugun bolalarni muktab ta’limiga tayyorlashda “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi hamda “Ilm yo’lli” variativ o’quv dasturidan foydalani moqda. Mazkur dasturlar Davlat ta’lim inspeksiysi va boshqa tegishli tashkilotlar bilan o’zaro hamkorlikda yaratilgan bo’lib, bolalarning yosh xususiyatlari to’liq

inobatga olingan.

Shu o’rinda savol tug’iladi, mazkur o’quv dasturlari orqali bolalarning qay darajada o’zlashtirayotgani, ta’lim olayotgani va bilimi baholanadimi?

Mutaxassislarining aytishicha, “Ilm yo’lli” variativ o’quv dasturi o’z ichiga baholash mezonlarini ham olgan bo’lib, har oy so’ngida guruuh rahbari (pedagog) tomonidan dasturda belgilangan me’yorlarga va talablarga bolaning qanchalik mosligi baholanadi. Shu asosida kelgusida yana ta’lim jarayonida qanday metodlardan foydalanish va nimalarga ko’proq urg’u berish aniqlanadi.

(Davomi 12-13-sahifalarda)

(Boshi 10-11-sahifalarda)

Ba'zilar farzandim muktabga borsa o'r-ganadi-da deya xato fikrlashadi. Boisi dastlabki tushunchani olmagan bola, birdaniga darslarغا ko'nikib keta olmaydi. O'yinqaroqlik bilan fanlarni yaxshi o'zlashtira olmasligi mumkin. Bu ularning a'lochilar safidan joy olishida to'siq bo'ladijan omildir. Garchi ba'zi bolalar fanlarni yaxshi o'zlashtira olsa-da, aksariyati o'zlashtirishga qiynaladi. Shu boisdan uzlusiz va uzviy yuqori malakali ta'limni ta'minlashda bolani muktabga chiqmasidan oldin o'qitish lozim.

Biroq bu uni uuda ota-onan boshqaruvida majburan dars tayyorlatish kerak degani emas. Ya'ni bola tengdoshlari safida maxsus o'quv dasturlari asosida o'z yoshiga mos bilimni egallashi lozim. Tarozining ikkinchi pallasi ham bor, ya'ni ayrim ota-onalar farzandini muktabga 6 yoshdan yoki undan ham ertaroq berishga harakat qiladi. "Kallasi o'tkir, bilimi bor, intilishi bor" deya uning ertaroq muktabda o'qishini xohlashadi.

Aslida mutaxassislar bejizga bolaning muktab yoshini belgilashmagan. Bunda har bir boladagi jismoniy, aqliy va ruhiy holat inobatga olingan. Garchi u aqlli bo'lsa-da ma'nani va jismonan hali kichik. Bu ularni to 7 yoshga yetmaguncha bog'chada qolishi yoki tayyorlov guruhlarida o'qib turishi afzalroqligini anglatadi.

**BEPULMI?**

– Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash haqida so'z borsa ko'pchilikni bir savol qiyinaydi. Ya'ni o'qish bepulmi?

– Boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlov yuqorida biz tilga olgan qarorga binoan bepul hisoblanadi. Unda ta'lim xarajatlari to'laligicha davlat tomonidan qoplanishi aytib o'tilgan. Bu ota-onalarni moddiy xarajatdan qochmasdan, bemalol farzandini tayyorlov guruhlariga topshirishiga imkon beradi.

Bugun davlat byudjetidan bir nafar bolaning ana shunday xarajati uchun oyiga 416 ming 700 so'm ajratilmoqda. Bu yiliiga 5 million so'm degani. Raqamlarga ahamiyat bersak, o'tgan yili majburiy bepul bir yillik tayyorlov uchun davlat byudjetidan 57,8 milliard so'm mablag' ajratilgan. Bu esa qisqa muddatda ko'plab bolalarni ana shunday tayyorlov guruhlariga qamrab olish imkonini bermoqda.

Biroq qisqa muddatli guruhlarda ota-onalar uchun ba'zi to'lovlari mavjud bo'lib, oiladan 1 nafar bola qatnaganda Toshkent shahrida 38 000 so'm, viloyat markazida 36 000 so'm, viloyatga bo'y sunuvchi shaharlarda 32 000 so'm, tuman markazida 29 000 so'm, boshqa joylarda 26 000 so'm undiriladi. Oiladan 2 nafar va undan ortiq bola qatnaganda esa Toshkent shahrida 26 000 so'm, viloyat markazida 25 000 so'm, viloyatga bo'y sunuvchi shaharlarda 23 000 so'm, tuman markazida 20 000 so'm, boshqa joylarda 18 000 so'm.

Shuningdek, respublikaning 70 ta tumanlarida joylashgan MTTlarda ushbu miqdorlar ikki baravar kamaytirilgan holda to'lanadi.



“Ilm yo‘li” nima beradi?

– Yuqorida biz muktabga tayyorlovda bolalar “Ilm yo‘li” variativ o‘quv dasturidan foydalanib, boshlang‘ich ta’limga tayyorlanishi haqida so‘z yuridik. Mazkur dastur qanday va u orqali bolalar nimalarni o‘rganishi mumkin? Umuman bugun tayyorlov guruhlariga qamrov va u yerda ta’lim beradigan kadrlar bilan bog‘liq vaziyat qanaqa?

– *Respublikamizda muktabga tayyorlov guruhlari 10726 tani, qisqa muddatli guruhlari 8987 tani va bir yillik majburiy ta’lim bo‘yicha guruhlari esa 3149 tani tashkil etadi. Ularda jami 544 mingdan ziyod bolalar qamrab olingan, – deydi Maktabgacha ta’lim vaziri o‘rinbosari Uzoqboy BEGIMQULOV.* – Bir yillik majburiy ta’lim bo‘yicha guruhlarga 3149 nafar tarbiyachi va yordamchi tarbiyachilar hamda 786 nafar musiqa ta’limi bo‘yicha pedagoglar jalb etilgan. Tayyorlov guruhlari “Ilm yo‘li” variativ dasturi asosida bolalarning to‘laqonli tarbiyalanishi, o‘qishi, muktabda ta’lim olishga samarali tayyorlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan. Unda xorij tajribasi ham inobatga olingan bo‘lib, o‘quv faoliyati kuniga 3 saat davom etadi. Dasturning majburiy qismi 80 foizni, variativ qismi esa 20 foizni tashkil qiladi.

Bu yerda davlat talablariga muvofiq, bolaning beshta muhim rivojlanish sohalari inobatga olingan. Bular: bolaning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzinining shakllantirilishi; ijtimoiy hissiy rivojlantirilishi; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalarining rivojlantirilishi; bilish jarayonining rivojlantirilishi; ijodiy rivojlantirilishi.

Albatta, ta’lim jarayonida pedagoglar ta’lim sifatini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Shu bois ularning metodikasini takomillashtirish bo‘yicha maxsus tayyorlovdan o’tkaziladi. Ta’lim sifati esa pedagoglarga va metodik ta’minotga bog‘liq. Biz bu borada har ikki tomonni ham kuchaytirmoqdamiz. Bunda YUNISEF tashkiloti bilan hamkorlik ham yo‘lga qo‘yilgan.

Nega bog‘chaga 3 yoshdan olinadi?

– Yana bir masala bolalarning muktabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilinish yoshi bilan bog‘liq. Ma‘lumki, davlat muktabgacha ta’lim muassasalariga bolalar 3 yoshdan, nodavlat bog‘chalarga esa 2 va undan kichik yoshdan ham qabul qilinaveradi. Nodavlat muktabgacha ta’lim muassasalarida kichik yoshda qabul qilinsa-da, narxlar qimmat va bu ayrim ota-onalarning e’tirozlariga ham sabab bo‘lmoqda. Bu borada Muktabgacha ta’lim vazirligiga ham ko‘plab savol va murojaatlar bo‘layotgani tabiiy. Yosh chegarasining sababi nima va bu qanday mezonlar asosida belgilangan?

– *Muktabgacha ta’lim muassasalarida foydalanilayotgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi zamon talabiga va xalqaro standartlarga moslangan, – deydi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, tahlil qilish va strategik muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisasi Farhod KELDIBEKOV.* – Unda xalqaro tajriba o‘ganilgan va dunyo standartida ham aynan 3 yoshdan boshlab muktabgacha ta’limga qamrab olish nazarda utilgan. Bu borada bir qancha mezonlar bor. Jumladan, uch yoshdan boshlab bolalar bermalol o‘zi bilan tengdosh bolalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, uch yoshdan boshlab bolaning immunitet tizimi mustahkamlanib, turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurasha oladigan bo‘ladi. Bundan tashqari, muktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya berish muhim ahamiyatga ega. 3 yoshdan kichik bolalarga ta’lim-tarbiya berishdan ko‘ra ko‘proq parvarishlash lozim. Ya’ni ularga g‘amxo‘rlik qilish, qarab turish kerak. Shu jihatdan davlat muktabgacha ta’lim muassasalariga 3 yoshdan qabul qilinadi. Nodavlat muktabgacha ta’lim muassasalarida esa bolani qabul qilish yoshi, muassasaning ustavida belgilangan bo‘ladi.



Xulosa o‘rnida...

Bolaning yoshiga qarab uning imkoniyati, qabul qilishi turlichcha bo‘ladi. Nima bo‘lganda ham bejizga muktab va bog‘cha yoshi belgilanmagan. Shunday ekan, bolalarga ortiqcha bosim qilib, qiynalishiga sabab bo‘ladigan qo’shimcha ta’limga shoshilmang. Buni soha mutaxassislari, pedagog va tarbiyachilarga qo‘yib bering.

Noilaxon AHADOVA tayyorladi.

KO'ZDA YOSH-U QO'LDA KITOB OH-FIG'ON BOLASI

Kun-u tun uyqungizdan kechib ulg'aytirgan, yemay yedirgan, ichmay ichirgan, kiymay kiydirgan farzandingizni umringizda ko'rmangan begona bir insonga qo'sh qo'llab berib yuborgan bo'larmidingiz? Afg'on onalari shunday qilishdi. Ular to'g'ri qildimi? Ular o'zi nimani o'ylagan edi? Bu qarorga kelish ularga oson bo'limgani aniq, ammo ular shunday qilishdi. Nima uchun?

Men kimnidir qaysidir kamchiligi yoki yutug'iga ko'ra, birini ikkinchisiga solishtirishni yomon ko'raman. Ammo, ijtimoiy tarmoqlarni kuzata turib, bir videorolikka ko'zim tushdi va shu maqolani tayyorlashga jazm etdim.

Boshlovchi ko'chada ketayotgan o'quvchini to'xtatib so'roqqa tutmoqda:

– *O'zbekistonda bitta narsani o'zgartirish imkonি berilsa nima qilardingiz?*

– Maktabni yo'q qilib yuborar edim. Ko'rinishidan bib-binoyi bolaning aytgan fikridan etlarim junjikib ketdi. Umr yo'limizni yoritadigan, kelajagimizga tamal tosh bo'ladijan maktabni u nega yo'q qilmoqchi? Axir mакtab muqaddas dargoh emasmi? Bu bolaning shunday qarorga kelishiga kim yoki qanday omil sabab bo'ldi ekan? Bu go'yo tuzingni yeb tuzlug'ingga tupurishdek gap emasmi? O'ya tolaman. Beixtiyor bundan bir

necha kun avval ko'rganim so'ngra tushlarimga kirib chiqqan suratni xotirlayman.

7-10 yoshlardagi afg'on bolasining shundoqqina ortida portlash sodir bo'lgan. Boisi uning tutuni shundoqqina bilinib turibdi. Kamiga ortidan jangarilarning qurollangan mashinasi yaqinlashmoqda. U ko'zida yoshi bilan, siniq jilmayib qo'lida allaqanday kitobni varaqlab turibdi. Kitobki uvadasi chiqib, sarg'ayib ketgan, yarmi yo'q. Kimdir jonini saqlash ilinjida qochish bilan, yana kimdir berkinish bilan ovora, ammo bolakay u xuddi buyuk bir mo'jizaga shohid bo'lgan kimsaday kitobga tikilib siniq jilmaymoqda. Shu suratni ko'rdim-u tursam ham, yursam

ham oromimni yo'qotdim. Faqat o'sha bolakay haqida o'yladim. Ko'nglimda faqat bir so'z aylanaverdi, ishqilib o'sha bolaga hech narsa qilmadimikan? Kitobini biror chetroqqa borib o'qisa bo'lmasmikin?

Endi his-hayajonni bir chetga surib, ilmiy va siyosiy faktlarga e'tibor qaratadigan bo'lsam, ma'lumki, 15-avgustdan e'tiboran Afg'oniston boshqaruvidagi inqirozli vaziyat butun dunyoning misli ko'rilmagan xavotiriga sabab bo'ldi. Ushbu inqiroz fonida afg'on jamiatida sodir bo'layotgan voqealar, xatti-harakatlar ta'lim-tarbiya, savodilik darajasi jamiyat hayotida, barqarorlikka erishishda naqadar hal qiluvchi ahamiyatga ega masala ekanligi yanada ravshan bo'lib qoldi. Shu o'rinda beixtiyor ma'rifatparvar Maximudxo'ja Behbudiyning quyidagi fikrlari ko'z oldimizdan o'tadi:

“Bir karra diqqat qilib, mahalla-ko'y va qishloq xalqlariga qaralsun. Avomlik, beilmlik naqadar ko'paygan.

Biz musulmonmiz. Musulmonlikka ilm lozim, amal lozim. O'qumoq kerak, nima uchun boshqa millatlarda yuza bir nafar besavod yo'q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo'q?





Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe' ekan, bizni ulamo bil'aks avomga tobe'dur? Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'ttiz sana so'ngra yana yomonroq bulur, musulmonlik, ilm va odob ila qoim. Millat axloqi, fazl va hunar ila boqiy qolur".

Xo'sh, Afg'onistonning madaniy rivojlanish so'nggi 20 yilda qanday o'zgarishlarga yuz tutdi? Qanday muammolar saqlanib qoldi?

Afg'oniston Islom Amirligi (2021-yilning 15-avgustigacha Afg'oniston islam respublikasi) – Janubi-g'arbiy Osiyoning eng chekka sharqiy qismida joylashgan mamlakat. Geografik o'rniiga binoan Yaqin Sharq mamlakatlari qatoriga ham kiritiladi. Maydoni 652,2 ming km².

Aholisi 37 mln. 466 ming 414 kishi (2021). Poytaxti – Kobul shahri. Afg'oniston ma'muriy-hududiy tuzilishiga ko'ra 34 viloyat, 421 tumanga bo'lingan.

Eron, Pokiston, Xitoy, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston bilan chegaradosh. Afg'oniston bilan O'zbekiston o'tasidagi chegaranining uzunligi — 137 km.ni tashkil qildi.

Jahon banking statistik ma'lumotlariga ko'ra, Afg'onistonda savodxonlik darajasi dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, 43 foizni tashkil etadi. 15 yoshdan oshgan erkaklarning 55,5 foizi o'qish va yozishni biladi, ayollarda esa bu ko'rsatkich ancha past – 29,8 foiz.

Xalqaro "Human Rights Watch"ning aytishicha, Afg'on maktabalaridagi bolalar soni 2001-yilda 900 mingdan 2017-yilga kelib, 9,2 millionga o'sgan, ularning 39 foizi qizlardir. 2018-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda umumiy o'rta ta'lim uchun 16 mingta maktablar mavjud bo'lib, ularning 7 mingdan ziyodi usti ochiq, ya'ni tomsiz yoki bo'lmasa o'qish sharoiti yaxshi bo'lmagan chodirlarda faoliyat yuritadi. Shuni ham aytish kerakki, "Tolibon", ISHID kabi mamlakat bo'ylab tarqalib ketgan turli xil tor manfaatlarga ega murosasiz, aqidaparast guruhlarning tez-tez maktablarga uyushtiradigan hujumlari oqibatida mingdan ziyod maktablar yopilgan.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, boshlang'ich maktablarga e'tibor qilinsa, 2012-yilgacha qiz bolalar soni 40 foizga oshgan bo'lsa, 2012-yildan keyin bu ko'rsatkich biroz pastlagan.

YUNISEF Bolalar jamg'armasining 2019-yilgi hisobotida keltirilishicha, Afg'onistonda barcha yoshdagi qizlarning o'g'il bolalarga nisbatan maktabga borishi ehtimoli pastroq, jinslar o'tasidagi farq esa 10 yoshlarda ortib boradi va 14 yoshlarda cho'qqisiga chiqadi. Ta'kidlanishicha, bugun maktabga bormaydigan 7 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 3,7 million bolaning 60 foizi qiz bolalardir. Mamlakat ta'lim vazirligiga ko'ra, Hilmand va Uruzg'on viloyatlarida 85 foiz qizlar maktabga yuborilmaydi. Qandahor viloyatida esa 17 ta tumanning bor-yo'g'i 3 tasida qizlar maktabi mavjud. U yerda hatto o'g'il bolalar maktablari ham kam. YUNISEF hisobotida aytishicha, Afg'onistonning katta qismida, ayniqsa, Tolibon va boshqa isyonchi guruhlar nazorat qiladigan hududlarda qizlarning maktabga borishi juda past darajada. Bu esa mamlakatda gender tenglikni ta'minlashda jiddiy muammodir.

Afg'onistonning Milliy ta'lim strategik dasturida (2017-2021) yozilishicha, ta'lim imkoniyatlarida tenglikni ta'minlash uchun qiz bolalar ta'limiga ko'proq investitsiya qilish lozim. Ta'lim sektorida ishlovchi ayollar ulushi ko'paygan. 2018-yilgacha Afg'onistonda o'qituvchilarining 1/3 qismi ayollar edi, qizlar orasida savodxonlik darajasi ham o'sgan. Rasmiy ma'lumotlarga tayanilsa, 2002-yildan 2018-yilgacha davlat universitetlarida qiz talabalar soni yetti marta oshgan, ya'ni bu o'sha davrlardagi o'g'il talabalar soni o'sishidan ko'proq bo'lgan.

HIMOYASIZ QATLAMLARGA SIFATLI TA'LIM BERISH

Kuchli ta'lim tizimi ko'proq bolalarni maktabga jaib qilish, ularni o'sha yerda saqlash sog'lom va mas'uliyatli fuqaro bo'lib yetishishining kalitidir. Har bir o'qish yili kelajakdagagi ish haqini o'rtacha 3,9%ga oshiradi. Mamlakatda YUNISEF ta'lim vazirligi va boshqa sheriklar bilan yaqin hamkorlikda, milliy, viloyat va jamoatchilik darajasida ish olib borgan holda, qashshoqlik, kamsitish va mojarolar oqibatida ta'lim yetishmasligiga qarshi kurashish uchun aholining nochor ahvoliga, ayniqsa, qizlarga yordam berib kelyapti.

(Davomi 16-sahifada)

MAKTABLARDA KO'PROQ BOLALAR

(Davomi, Boshi 14-15-sahifalarda)

Ta'lim olish har bir bolaning huquqidir. YUNISEF maktabda bolalar sonini ko'paytirish uchun o'nlab yillar davomida hukumat va hamkorlar bilan ishlab kelyapti.

Tashkilot eng himoyasiz bolalarni, ayniqsa, maktabdan tashqari bolalar va qizlarni ro'yxatga olish va saqlashga alohida e'tibor beradi. Har bir bola jamaosidan 3 kilometr masofada jamoat maktablari va tezlashtirilgan markazlarini tashkil etish orqali rasmiy maktab tizimini va hukumatning "Jamoatchilik ta'limi" dasturini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. O'qishning muqobil yo'llarini aniqlashga yordam berib va eng qiyinlari uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga e'tibor qaratmoqda. Yaqin yillarda CBE Investment loyihasi orqali yordamni safarbar etish orqali maktabdan tashqari bolalarning 50 foizga yaqinini, ya'ni 1,7 millionga yaqin bolalarni o'qishga qabul qilish rejalashtirilgan.

Ta'lim va madaniyat, gumanitar yordam borasida qo'shni mamlakat sifatida O'zbekiston ham o'z faolligini ko'rsatib kelmoqda. 2017-yil davomida ikki mamlakat rahbarlarining bir qator do'stona uchrashuvlaridan keyin mazkur masalalar bo'yicha hamkorlik mutlaqo yangi darajaga ko'tarildi. Ayniqsa, bunda Afg'onistonda tinchlik va osoyishtalikni o'rnatish, o'zaro manfaatli sherklikni mustahkamlash, savdo, iqtisodiy, transport, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston tomonidan keng ko'lamli sa'y-harakatlar amalga oshirib kelinmoqda. Birgina 2017-yil ikki davlat rahbarining turli tadbirlarda 5 marotaba uchrashgani, jumladan, 4-5-dekabr kunlari Afg'oniston Islom Respublikasi sobiq Prezidenti Muhammad Ashraf G'anini mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgani ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga yangicha ruh bag'ishladi.

Ta'kidlash joizki, 2017-yil Ostonada bo'lib o'tgan Islom hamkorlik tashkiloti sammiti doirasida O'zbekiston va Afg'oniston Islom Respublikasi davlat rahbarlari o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralar chog'ida o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish maqsadida Termiz tumanida Afg'on fuqarolarini o'qitishga mo'ljallangan o'quv markazini tashkil etish rejalashtirilib kelishuv natijasi sifatida, Yangiariq qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji binosida Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi tashkil etilgandi.

Markaz faoliyatini samarali yo'iga qo'yish uchun barcha shart-sharoitlar

muhayyo etildi. Jumladan, afg'on yoshlari uchun 750 o'rinni o'quv binosi, 180 o'rinni faollar zali, 100 o'rinni oshxona, sport zal, stadion va sport maydonchalari, shuningdek, 110 o'rinni talabalar turar joylari zarur jihozlar bilan ta'minlangan. Ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida informatika va axborot texnologiyalari, kimyo, fizika, temir yo'l transport tizimini mukammal o'qitish uchun eng zamonaviy laboratoriya va lingafon xonalari tashkil etilgan. Bundan tashqari, o'quv markazining elektron kutubxona tizimi yaratilgan bo'lib, uning bazasiga lotin alifbosidagi 700 dan ortiq elektron adabiyotlar joylashtirilgan. Ikkita infokiosk uchun o'zbek va dari tillarida dasturiy ta'minot yaratilgan bo'lib uning dasturidagi 5 ta bo'lim ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. Markazning "Elektron ta'lim tarmog'i"ga ularниsi pirovardida bu yerdan turib, talabalar O'zbekistondagi barcha OTMlarning elektron ta'lim resurslaridan foydalanishlari mumkin.

Bugun O'zbekistonda yoshlarning sifatlari va malakali ta'lim olish imkoniyatini yaratish maqsadida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, o'qituvchining jamiyatdagi maqomini ko'tarish yo'lida ushbu kasb egalarining o'rtacha oylik ish haqi 1,5 barobarga oshrildi. Ular kasbiga tegishli bo'limgan ortiqcha ishlardan xalos bo'lishdi. Respublika bo'ylab 4306 nafar o'qituvchilar uchun avtokredit berildi. Oliy ma'lumotli o'qituvchilarning ulushi 88 foizga yetkazildi. Fransuz tilini o'qitadigan maktablar soni 44 taga, nemis tili o'qitiladigan maktablar soni esa 54 taga oshirildi. 2021-yilda uzlusiz ta'linda quyidagi natijalarga erishish maqsad qilingan.

Maktabgacha ta'lim

- 2021-yilda maktabgacha ta'lim qamrovi 65 foizga, 2023-yil oxirida esa 75 foizga yetkaziladi. 600 milliard so'm subsidiya berilib, 2 mingta xususiy bog'cha ochiladi; xususiy sektor ulushi 25 foizga yetadi.

- 6 yoshli bolalarni maktabga majburiy tayyorlash tizimi yo'lda qo'yiladi. 2021-yilda 6 yoshli bolalarning 82 foizi (560 ming nafar) maktabga bepul tayyorlovga jalb etiladi.

- YUNESKO va Juhon banki bilan hamkorlikda. Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limga uyda berish modeli yo'lda qo'yiladi.

Maktablar

- Bolaning tahliiy va kreativ fikrash qobiliyatini o'stirishga mo'ljalangan yangi darsliklar tayyorlash boshsiladi.

- Boshlang'ich sinflarda DTS o'rniqa bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etilyapti.

- Boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar olyigiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa 100 foiz ustama to'lanadi.

- Hududlarda xususiy maktablar faoliyatini rag'batlantirish uchun byujetdan subsidiyalar ajratiladi.

- 10 ta prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika va ATga ixtisoslashgan 197 ta maktab ochilmoqda.

Oliy ta'lim

- ★ OTMlarda davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi.

- ★ Xotin-qizlar uchun grantlar soni 2 barobarga oshirilib, 2 mingtaga yetkaziladi. A'lo o'qiyotgan ehtiyojmand qizlar uchun stipendiyalar ta'sis etiladi.

- ★ Davlat kadrlar tayyorlash bo'yicha xususiy OTMlarga ham buyurtma bera boshlaydi.

- ★ 30 ta OTMga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi.

Shu o'rinda debochadagi fikrimizga qaytadigan bo'lsak, Afg'on ayollarini nega o'z farzandini begona yurting notanish askariga berib yuborishdi. Xulosa shuki, ular farzandini bezovta yurtda o'z bag'rida bo'lganidan ko'ra, tinchlik hukm surgan, yaxshi ta'limgartarbiya olish mumkin bo'lgan begona yurtda bo'lishini afzal ko'rishmoqda. Ularning bu ishi qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riliq bahsli masala, biroq bir narsa aniqki, notinch yurtda maysa ham unmaydi. Shu jihatdan olganda bugun mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar ko'p sonli afg'on yoshlari uchun orzu bo'lib qolayotgani sir emas. Mamlakatimizdagi yoshlar oldida esa ana shu yaratilayotgan imkoniyatlarga ongli munosabat bilan yondashish, doimiy izlanish va intilish muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Dilshod IBODULLAYEV
tayyorladi.

O'ZBEKISTONDA TA'LIM RENESSANSI 30 YIL O'TIB BO'Y KO'RSATDIMI?

Mustaqillikning 30 yilligi bir qarashda oddiy raqamdek tuyulsa-da, aslida yillar davomida bosib o'tilgan ulkan dovondir. Ushbu davr mobaynida har bir sohani rivojlantirish uchun yirik ishlar amalga oshirildi. Ana shu rivojlanish qiyinchilik va mashaqqat ta'limga sohasini ham chetlab o'tmadi. Bugun mustaqillik yillarda ta'limga tizimida duch kelingan qiyinchilik va kamchiliklar hamda hozirda erishilayotgan yutuqlar haqida so'z yuritamiz.

Dastlab maktabgacha ta'limga muassasalaridagi holat haqida to'xtalib, vaziyat qanday bo'lganligini so'zlab bersam.

Mustaqillikdan oldin ham undan keyin ham maktabgacha ta'limga muassasalarini bor edi. O'zim ham Sobiq Sovet ittifoqi davrida bog'chaga borganman. U davrdagi bog'chalarni yomon deya olmayman. Boisi o'sha vaqtida kolxoz bog'chalari bo'lar va bepul edi. Biroq u yerdagi ta'minot hozirgidek yaxshi emasdi. Omborda bor narsadan issiq ovqat qilib berishardi. Hozir bog'chada birinchi, ikkinchi ovqat bilan birgalikda qo'shimcha yengil tamaddi ham berishadi. Ta'limga tarbiya, ovqatlanish, o'qish va hatto o'yinchoqlar ham maxsus standartlar asosida belgilangan bo'lib barchasida bolalarning yosh

xususiyatlari inobatga olingan.


Dastlabki mustaqillikka kirib kelgan yillardanoq iqtisodiy muammolariga duch keldik. Oziq-ovqat taqchilligi, iqtisodiy yetishmovchiliklar xalqni, avvalo, qorin g'amini yeyishga majbur qilib, og'ir ahvolga solib qo'ygandi. O'n ikki xil oziq-ovqat mahsulotlarini kuni bilan navbat kutib zo'rg'a olardik. Bu esa maktabgacha ta'limga muassasalarida ham oziq-ovqat bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqargan, natijada iqtisodiy uzilishlar sababli bolalarni bog'chaga berish mushkul bo'lib qolgan edi. Bog'chada och qolmasligi uchun ota-onalar farzandini uyda olib qola boshlagan. Chindan ham oziq-ovqatsiz ta'limga

muassasasiga kim ham farzandini berardi. Qolaversa, odamlarda ertangi kunga ishonch yo'q edi. Hamma qo'rqardi. Pulning qadrsizlanishi, ishsizlik kuchli bo'lgani bois xalq xavotirda yashay boshlagandi. Biroq vaqt o'tishi bilan asta-sekin barchasi iziga tushib ketdi.

(Davomi 18-19-sahifalarda)

**HOZIRDA OLIV O'QUV
YURTLARIGA QABUL TEST
TIZIMIDA BO'LMOQDA.
MEN TEST SINOVLARIDAN
VOZ KECHIB, ZUDLIK BILAN
JONLI, IJODIY MULOQOT
IMTIHON USULIGA QAYTISH
TARAFDORIMAN. TEST YOD
OLINGANLARNI QO'LLASH
DEGANI, BILIMNI EMAS.**





Bozorga chiqqan fan nomzodlari

(Davomi. Boshi 16-17-sahifalarda)

Umuman ta'limning barcha turlarida parokandalik kuzatilgan edi. Iqtisodiy tashvishlar sabab ko'pchilik o'qishni va ta'lim muassasalarida dars berishni tashlab ketgan. Ota-onasi, oilasi, ro'zg'ori sababli hatto fan nomzodlari, aspirantura talabalari ham bozorga chiqib, savdogarlik qila boshladi.

Vaqt o'tdi, iqtisodiyot, moddiyat o'nglana boshladi. Biroq ana shu iqtidorli insonlarning qobiliyati bozorlarda zavol topdi va ular ta'limga qaytishmadi.

Dastlabki 10 yillikda yoshlarga qilingan mafkuraviy hujumlar ko'paydi. Chetdan kelib bolalarni o'qitaman, falon davlatga, falon joyga olib boraman, zo'r ta'lim beramiz deya

turli aldrovlar bilan iqtidorli yoshlар yig'ib olina boshlandi. Ammo berilgan va'dalar negizida o'z mafkurasini yoshlarga singdirish yotardi. Buning ortidan turli oqim va yot g'oyalalar ta'siriga tushib qolishlar ortdi. Bu aynan mustaqillikning ilk yillardagi yoshlар fikri buzilishining mahsuli edi. Iqtisodiy holat tufayli yoshlarning ayni ta'lim olish vaqtida mafkuraviy bo'shilq hosil bo'lgan. Bu esa xorij ta'limini berish niyati bo'lgan qo'shtirnoq ichidagi kishilarga qo'l keldi. Ayni o'sha vaqtarda yurtimizda Turkiya, Amerika va boshqa davlatlarning maxsus gimnaziyalari ochildi. Eng sara, iqtidorli o'quvchilar tanlab olinib, gimnaziyalarda ularga ta'lim berila boshlandi. Shu qatori yot g'oyalalar ham singdirilgan. Bu ta'limning ma'lum ma'nodagi incirozi edi.

Ta'limning yuragi – maktab

Mustaqillikning dastlabki yillarda ishlab chiqarish, iqtisodiyot rivojlantirildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichlari bosib o'tildi. So'ng ta'limdagi bo'shliqqa ham ahamiyat qaratila boshlandi. Jumladan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Unda hozirgi kunga, zamon talabiga nomutanosibliklar talay bo'lgan. Biz esa xatolar qilib, astasekin ularni to'g'rilay boshladik. Biroq aytilish kerakki, bugun mutlaqo yangi talqinda, yangi tahrirda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilish lozim.

O'tmishta juda katta mablag' evaziga kollejlar qurildi. Uni qurishda tenderlar o'tkazildi va

ayrim tender g'oliblari orasida faqat o'z hamyonini o'ylaydiganlar ham topildi. Dalalarning o'rtafiga, aholi yashash punktlaridan uzoqqa qurilgan kollejlarda o'qish ko'pchilikka malol keldi. Qolaversa, shart-sharoiti ham kutilganidek natija bermadi. O'sha sarflangan davlat mablag'laridan to'g'ri foydalanilganida, vijdonan yo'naltirilganida edi barchasi o'zini oqlagan, ta'lim tizimimiz anchayin yuqorilagan bo'lardi.

Ammo hozir bu xatolar anglab yetildi. Umumiy o'rta ta'lim yana 11 yillikka qaytarildi. Bu bilan kollejlar yo'q qilinmadı, aksincha, ulardan

professional ta'lim maqsadida foydalanila boshlandi. Endi kollejlar o'z nomiga ko'ra ta'lim berish barobarida kasbga yo'naltiradigan bo'ldi. Bugun unda tahsil olgan yoshlар kerakli hunarni o'rganib, ishga joylashish imkoniyatiga ega. O'qitiladigan kasblar esa har bir hudud ehtiyojidan kelib chiqib belgilana boshlandi. Buning samarasini kelgusi 10 yillikda yaqqol ko'zga tashlansa, ajabmas.

Zero, intellektga emas amaliyotga qaratilgan professional ta'lim 9+3 tizimidan farq qiladi. Bugun maktab va professional ta'limni taqqoslash kerakmas. Chunki ularning funksiyalari turlichadir. Ta'limning yuragi esa maktab.

Mafkuraviy bo'shliq o'rni to'immoqda

Hozirda xorijga ketib o'qiyotgan yoshlar juda ko'p. Umuman hali ham Xitoy, Amerika singari davlatlarning maxsus maktablari bor. Ular ilgargi gimnaziyalar kabi mafkura singdirishga xizmat qilmaydimi degan xavotir hamon ota-onalarni o'yantiradi.

Mafkuraviy jihatdan ilk yillarda biz yopiq davlat edik va yoshlarning dunyoqarashi u qadar keng emasdi. Biroq hozir ular ancha keng dunyoqarashga ega. Bugun yoshlar xorijda o'qishidan qo'rqlik kerakmas. Ular o'qib, malaka oshirib, bilimidan foydalanib, ishlab oilasiga yordam qilmoqda. Yurtimiz iqtisodiga investitsiya tikmoqda. Birgina Prezident maktabini olaylik, uni bitirgan o'quvchilar butun dunyoning nufuzli oliyoholigiga o'qishga kirdi. Demak, yoshlar uchun eshiklar ochiq. Biroq biz ularni olib qolish kerak deymiz va ortiga qaytmasligidan qo'rquamiz. Bu – noto'g'ri. Boisi ularning hammasi ham xorijda o'qiymen demaydi, ketganlarning barchasi ham o'sha yerlarda qolib ketmaydi. Agar mafkurasiga vatanparvarlik, o'zbekona tarbiya va millatsevarlik g'oyalari singdirilgan bo'lsa, albatta, yurtimizning ravnaqiga hissa qo'shishadi.

Mustaqillik yillarda ta'limgagi kamchiliklarni o'quvchi va o'qituvchi orasida tafovutning kuchligida deb bilaman. Kuchli bilimga ega o'qituvchilar yetishtirgan o'quvchilar olyi ta'limgan negadir bilimi sust bo'lib qaytdi. Ularning qo'lida ta'lim olganlar ham yanada susaya bordi. Aslida biz uchta o'tish davrini boshdan kechirdik. Bu: mustaqillikka o'tish, birinchi Prezidentimiz davri hamda bugungi islohotlar davri. Mana shu uch davrni boshdan kechirgan ustozlarda juda katta tajriba bor. Biroq ularning yoshi ancha katta, shu sababli yosh kadrlar ularning tajribasini o'zlashtirib olishi lozim.

2000-yillardan boshlab ta'limgarayonlarida bo'shashganligimiz sezildi. Bunga, ehtimol, yoshlarni dunyoga chiqarmaganligimiz, iqtisodiy ta'minotning sustigli sabab bo'lgandir. Nima bo'lganda ham bugun bu yopiq eshiklar ochildi, imkoniyatlar kengaydi. Hozirgi islohotlar ta'limga toza havo olib kirmoqda, innovatsiyaga yo'l ochib, yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish imkonini bermoqda. Yoshlar o'z bilimini tengdoshlari bilan taqqoslashni, dunyo talabiga mos darajada o'shni boshladи. Buni ta'limgagi uyg'onish davri deya talqin qilsak bo'ladi.

Test bizga kerakmi?

Qishloqlardagi ustozlarni haqiqiy musobaqa, raqobat muhitiga qaytarish lozim. Bunda nafaqat davlat mablag'idan, balki homiylik asosida ham mukofotlar berish kerak. Nafaqat ustozlar, balki ularning o'quvchilari orasidan ham eng a'lochi, iqtidorlilarini aniqlab, rag'batlantirish ularni o'z ustida yanada ko'proq ishlashiga undaydi. Buni o'z kasbim doirasida ish faoliyatimda sinab ko'rganman va natijasi qanday bo'lishini tajribamdan bilaman.

Maktab, kollej, olyi o'quv yurtlari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish vazifasini adolatlari va halol tanlov asosida g'olib chiqqan pedagoglarga yuklash lozim. Boisi bu ta'limga eng muhim bo'g'inidir. Tan olish kerakki, so'nggi 25-30 yil ichida darsliklarning saviyasi pasaydi. Mualliflar orasida davlat maslahatchilari yoki shu kabi amadorlar, yoinki ularning qarindoshlarining ismi bor. Bu esa darsliklarning muammolar hamon yechimga muhtojligini anglatadi.

Hozirda olyi o'quv yurtlari qabul test tizimida bo'immoqda. Men test sinovlaridan voz kechib, zudlik bilan jonli, ijodiy muloqot imtihon

usuliga qaytish tarafdariman. Har bir fandan markazlashgan imtihonlarni tashkil qilib, halol, samimiy, shaffof kadrlarni joy-joyiga qo'yib nazorat ostida olsa bo'ladi. Ana shunda haqqoniy bilim egalarigina talaba bo'lishadi. Bunda abituriyentlar imkon qadar ko'proq kitob o'qishga va o'qiganlarini bayon qilib berishga odatlanishadi.

Ilgari ijodiy va jonli tarzda bo'lgan imtihonlar ko'pchilikni o'qishga, o'z bilimini, fikrini bayon qilishga undardi. Garchi o'sha davrda ham korrupsiya bo'lgan bo'lsa-da, bilimlilar ham birinchilar safida o'qishga kirgan. Test yod olingenlarni qo'llash degani, bilimni emas. Bu imtihondan o'tgan yoshlar ertaga biz kutgandek kadr bo'lib yetishmasligi mumkin.

Yana bir masala – shartnoma asosida o'qish. Qo'shimcha kontrakt borligini bilamiz, biroq "super kontrakt" bilan bilimsizlikka yo'l bermasligimiz lozim. Ehtimol, bu iqtisodiyotda korruptsianing oldini olar, biroq ta'limga yana yillarni yo'qotishimizga olib kelishi mumkin. Chinakam kadrlarni tayyorlashda faqat diplom muhim bo'lib qolmasligi shart.

Iqtidorilarga imkon beraylik!

Xorijda iqtidorli bolalarga muddatidan oldin maktabni tamomlash va necha yosha bo'lishidan qat'i nazar, imtihonlardan o'tsa olyi o'quv yurtida tahsil olish imkoniyatiga ega. Nega bizda bunday emas?

Aslida xalq ichidan iqtidorli, talantli bolalarni yuzaga chiqarish lozim. 12-14 yoshda bo'lsa ham ularni universitetga qabul qilish kerak. Bunday qobiliyatli bolalarni tuman, shaharlardan topib, imkoniyatini keng ochish zarur. Zero bunda bolalarning bilimini qadrlash lozim. Yillar zavol ketmasidan qanchalik yosh bo'lsa ham agar loyiq bo'lsa professor darajasini ham berishdan cho'chimaslik kerak. Zero dunyoda 11 yoshli bakalavr diplomini olgan intelligent bolalar bor. Biz buyuklar, alloma-yu, ulamolar avlodlarimiz. Shunday ekan kuchli bilim va iqtidor yoshlarimiz qonida bor. Biz bilim va intilish bilangina taraqqiyotga erishamiz. Demakki ta'limga imkoniyat eshiklarini shunga loyiq yoshlar uchun ochish eng to'g'ri yo'ldir.

Faxriddin MUSAYEV,
Falsafa fanlar doktori, dotsent.



“BIR OVOZDAN AN’ANAVIY TA’LIM TARAFDORIMIZ”

Mana uch oylik yozgi ta’til ham o’z nihoyasiga yetib, biz o’quvchilar orziqib kutgan yangi o’quv yili ham boshlandi. Qariyb bir yarim yildan beri davom etayotgan koronavirus pandemiyasi biz yoshlarning o’qishimizni, ta’limga bo’lgan qarashlarimizni o’zgartirib yubordi. Bu yil ham mavjud xavf inobatga olingan holda gibrild usulda, ya’ni an’anaviy va onlayn o’qish tavsiya qilindi. Xo’sh, ilmga chanqoq o’quvchilarning bunga munosabati qanday? Ular onlayn o’qishni xohlaydimi yoki an’anaviy?



Muhammaddiyor ERKINOV,
Farg’ona viloyati Bag’dod tumanidagi 55-umumiyo o’rta ta’lim maktabi o’quvchisi:
 – Yangi o’quv yili an’anaviy tarzda bo’lishini xohladim. Chunki o’tgan yili onlayn o’qib, deyarli yaxshi ta’lim ololmadim. Televizorda efirga uzatilgan onlayn darslarga yaxshi tushunmadim. Uyga vazifalarni bajarganimda to’g’ri yoki xatoligini tekshirishda nazorat kuchli bo’limgani bois biroz o’yinqaroqlik qilib yuraverdim. Bundan tashqari, maktabda sinfdoshlarim bilan birga bir xonada ta’lim olishning zavqi boshqachaligini endi angladim va partalarda o’tirib dars o’tishni sog’indim. Imkon bo’lsa yana o’zimizning an’anaviy ta’limga qaytsak yaxshi bo’ldi. Shunda internet izlab qishloqning bir burchagiga borishimizga ham hojat qolmas edi.



Mirfayzbek ABDULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 4-umumiyo o’rta ta’lim maktabi o’quvchisi, Respublika “Kamalak” bolalar tashkilotining “Ta’lim” yo’nalishi sardori:
 – Shaxsan men an’anaviy (oflays) ta’limni tanlayman. Sababi biz yozgi ta’til mobaynida sevimli ishlarimiz bilan mashg’ul bo’ldik va maktabimizni sog’indik. Maktabda o’qishning ham o’ziga yarasha gashti bor. Bir sinfda o’rtacha 30 ta o’quvchi o’qisa, bu o’zaro sog’lom raqobat muhitini paydo qiladi. Bu esa yanada ko’proq bilim olishimizga yordam berib, qiziqishimizni oshiradi. Ustozlarimiz bilan ham jonli muloqotda bo’lamiz, mas’uliyat ortadi.



Mushtariybonu DONIYOROVA,
Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 13-umumta’lim maktabi o’quvchisi:
 – Onlayn rejimga o’tish kim uchundir qulay bo’lgandir, ammo men uchun emas. Ba’zi tengdoshlarim maktabda zo’rg’ a o’qir, uya borib dars qilgisi kelmas edi. Onlayn bo’ldi-yu, ular uchun ayni muddao bo’ldi. Tepasida turib dars qildiradigan o’qituvchilar yo’q, otanalarimiz bir gapirar, ikki gapirar, oxiri tashlab qo’yishadi. Onlayn darslarni qoldirish mumkin, qatnashish nazoratda emas. Oflays darsdan esa qochib ketish mumkinmas. Onlayn dars bo’layotganda bemalol boshqa narsalarga chalg’ish, xohlagancha telefon o’ynash mumkin. Agar o’tilgan darsni tushunmasak, tamom, hech kimdan so’rashning iloji yo’q. To’g’ri, onlayn darslarni tayyorlash uchun ham ko’pchilikning mehnati singan, ammo jonli, o’zimizning ustozlarimiz bilan birga dars o’tish ancha yaxshi-da. Sinfoshlarimiz bilan besh-olti soatlik darslarda, bir xonada, birga vaqt o’tkazishning o’zgacha shukuhi bor! O’zimizning an’anaviy maktabimizga nima yetsin?!



Azamat ABDULATIPOV,
*Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi
 186-umumta‘lim maktabi o‘quvchisi:*

– Onlayn ta’limdan ko‘ra ko‘proq an‘anaviyi tanlayman va yoqlayman. Chunki an‘anaviy ta’limda o‘quvchi va o‘qituvchi orasida bevosita muloqot bo‘ladi. Bu o‘quvchilarning darsda o‘tilgan mavzuni yaxshiroq o‘zlashtirishiga imkon beradi. Bolalar mavzu doirasida o‘z fikrini aytga oladi, fikrlarimizda qarama-qarshilik bo‘lsa, bahs-munozara qilishimiz mumkin. Onlaynda esa buning iloji yo‘q. Shu boisdan men uchun an‘anaviy ta’lim hammasidan ustunroq.



**Sevinch
 KARAMOVA,**
*Buxoro
 viloyati Romitan
 tumanidagi
 32-umumta‘lim
 maktabi o‘quvchisi:*

– Yangi o‘quv yilini an‘anaviy tarzda boshlash tarafdariman. Uning afzalligini dars jarayonining jonliligida deb bilaman. Ustozlarimizni yuzma-yuz ko‘rib dars o‘tish qiziqarli va maroqli. Ayniqsa, yorug‘ sind xonalari, do‘stlar bilan bahs-munozalar, dars mashg‘ulotlari, didaktik o‘yinlar – barcha-barchasi menga zavq bag‘ishlaydi. Maktabdagagi an‘anaviy ta’limni xuddi jonli ijro etilgan va o‘ziga maftun qiladigan qo‘shiqqa o‘xshataman. Tongda uyg‘onib, yaxshi kayfiyatda maktab formasini kiyib, o‘quvchilikni his qilib, jonajon maskanimizga yo‘l olishga nima yetsin. Maktab bizning ikkinchi uyimiz, ustozlar esa ota-onamizdir.

Diyoraxon QODIRJONOVA,
*Toshkent shahar Shayxontohur tumanı
 254-umumta‘lim maktabi o‘quvchisi:*

– Onlayn ta’lim hech qachon an‘anaviy ta’limning o‘rnini bosa olmaydi. Sababi mакtabda ustozlarimiz bilan yuzma-yuz o‘tргanımızda, ular ko‘zimizga qarab ham bizning holatimizni sezishadi. Darsga tayyor yo‘tayforsligimiz, mavzuni tushungan yoki tushunmaganimizni darrov bilib olishadi. Bu esa bizni yanada tirishqoqlik bilan o‘qishga undaydi. Ana shunday jonli muloqot bizga juda kerak. O‘sim ham karantin sababli onlayn o‘qishga majbur bo‘ldim, lekin o‘z holatimdan qoniqmadim. Men uchun an‘anaviy ta’lim ustunligini tushundim.



Ziyodaxon RAHMATXONOVА,
*Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumanidagi 49-umumiyy
 o‘rtा ta’lim maktabi o‘quvchisi:*

– Barcha sinfdosh o‘rtoqlarim singari men ham an‘anaviy ta’limni tanlayman. Mana yangi o‘quv yilida qadrondan mакtab bag‘riga qayta boshladik. Onlayn o‘qib, boz ustiga yozgi ta’tilda dam olib dars jarayonidan, sinfdan o‘tirishdan anche uzоqlashgандик. Ba‘zi o‘tilgan mavzular yoddan ham chiqib ulgurdi. Bu davr meni ham vazifalarni qilishni ortga suradigan o‘yinqaroq qizga aylantirib qo‘ygan edi. Endi yana jonajon mакtabimizda, ustozlarimiz nazoratida dars o‘tamiz. Bu o‘zlashtirishimning yaxshilanishiga va yana a‘lochilar safida bo‘lishimga yordam beradi. Darslar har doim an‘anaviy tarzda o‘tilsa yaxshi bo‘ldi. Bu biz yoshlarning kelajagi uchun muhim.



**Diyorbek
 TURDIYEV,**
*Toshkent
 shahar
 Shayxontohur
 tumanidagi
 102-maktab
 o‘quvchisi:*

– Onlayn ta’lim orqali o‘tgan davr ichida uyda o‘tirib, bemalol o‘qiy oldik. Bu bizni bir joyda, bir xonada yolg‘iz o‘tirib, televizorni baland qilib dars o‘tishga o‘rgatdi. Televizordan faqat ko‘ngilochar dasturlar va multfilmlar uchunmas, bilim olish maqsadida ham foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi. Biroq bu an‘anaviy ta’limning o‘rnini bosa olmas ekan. Biz fikrlarimizni aytib, tengdoshlarimiz bilan bahslasha olmadik, doskaga yozib, misol va mashq ishlab bilimimizni tekshirolmadi. Shu sababli men ham an‘anaviy usulda o‘qishni xohlayman. Bu o‘rganganlarimni mustahkamlash va sinashda eng to‘g‘ri yo‘l deb o‘ylayman.

Bahodirbek HAYITOV,
*Toshkent shahar Shayxontohur tumanı
 169-maktab o‘quvchisi:*

– Onlayn o‘qish biz uchun kutilmagan yangilik bo‘lgan edi. Balki shungami moslashish qiyin kechdi, ko‘nika olmadik. O‘rtoqlarimni ham juda sog‘indim. Aslida ilm olishga intiladigan insonga buning farqi yo‘q. Shunday bo‘lsa-da, an‘anaviy darslar bahona va danganasalik qilishdan tiyilamiz. Menimcha, an‘anaviy darslar yaxshiroq.



Abdulloh ABDUMO‘MINOV,
*Toshkent shahar
 Shayxontohur
 tumanidagi
 102-maktab o‘quvchisi.*

SUHBATDOSHINI UNUTGANLAR

Tushlik mahali bir kafega kirib, taomga buyurtma berdim. Buyurtmam kelguncha atrofga bir nazar tashladim. O'ttiz-qirqtacha erkak-ayol, yosh-yalanglar ikkita-to'rttadan bo'lib o'tirishibdi.



Meni hayron qoldir-gani ularning hech biri suhbatlashmas, barchasi telefoni bilan ovora edi. Bir nechtasigina telefonda gaplashar, qolgani internet olamiga sho'ng'igan edi. Ular yondagilarni unutganlar edi. To'g'ri, axborot olami, internet kerak, lekin har doim ham shunday bo'lishi mumkinmi? Jamoat transporti, bekatlar yoki boshqa joylarda telefoniga termilayotganlarni siz ham ko'p kuzatgansiz. Hazrat Navoiy "Agar ogohsen – shohsan sen", – deganlarida naqadar haqliklarini bilamiz. Axborot olish uchun, ogohlilik uchun foydalayotgan ekansiz, sizga katta rahmatlar aytamiz. Lekin men ko'rganlar ogohlilik uchun internetda o'tirmaganliklari aniq edi. Aksariyati ermak uchun o'tiribdi, desam yanglishmayman. Vaqtni behuda sarflash, o'tkazish yaxshilik uchun xizmat qilmasligi tayin. Men ularni vaqtiga achinayotganimni aytmoqchi emasman, har kim oltinga teng fursatlarni qanday sarflashi o'ziga havola. Balki ularning suhbatdoshiga be-farq o'tirganiga, inson insonning qadriga yetmayotganiga afsuslanayapman, xolos. Ularning orasida bir-birini jillaqsursa tushlikka taklif qilgani bordir.

Xo'sh, tushlikka chaqiribsiz, nega shirin suhbat qurmaysiz, diyordashmaysiz, mehr ulashmaysiz? Nahot, shu bir parcha matoh mehrdan, diyordan, insoniylikdan aziz bo'lsa? Qattiqroq ketgan bo'lsam, uzr so'rayman, suhbatdoshingizni, yaqinlaringizni unutmang, azizlar!

Dilnura SUVONOVA,
o'qituvchi.



“O’ZBEKİSTONLILAR NAZARIY BİLMƏ ETIBORSIZLIK BİLAN QARASHADI!”



Yaqin orada O’zbekistonda, ayniqsa, Toshkent shahrida chet el fuqarolari tez-tez ko’zga tashlanadigan bo’lib qolishdi. Ularning kelish sababi mutaxassislar tomonidan poytaxt tranzit hudud vazifasini o’tab berayotganligi va “kirdi-chiqди” uslubini qo’llayotganligi taxmin qilinmoqda. Biroq ular orasida Vatanimizga o’qish yoki o’qitish uchun tashrif buyurganlari ham yo’q emas. Masalan, bizning bugungi sahifamiz mehmoni afrikalik Prosper ANOBA mamlakatimizga futbolchi sifatida kelgan. U bugungi kunda o’qituvchilik bilan ham shug’ullanmoqda. Quyida u bilan bo’lgan suhabatni e’tiboringizga havola etamiz.

– O’zingiz haqingizda gapirib bersangiz...

– Men afrika-amerika millatiga mansubman. Otam ganalik, onam esa amerikalik. O’zbekistonda yashayotganimga bir yildan oshdi.

– O’zbekistonga keli-shingizning asl sababi futbol ekan. Shuningdek, qo’shimcha ravishda boshqa ishda ham ishlar ekan-siz. Bunga sizni nima majbur qildi?

– Bu yerdagi hayot ba’zan qulay bo’lsa, ba’zida meni umuman qoniqtirmaydi. Men bu yerga kelganimda, iqtisodiy tizim men kutganimdan ancha past ekanligini angladim. Shuning uchun futbol o’yinidan bo’sh vaqtlarimda ingliz tilidan xususiy o’quv markazida dars beraman. Chunki men mas’uliyatlari odamman, bekorchilikda yurishni o’zimga ep ko’rmayman.

– O’quv markazidagi o’quvchilaringizning bilimga bo’lgan ishtiyoqi haqida nima deya olasiz?

– Ko’pchilikda nazariy fangarga qiziqish yo’q, nazariy tadqiqotlarga kelganda qynalib qolishadi. Ta’limning amaliy jihatni ularni ko’proq qiziqtiradi. Ingliz tilini o’rganishning boshlang’ich bosqichida ingliz tilida ga-pirishni bilmaydigan, lekin o’rganishga tayyor bo’lgan o’quvchilar bilan ishlash menaga biroz qiyinchilik tug’diradi. Chunki o’zbek va kirill harflari, talaffuz va tilning joylashuvini ularning ingliz tilidagi harf va so’zlarni talaffuz qilish uslubiga ta’sir qiladi.

– Sizning mamlakatingiz talabalari bilan o’zbekistonlik talabalar orasida qanday farqlar bor? O’zbek talabalarining qanday ijobiylari va salbiy tomonlarini ko’rdingiz?

– Men yashayotgan mamlakatda o’qishga nisbatan jiddiyoq munosabatda bo’lishadi. Maktab va OTMlар er-talab soat 8:00 da boshlanadi, 15:00 da boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun, yuqori sinf



o’quvchilari uchun esa 16:00 da tugaydi.

O’zbekistondagi darslar odatda uch yoki to’rt soatlik bo’lib, o’quvchilar dars payti-

da intizomga amal qilishmaydi. Ular sindfa tinchlik saqlab o’tirishni istashmaydi. Bir so’z bilan aytganda, ularni nazorat qilish mushkul.

Ta’lim tizimimizga chetdan qaraganda chindan ham shunaqa xulosaga kelish mumkin. Bundan ajablanmasa ham bo’ladi. Janubiy Afrika maktabalarida o’quvchilarning salohiyatini oshirish, ularning sifatli ta’lim olishini ta’minalash maqsadida xorijdan kelgan o’qituvchilarga mahalliy o’qituvchilarnikidan ko’proq oylik-maosh belgilangan. Masalan, bitta yevropalik o’qituvchi bir oyda 37 000 rend (ya’ni 2 750 AQSh dollari) olsa, mahalliy direktorga bir oy uchun 29 470 rend (ya’ni 2 190 AQSh dollari) to’lanadi. Balki bizning an’anaviy maktablarimizga ham xorijlik o’qituvchilarni jalb qilishni o’ylab ko’rish vaqt kelgandir? Hech bo’lmasa, chet tili darslari uchun. Shuning o’zi ham ta’limda katta o’zgarish yasashi shubhasiz.

Dilrabo TOLIBOVA suhabatlashdi.

STATUSLAR NIMA... DEYDI?

So'nggi paytlarda bemaza qovunning urug'iday urchib borayotgan bir-biridan g'alati statuslar ijtimoiy tarmoqlarda to'lib toshmoqda.

Keling, ana shunday keng tarqalgan, imlo xatolar va g'aliz jumlalarga obdon "bo'kkani" statuslarni biroz epaqaga keltirgan holda bir nechtasini e'tiboringizga havola etamiz:

"Ilohi ormin bizniyam pulim-iz ko'payib, bosar-tusarimizni bilmay qolaylik!"

"Men dushmanlarimni sot-mayman, tekinga berib yuboraman!"

"Vujudimga qaltiroq kirib, yuragim tez-tez ursa, sevib qoldim deb o'ylabman. Keyin bilsam, shamollab qolgan ekanman",

"Hammasi jonimga tegdi, nima bo'lsa bo'lar, qo'limga arqon olaman-da biror daraxting ostiga boraman keyin... keyin maza qilib arg'amchi uchaman",

"Kimlardir meni hayotidan "udali" qilib yuborganidan xur-sand... bilmaydiki, men ularni hali "soxranyat" qilib ham ul-gurmagandim!"

Yuqoridagi kabi yoziqlardan yana minglab misol keltirish mumkin. Gap shundaki, bu statuslarni aksar yoshlarning Netbook yoki Notebook`da, zamonaviy qo'll telefonlarining "Asosiy ekran" yorliqlarida bot-bot uchratishingiz mumkin! Bu "ibratl ibora"larning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmlar yondan joy olganligini ham ko'p uchratganmiz.

Xo'sh, bu kabi jargon aralash "ibratl ibora"lar yosh-larga nima beradi? Bir qa-

rashda beozordek ko'rинган, haqiqatga haminqadar yaqin (*ammo haqiqat emas*), bu statuslar nimani targ'ib qilyapti?

Hech o'ylab ko'rganmisiz, siz bir kunda telefoningizga o'rtacha necha marta e'tibor qaratasiz? Olimlarning ta'kidlashicha, odamlar hozirgi kunda Sensor telefonlarga "Nokia 1100" ga o'xshagan ajodolariga qaraganda 370 marotaba, simli telefon apparatlariga qaraganda esa 500 marotabadan oshiq ko'z tashlar ekan. "Asosiy ekran" yorlig'ida turgan o'sha statuslar foydalanuvchining ong ostiga qadar kirib bormagan deysizmi? Yo "ommaviy madaniyat" va salbiy qarashlarning izi ko'rinnmaydimi? Keling, yuqoridagi kabi ayrim statuslarni birgalashib, tahlil qilib ko'ramiz: "Odamlarning gaplariga ishonmang, men undan ham yomonman", endi bu so'zlarning miyada taxminiy sintezlanishi quyidagicha:

"Meni yomonligimni hali ko'r-mabsanlar, endi ko'rasanlar!"

kinoya va qochiriq ostidagi bu statusning xulosasi "yomonlik yaxshi" degan fikrga turtki bo'imqoda.

Bir bolaga yetti mahalla ota-onalarning atay buzilishi in'ikosida shakllangan "Bir bolaga yetti mahalla ota... Agar uning onasi o'yinch'i bo'lsal!" statusi ochiq tahqir va kinoya ustiga qurilgan, bu andishasizlik va behayolikni targ'ib qilib kelmoqda.



"Sevgingini uzoqdan qidirma, chunki aytishadi-ku, falokat oyoq ostida bo'ladi deb" "ibora"si balog'at ostonasida turgan yoshlarga bo'lajak tur mush o'rtog'i to'g'risida noto'g'ri fikrning shakllanishiga o'zak bo'lmoqda. Bu esa jamiyatda oilaning parokandaligiga olib keladigan omillardan biridir. "Do'stingga qarz berma, yo do'stingdan, yo pulingdan ayrılasan!" statusi esa hech kim-ga ishonmaslikni uqtirayapti. O'zbekchilikda nafaqat do'sting yaxshi-yomon kunida ko'mak beriladi, balki xizmatida bel bog'lab turiladi. Do'st shuning uchun ham do'st!

"Onasi o'pmagan, otasi so'kmagan, akasi urmagan, bemahalda yurmagan, sensor telefon ko'rman, Internetni bilmagan, odno'ga ham kirmagan, jufti halolni Oltin baliqdan so'rasam, u "jinnini yoqib" oldi, kulaverib o'lib qoldi!" kesatiq-kinoyali statuslar jamiyatda ibo-hayoli, andishali, fikr buzilmagan, gapning sirasini aytganda, birov bilan gaplashmaydigan birorta ham qiz qolmaganligiga ishora qilyapti. Gapning

indallosi, bu kabi statuslar yoshlarni ongini boshqarmoqda.

Ehtimol, bu statuslarning nimasi yomon, pashshadan fil yasaydi-da bu jurnalistlar deyayotgandirsiz. Unda **psixolog Shahnoza Akromovaning** fikrlariga quloq tuting.

– Chet el multfilming birida shunday sahna bor: bekatda qaddi-qomati kelishgan qiz, shlyapa kiygancha gitara chalib qo'shiq aytmoqda. Atrofida son-sanoqsiz yigitlar unga sevgi to'la nigohlarini qadab o'tirishibdi. Shu payt bekatga avtobus kelib to'xtaydi. Uning ichida baq-baqa loq, kir-yag'ir ko'yakdagagi ayol bir-biridan bezori bolalarini eplab ololmay qynalib yotibdi. Avtobus jo'nab ketdi, nigohimiz yana o'sha bekatdagi go'zal

juvonga va uning atrofida terilib o'tirgan yigitlarga tushadi. Chiroli musiqa va sehrli qo'shiq davom etadi. Buning xulosasi shuki, hali yozish-chizishni eplay olmaydigan qizaloqlar ongiga shunday ustalik bilan bir fikrni joylayapti "Erga tegma, semirasan, bolalaring umringni yeydi, undan ko'ra bo'y qiz bo'lib, davron sur!" Albatta, bola bu axborotni ongli ravishda qabul qilmaganidek, aksar fikri noteran insonlarning miyasi ham bu g'alati statuslarga befarq qaraydi. Besh qo'l barobar bo'limganidek, ijtimoiy tarmoqlardagi statuslarning ham hammasini yoppasiga yomonotliq qilib bo'lmaydi.

"Bu tong men ikkita sovg'ani ochdim. Bular – mening ko'zlarim", "Oddy odam vaqtini qanday o'tkazish haqida o'ylasa, aqlli odam vaqtidan qanday foydalanish haqida o'ylaydi", "Boshingga eng qiyin kunnar tushib, sen bardosh bera olmaydigan nuqtaga kelganda, aslo sabringdan voz kechma... ana shu nuqta taqdiringni o'zgartiradigan nuqtadir" kabi statuslar ma'no va mazmun jihatdan kishini olg'a chorlaydi.

Biroq ijtimoiy tarmoqlarda yarim yang'och rasmi bo'y qizlarning beandisha so'zlarni uyalmay-netmay yozib qo'yishi-ga, ko'cha-ko'yda yoshlarning kattalarga "Assalomu alaykum" degani kamdan-kam uchrashiga, uchraganda ham quruqqina qilib "Salom" yoki "Somalaykum", deb qo'yishiga, kattalarning ta'biri bilan aytganda "Assalomu alaykum" – "Sizga sog'ilik tilayman" degan ma'noni anglatadigan so'zni, "Somalaykum", ya'ni "Sizga o'lim tilayman" degan so'zga aylanishida g'alati statuslarning xizmati yo'qmikan, siz nima deb o'ylaysiz?

Abdulla XOLBUTA o'g'li tayyorladi.



BOLANGIZNI “BOBOV”LARGA BERIB QO’YMANG!



Siz tirikchilik tashvishi bilan ko‘proq ko‘cha-ko‘yda yurasiz. Bolangiz esa maktabga ketadi. Kunning asosiy qismini uydan tashqarida – boshqa kishilar orasida o’tkazadi. Maktabdan uyga qaytguncha nimalargadir chalg‘ib, har xil joylardan o’tadi. Ammo siz farzandingizning aynan qaysi yo‘ldan uyga qaytishiga va bu paytda kimlar bilan yuzma-yuz bo‘lishiga hech qiziqqanmisiz? Va yana, kuzatganmisiz, maktab yoshidagi bolalarning ayrimlari ko‘p hollarda o‘rtoqlariga qo‘silib, bir nimalarga chalg‘ib doim boshqa yo‘ldan uyiga qaytadi.

Hər qadamda internet klublari hamda

kompyuter o‘yini markazlari bor. Bu yerda nafaqat o’smirlar, hatto kichik yoshdagি maktab bolalari ham jangari, behayo hamda dahshatli tasvirlarga boy, vahshiylikni targ‘ib qiluvchi qo‘rqinchli o‘yinlarni kiprik qoqmasdan o‘ynashadi.

Bir kuni zarurat yuzasidan internet klubga kirdim. Qarasam, o‘tirganlarning barchasi maktab o‘quvchilari. Ishonsangiz, yoshi eng kichik bola uchinchi yoki to‘rtinchisinfda o‘qiydi. Ba’zilari o‘yinga qiziqb sumkasini ham yechmasdan o‘rindiqqa ilinib o‘tirib olgan. Ayrimlari esa tik turgancha o‘yin o‘ynardi. Lekin, eng achinarlisi, birorta bola faqat



odamkushlik va vayronkorlikdan iborat bu o'yinlardan qo'rqmas va jirkanmas edi. Aksincha, o'zi boshqargan "qahramon"ining vahshiyligidan huzurlanar, "g'alaba"ni nishonlashda o'sha o'yinlar ta'sirida orttirib olgan g'lati harakatlarni namoyish etardi... Bir paytlar "bobov", "olabo'ji" degan afsonaviy mavjudotlarning nomini eshitib, rangi o'chadigan bolalarimiz bugun ulardan beshbattar qo'rjinchlari va badbashara maxluqlar bilan bemalol virtual muloqotga kirishmoqda, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatib, xayolan minglab odamlarning qonini to'kishmoqda. Ba'zi o'yinlar guruh bo'lib o'ynashga mo'ljallangan. Uch-to'rt sinfdosh o'yinda o'zaro raqib bo'ladi-da, bir-birini so'yishga, portlatishga, otishga, xullas, o'ldirishga kirishib ketadi... Bu o'yinlarni muttasil o'ynab ulg'ayayotgan bolada mehr hissi qolarmikan? Axir endi sakkiz-o'n yoshga kirgan bola har kuni vayronkorlik, buzg'unchilik, qon to'kish kabi vahshiyliklarni ko'raversa va buni o'zi bajaratganday rohat olaversa, unga yaxshilik, saxovat, mehr-oqibat haqidagi pand-nasihatlarimiz arzimas cho'pchak, oddiy vaysash va ezmalik bo'lib tuyulmasmikan? Chunki kompyuter qoshida bola o'zini o'yin qahramonidek his etadi. Butun xayolini egallagan bu buzg'unchi o'yinlar oqibatida esa mahdud fikrlaydigan, o'quv fanlarini o'zlashtira olmaydigan, o'zlashtirsa-da xotirasida uzoq vaqt saqlab turmaydigan bo'lib qoladi. Shu ruhda o'sgan bola sal ulg'aygach (masalan, 7- yoki 8-sinfga ko'chganda), o'qishga deyarli rag'bat sezmay qo'yadi. Ular bu o'yinlarni deyarli har kuni, kamida bir soat o'ynashadi. Keraksiz, ayni paytda zararli narsalar bilan to'igan kichkina miyasi Navoiy va Boburning ohanrabo va nafis g'azallari-yu Anvar Obidjon hamda Tursunboy Adashboyevning go'zal va o'ynoqi, o'z navbatida, ilmli va zakovatli bo'lishga undaydigan, vatanparvarlik ruhini shakllantiradigan she'rlarini o'ziga singdira olarmikan? Tafakkuri va tarbiyasiga keskin zarar keltiradigan bunday o'yinlarni muttasil o'ynab yuradigan bola birinchi galda atrofdagi olamdan uzilib qoladi. Aniqrog'i, yonidagi odamlar va hodisalarga befarq qaraydigan bo'ladi. Zo'ravonlik, vahshiylik va qotillikka asoslangan o'yinlar ko'zi pishib ketgan bolaning ong-u shuurini o'g'irlab, unda hayotda ham shunday, ya'ni birovni qiyab, unga zo'ravonlik qilib, "lider"ga aylanish lozim, degan tasavvur uyg'ota boshlaydi. Xabaringiz bo'lsa kerak, oxirgi paytlarda akademik litsey va kasb-hunar kollejlariда yoshlar o'tasida mojarolar ro'y berayapti. Bu to'qnashuvlarda o'quvchilar sovuq qurollar – pichoq, bigiz, hatto kichik boltalardan ham

foydalaniб, bir-birlariga jarohat yetkazishmoqda. Bularga nima sabab bo'lishi mumkin? Ota-onaning e'tiborsizligimi, ta'lif dargohlari da intizomning yo'qligimi yoki o'sha zararli o'yinlarning murg'ak onglarga o'tkazgan beayov ta'sirimi?

Ma'lumot-larga qara-ganda, kompyuter quliga aylangan bolalarda o'smirlikka o'tish davrida kechadigan fiziologik va ruhiy o'zgarishlar tengdoshlariga nisbatan jiddiy tus oladi. Ular haddan tashqari jizzaki va qaysar bo'lib qoladi. O'zlariga nisbatan qarshiliklardan juda tez jahli chiqadi va bunga nisbatan jismoniy javob qaytarishga intiladilar. Ular faqatgina o'z fikrlarini inobatga olib, bosh-qalarning gaplarini nazar-pisand qilishmaydi. Hatto shunday voqealar ham bo'lganki, kompyuter o'yini quliga aylangan bola o'z yaxinlarini kaltaklagan, tan jarohati yetkazgan va hatto... qotillik qilishdan qaytmagan. Endi diqqat qiling. Rossiya Federatsiyasining bir necha shaharlarda quyidagi holatlar yuz bergen: Petrozavodskda yosh yigit 80 yoshli buvisini kaltakladi. Tergov paytida u "Buvim kompyuter o'ynashimga xalaqit bergani uchun kaltakladim", degan. Kemerovoda 14 yoshli Sasha K. kompyuterda o'yin o'ynayotganida chalg'it-gani uchun 20 yoshli opasini g'isht parchasi bilan urib o'dirdi. Sashaning o'qituvchilari u maktabda juda yaxshi o'qigani, lekin keyingi olti oyda o'zlashtirishi pasayganini bildirishdi. Krasnodarda 15 yoshli Yaroslav M. otasini unga kompyuter o'ynashni taqiqlagani sababli o'ldirgani uchun sakkiz yilga ozodlikdan mahrum qilindi. Ijevskda 17 yoshli yigit otasining qotiliga aylandi. U butun kunini internetda o'tkazar, turli onlays o'yinlar o'ynardi. U hattoki xonasidan kunlab chiqmay qo'ydi, ovqatini ham xonasida yeydigan bo'ldi. Sabr kosasi to'igan ota uning kompyuterini olib qo'ymoqchi bo'lganida yigit otasini pichoqladi...



Xo'sh, bolalarning bunday "rohatxona"larga kelishiga nima sabab bo'limoqda?

Bir kuni o'n yoshlar chamasidagi bolakay kompyuterxonaga o'rtog'ini yetaklab kirdi-da:

– Dadam har olgan "besh"imga ming so'mdan beradilar. Kecha beshta "besh" olib borgandim, mana, besh ming so'm berdilar, – deb unga pulni ko'rsatdi. Yonidagi bola o'rtog'ining dadasi naqadar saxiyligidan quvondi, shekilli, ko'zlari chaqnab ketdi. – Kontur o'ynaymizmi?

Bola otasi bergen pulni ovqatlanishga ishlatasdan, faqat otib o'dirishdan iborat "Counter strike" o'yinini o'ynash uchun asragan. Ammo ota-onasi unga "kontur o'ynagin" deb pul bermagandir? Nega unda bola bu yerga keldi? Kim yetaklab kelgan uni birinchi marta bu joyga? Buning javobi bor. Avval aytganimizdek, maktabga ketishida izidan kuzatilib, kelishi nazoratsiz qoldirilgan bolaning chalg'igan holati bu. "Voy-bo', shunga shuncha vahimami? O'ynasa, o'ynabdi-da, sening pulingga o'ynamaydi-ku", deydiganlar topiladi. To'g'ri, otasining puliga o'ynaydi. Lekin bundan kim, qanday naf topadi? Bunday zararli o'yinlarni ko'p o'ynash bir tomonidan bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir qilsa, ikkinchi tomonidan sog'lig'iga ziyon yetkazadi.

(Davomi 28-sahifada)





**(Davomi.
Boshi
26-27-sahifalarda)**

Kompyuter oldida saatlab o'tirish ko'rish qobiliyatini yomonlashtiradi. Ko'zdagi qat-tiq og'riqlar, ko'z yoshlanishi, qorachiq va qovoqlar qizarishi, peshona sohasidagi zirqirashlar, tez charchash holatlari – ekran oldida ko'p o'tirishning oqibati. Qolaversa, kompyuter va boshqa elektr asboblari o'zidan elektromagnit nurlari chiqaradi. Alal oqibat, chiqayotgan elektrostatik nurlar hamda mayda chang zarralari terining ochiq joylariga tushishi natijasida turli xildagi allergik kasalliklar kelib chiqadi. Hatto soch to'kilishi, teri qurishi ham kuzatilar ekan. Bundan ham dahshatliroq'i, ko'p o'tirish davomida stul bilan tana o'rtasida o'ziga xos "issiq kompress" hayoti yuzaga kelib, prostatit, gemorroy kasalliklariga sabab bo'ladi. Kam harakatlilik moddalar almashinuvni buzilishi hamda semirish kasalligiga ham zamin yaratadi. Ko'rinib turibdiki, bunday kompyuter o'ynlari endi o'sib kelayotgan bolaning ham jismoniy, ham ma'naviy, ham ruhiy kushandasidir. Shunday ekan, ota-onalar farzandlariga domo e'tiborli bo'lishlari, har bir bosgan qadamidan boxabar bo'imoglari kerak. Bundan tashqari, mutasaddilar tomonidan kompyuter o'ynxonalarini nazorat ostiga olinishi zarur. To'g'ri, kompyuter o'ynxonalarini davlat ro'yxatidan o'tib, mustaqil ravishda qonuniy faoliyat yurityapti. Ammo bu degani maktab bolalariga, hatto dars vaqtlarida ham o'yn o'ynashga bemalol ruxsat berish mumkin, degani emas-ku. Millat bolalari ongini zararli g'oyalar bilan zaharlashga sharoit yaratish – xalqqa, uning kelajagiga xiyonat qilish bilan baravar. Shu

bois ongi endi shakllanayotgan, o'n besh-o'n olti yoshdan kichik maktab o'quvchilarini bunday joylarga kiritmaslik zarur, deb o'yayman. Maktab o'quvchilarini befoyda amallardan qaytarish uchun bir qator chora-tadbirlar ko'riliishi kerak. Jumladan, har bir o'yinxonaga maktab o'quvchilarining kirishini taqiqlovchi yo'riqnomalar qo'yish lozim. Shu talabni buzgan kompyuter o'yinxonalari egalariga tegishli jazo qo'llanilishi kerak. Shundagina bolalarimizda ommalashib ketayotgan dangasalik hamda bilsimsizlikning oldini olamiz, ularni milliyligimiz va qadriyatlarimizga zid g'oyalar ta'siridan asragan bo'lamiz. Bunday qat'iy choralar ko'rilmasa, befarqligimiz juda katta illatlarga yo'l ochishi mumkin. Negaki, qiziqarli ko'rinyotgan o'ynlar zamirida ayyorona g'oyalar va chorlovlari bor. Vahshiy o'ynlar ulg'ayayotgan boladagi nozik tuyg'ularni xiralashtiradi, ijobji xislatlarning yo'qolishiga zamin yaratadi. Uning e'tiqodi va dunyoqarashini teskari tomonga burib yuboradi. Ongi, fitrati buzilgan o'smir esa kelajakda jamiyatning katta muammosiga, boshog'ríg'iga aylanadi. Chunki yaxshi bilamiz, bola niholiday gap. Kim qayoqqa tortsa, o'sha tomonga egilaveradi...

Mutaxassislarining fikricha, bolasi bilan suhbatlashishga vaqt topmaydigan, ularning qiziqishlariga befarq bo'lgan ota-onalarning farzandlari ko'proq ko'chadan "mehr" topadi. U ko'proq ko'chada yurishni, do'stlari bilan qayerlargadir borishni doimiy odatga aylantiradi. Buning oqibatida kompyuter o'ynlariga qiziqib, ularga mukkasidan ketishi mumkin. Shu boisdan ham psixologlar ota-onalarga quyidagi tavsiyalarni berishadi. Birinchisi, bolangiz bilan har kuni gaplapping, dardlapping. Bolangiz o'qiyotgan matabga tez-tez borib, uning o'qishini surishiring. Kunda-kunora ishingizdan ortib, uni maktabidan olib, qiziqarli joylarga olib boring va o'zingiz uyg'a kuzatib qo'ying. Shunda bolangiz unga befarq emasligingizni, doim uni tergap turishingizni ichdan his qiladi. Yoki bo'lmasa, ikki haftada bir marta qo'g'irchoq yoki yosh bolalar uchun mo'ljallangan teatrlargacha olib boring. Yana bir tavsiya: farzandingizga matabdan qaytgach, to o'zingiz ishdan kelguningizcha shug'ullanib turishi mumkin bo'lgan biror bir qiziqarli mashg'ulotni bajarishni tayinlang. Va albatta ushbu topshiriqni bajarganligiga qarab mukofotlashni ham unutmang. Shunda bolangizning bo'sh vaqtini zararli ishlarga sarflamasligining oldini olgan bo'lasiz.

Ko'pincha ota-onalar farzandlarini "Suyangan tog'im" deb erkalaydi. Bir umr oq yuvib, oq taragan dilbandiga keksaygan chog'i suyanishni o'yaydi. Albatta, bu har bir ota-onalar uulkan baxt. Lekin bu baxt o'z-o'zidan kelmaydi. E'tiborliroq bo'ling, suyanmoqchi bo'lgan tog'ingizning "olabo'jilar in qurban" kompyuter qoshida, ko'zingizdan pinhon ravishda nurashiga yo'l qo'ymang!

Husan MAQSUD,
"Azon kitoblari" nashriyoti bosh muharriri.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi.

SINFDAN TASHQARI O'QISH JARAYONIDA BOLALAR ADABIYOTIDAN QANDAY FOYDALANISH LOZIM?



Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tarkib toptirishdir. Sinfdan tashqari o'qish dasturi mazmuniga ko'ra, ta'limning har bir bosqichida ikki asosiy bo'limga ajratiladi: 1-bosqichda o'qish doirasi, ya'ni o'qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o'qish bilan tanishtirish yuzasidan o'quvchilarga ko'rsatma beriladi. 2-bosqichda shu o'quv materiallari asosida bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra, 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning vatan, istiqlol, milliy qadriyatlar haqidagi tushunchalari kengaytiriladi.

Bolalar 1-sinfda haftada 1 marta savod o'rgatish darslarining 20 daqiqasida badiiy adabiyot bilan tanishtiriladi. Maqsad – kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil o'quvlarni paydo qilishdir. Asosan bu sind o'quvchilarida kitob bilan muomala qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining xatti-harakatini kuzatish, ijobji tomonlarini o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Shuningdek, bu sind o'quvchilarini uchun asosan

rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stridigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlari, qadriyatları, o'tmishi, insonlarning orzu-istiklari bilan tanishtiriladi.

2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinda 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darsi o'tkaziladi. O'qituvchi Vatan, ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarni topib, o'quvchilarga o'qishga tavsiya etadi.

3- va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarning hayoti, ma'naviy-axloqiy tur mush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. Sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sind kutubxonasiga o'quvchilarning yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi. Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezalishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ish olib boradi. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish bolalar-da ezzulikka muhabbat, yovuzlikka

nafrat uyg'otishga, nutqni o'stirishga, adabiy-estetik tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti, avvalo, o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvond baxsh etadi. Ayni vaqtida u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchiga jonajon o'inka tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsa-tayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealarni, o'ynlari, ertangi, orzu istaklarini hikoya qilib beradi. Bu borada ertaklar katta ahamiyatga ega. Xalqimizning tarixi, urf-odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari – barcha orzu istaklari ming yillar davomida yaratilgan ertaklar da saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu havaslarini yosh avlodda – o'g'il-qizlarida ko'rishni istaydilar. Shu sababdan ham o'quvchilarga ertak o'qish tavsiya qilinadi. Ertak o'qigan bola qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladi.

O'quvchi yer yuzidagi barcha insonlarning bir bo'lagiman, o'z xalqimga qilayotgan ishlarni bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak, desagina o'z xalqining munosib farzandi bo'la oladi. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalaydigan baynalminal badiiy quroldir.

Jannatoy IKROMOVA,
Buxoro viloyati Vobkent tumani
3-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sind o'qituvchisi.

KASBIY RIVOJLANISHNING RAQAMLASHTIRILGAN MUHITI:

MUAMMO VA YECHIMLAR

Har birimiz ota-onasifatida ilk bor farzandimizning jajji qo'llaridan yetaklab maktabga olib borganmiz. "Boram maktabga oson moslashib ketarmikan kan?", "O'qituvchisi yaxshimikan, darsni sifatli beradimi?", "Farzandim bilan dars qilishga qiyalmasmikanman?", "Darsliklari qanday ekan?", "Maktabda muhit xavfsiz va do'stonam?" va shu kabi ko'plab savollar har birimizni qiyanagan.

Bunday xavotir har birimizda bo'lgan, faqat uning darajasi har xilligi bilan o'ziga xosdir. Kimdir maktabni tanlaydi, kimdir o'qituvchini, kimdir masofaga va yana kimdir boshqalar ning fikriga e'tibor qaratadi. Chunki maktablar, pedagogik jamoalar, o'qituvchilar turli xil, ammo maqsad bitta – maktab bitiruvchisi ota-onas orzusidagi, davlat buyurtmasiga mos muvaffaqiyatl shaxs – vatanparvar fuqaro, solih farzand bo'lsin.

Maktab ta'limalidan ota-onas, davlat va jamiyatning bunday kutuvlari haqlidir. Dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va global chaqiriqlar maktab ta'limga yangi talablarni qo'ymoqda. O'z navbatida, ta'limiy transformatsiya yuz berib, progressiv islohotlar orqali ta'lim muammolariga innovatsion yechimlar topish muhim ahamiyat kash etmoqda.

Eng asosiysi, barcha islohotlarning ijrochisi – pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish, masalan, doimiy ehtiyojlarga asoslangan individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini taqdim etuvchi "Uzluksiz

"kasbiy ta'lim" maxsus raqamli platformasi joriy etilmoqda.

Mazkur raqamli makonda har bir xalq ta'limi xodimining kasbiy rivojlanish dinamikasi, uning pedagogik faoliyatini aks ettiruvchi elektron portfoliosi shakllantiriladi va unga xodimning individual trayektoriyasi, kasbiy rivojlanish natijalari hamda o'zlashtirgan o'quv dasturlari to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanadi. Davriylikka asoslangan an'anaviy malaka oshirish tizimidan farqli o'laroq, raqamlashtirilgan tizim o'qituvchiga texnik yechimlar bilan bir qatorda psixologik qulay bo'lgan muhitni ham taqdim etadi.

Ularning malaka darajasi, biliimi, ilmiy-pedagogik salohiyati, ish tajribasi, psixologik tayyorgarligi va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga mos keladigan tabaqalashgan malaka oshirish dasturlari bo'yicha o'qitish amaliyoti yo'lga qo'yildi. An'anaviy malaka oshirish bilan bir qatorda kasbiy o'qitishning uyg'unlashgan, ish jarayoni bilan birligida olib boriladigan, masofaviy va boshqa turlari joriy etiladi.

QULAYLIKLER

- Oila va ishdan ajralmagan holda istalgan paytda malaka oshirish mumkin.
- Ortiqcha psixologik noqulaylik va xarajatlar bo'lmaydi.
- Platformadan foydalanish juda oson va Tas-IX da ishlaysdi.
- O'quvchilar darsi va ta'lim sifatida uzilishlar bo'lmaydi.

ONLINE.DU.UZ



IMKONIYATLAR

- Kompetentlik darajasini diagnostika qilish va bo'shlqlarni aniqlash.
- Kasbiy ehtiyojlara individual rivojlanish trayektoriyasini yaratish.
- Kasbiy ehtiyojlari asosida 18 kredit modul bo'yicha variativ o'quv kurslarni tanlash.
- Muqobil kurslarda o'qiganligi, muvaffaqiyatlari tan olinadi.

Demak, xalq ta'limi muammolarini o'rganish, istiqbollarini belgilash va kasbiy rivojlanishni yaxshilashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot faoliyati va pedagogik kadrlar malakasini uzuksiz oshirish, ularni sifatlari o'quv-metodik va ilmiy axborot resurslar orqali qo'llab-quvvatlash dolzarb masaladir.



Har qanday tadqiqot, eng avvalo, muammoni o'rganish, aniqlashtirish va asoslash uchun amaldagi me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik resurslar, ilmiy manbalar hamda adabiyotlarni tahlil qilishdan boshlanadi. ularni tadqiqotchiga taqdim etish esa muammoning yechimidan manfaatdorlar uchun muhim tadbirlardan biri bo'lishi lozim.

Butun dunyoda ta'lrim sohasi bo'yicha ilmiy ishlari, jurnallar, adabiyotlar va boshqa turdag'i resurslarni jamlovchi, internet tar mög'idan foydalanuvchilar uchun turli tillarda bepul va pulli ravishda taqdim etuvchi sub'yektlar mavjud.

Mamlakatimizda ham milliy tadqiqotchilar uchun shunday manbalarni ko'paytirish masalasi hukumat darajasida amalga oshirishi belgilab olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabr-dagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'limgartarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sen Farmoni, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 45-sen Farmoni bilan tasdiqlangan Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'satkichlari va indikatorlari(41-band: Nufuzli xalqaro ilmiy-teknik ma'lumotlar bazalariga kiritish uchun salohiyati yuqori bo'lgan ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarini aniqlash va ularni mazkur bazalarga kiritish bo'yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish) ga erishish maqsadida ta'lim va pedagogika fanlari bo'yicha davriy ilmiy nashrlarning ma'lumotlar bazalariga a'zo bo'lisch orqali tadqiqotchilar zaruriy manbalar bilan ta'minlandi.

yuqori bo'lgan ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarini aniqlash va ularni mazkur bazalarga kiritish bo'yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish)ga erishish vazifasi belgilab berilgan.

A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbolini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimi uchun zamonaviy, shu jumladan, elektron formatdagi raqamli o'quv adabiyotlar bazasini yaratish, jahon ilmiy-teknik ma'lumotlarning elektron axborot resurslaridan foydalanish, uzuksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek profesional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini sifatlari o'quv-metodik resurslar bilan ta'minlash ustida keng ko'lamli ishlarni boshlamoqda.

Shuningdek, institut ilmiy ishlamarining doimiy yangilanib turadigan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, ya'nii ilmiy ishlamarining elektron ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va uni muntazam yangilab borishga bel bog'lamoqda. Ta'limgartarbiya, jumladan, maktab ta'limi muammolari yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari nusxalari bazasi shakllantiriladi. Mahalliy tadqiqotchilarning dissertatsiyalari tasniflangan holda ma'lumotlar bazasiga joylashtirib boriladi.

Natijada Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining maqsadli ko'satkichlari va indikatorlari(41-band: Nufuzli xalqaro ilmiy-teknik ma'lumotlar bazalariga kiritish uchun salohiyati yuqori bo'lgan ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarini aniqlash va ularni mazkur bazalarga kiritish bo'yicha tashkiliy ishlarni amalga oshirish) ga erishish maqsadida ta'lim va pedagogika fanlari bo'yicha davriy ilmiy nashrlarning ma'lumotlar bazalariga a'zo bo'lisch orqali tadqiqotchilar zaruriy manbalar bilan ta'minlandi.

Keng jamoatchilik, tadqiqotchilar va xalq ta'limi xodimlarini ilmiy-metodik yangiliklar, ma'lumotlar bilan ta'minlab borish maqsadida institutning jurnali, jumladan, elektron nashriyotiga etiladi.

Institutning Axborot resurs markazini ehtiyojlar asosida zamonaviy formatdagi o'quv adabiyotlari bilan to'ldirish maqsadida mahalliy adabiyotlar raqamlashtiriladi, xorijiyleri esa sotib olinadi.

Institut ilmiy ishlamarining kutubxona fondi resurslarni shtempellar, kitob belgilari, yakka tartibdagi mashina o'qiydigan shtrixli kodlash, chiplashtirilgan, doimiy yangilanib turadigan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, ya'nii elektron ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish va uni muntazam yangilab turishga erishiladi.

Yuksak mahoratli pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda ilmiy-tadqiqot jarayonlarini sifatlari o'quv-metodik resurslar bilan ta'minlash maqsadida variativ o'quv dasturlariga mos ravishda tasniflanuvchi, elektron tarmoqda avtomatlashtirilgan saralash hamda qidiruv tizimlari talablariga mos fokuslashtirilgan resurslar kartotekasi shakllantiriladi.



Xalq ta'limi xodimlariga ehtiyojlarga asoslangan raqamli axborot ta'limgartarbiya resurslarini taqdim etish, kasbiy rivojlanishning raqamlashtirilgan muhitida innovatsion pedagogik transformatsiyani ta'minlash orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish uchun zamin yaratiladi.

Mehrino PARDAYEVA,
A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbolini belgilash ilmiy-tadqiqot institutining ta'limgartarbiya innovatsiyalarini joriy etish bo'yicha direktor o'rinnbosari.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA O‘TILISHI

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga yangi pedagogik paradigma va kompetensiyaviy yondashuv asosida har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimining ilmiy pedagogik asoslaridan foydalanib ta’lim berish lozim. Buning uchun kompeentsiyaviy yondashuv yo‘nalishlari, mazmunining nazariy jihatdan asoslab berishga qaratilgan g‘oyalar majmuini taqdim etish zarur. Boshlang‘ich ta’limning asosini shaxs kamoloti, uning barkamol shakllanib, rivojlanishi haqidagi g‘oyalar belgilaydi. Shu jihatdan taklif etilayotgan qarashlar va g‘oyalar tizimi amaldagi fanlarni o‘qitishga asoslangan, boshlang‘ich ta’limdan integrallashgan, shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo‘lishi kerak. Bu boshlang‘ich ta’limning istiqbolliligini ifodalaydi.

Boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalari quyidagilar:

- * *har bir o‘quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlariga sharoit yaratish;*

- * *iqtidorli o‘quvchilarning intellektual potensiallarini muntazam oshirib borishlariga sharoit yaratish;*

- * *ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyo-qarashini, kommunikativ savodxonligini va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirish;*

- * *jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirishga va ardoqlashga, ularga rioxva qilishga o‘rgatishdan iborat.*

O‘quvchilarni boshlang‘ich ta’lim jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash lozim. Milliy axloq tarbiyasi, ma’naviy-ruhiy hamda milliy nafosat va jismoniy tarbiya ham bu jarayondan o‘rin oladi. Berilgan matnlar, didaktik mashqlar, o‘quv topshiriqlari yordamida o‘quvchilarda turli shaklda axloqiy-ma’naviy tarbiya va milliy nafosat me’yorlari, umuminsoniy qadriyatlarini singdirish mumkin.

Olinayotgan ma’lumotlarning keskin ko‘payib borayotganligi sababli bu ma’lumotlarni qayta ishlab, undan foydalanish uchun yosh avlodga yetkazilishi kerak bo‘lgan bilimlar ham tobora ortib bormoqda. Bugungi kun o‘qituvchisi oldida dars soatlarini oshirish emas, aksincha rejalashtirilgan va berilishi kerak bo‘lgan bilimlar bilan bir qatorda eng sara ma’lumotlarni o‘quvchilarga yetkazish muammosi ham turibdi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim bu – o‘quvchi o‘quv jarayonida egallaydigan bilim, ko‘nikma va malakalarni kelgusida, o‘z shaxsiy hayot yo‘lida, kasbiy va ijtimoiy faoliyati davomida qo‘llay olish salohiyatini shakllantirishidir.

Bunday yondashuvga asoslangan ta’limdan maqsad o‘quvchini keng qamrovli fikr-mulohaza yuritadigan va muloqotga kirisha oladigan inson qilib tarbiyalash, barkamol shaxs qilib yetishtirishdir.

O‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi harakati natijasida **nimaga erishgani emas**, balki **qaysi yo‘l bilan erishgani** ahamiyatlidir. Bunda:

O‘quvchining ilmga bo‘lgan qiziqishi va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirib, fanlarning o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda namoyon bo‘ladigan matematik tushunchalarni yaxshi o‘zlashtirish, matematik fikr yuritishga tayyor bo‘lish, masala va muammolarni yechha olish, matematik tilda bemalol ish yurita olish ko‘rinishidagi qobiliyat va ko‘nikmalarga ta’lim metodini o‘zgartiribgina erishish mumkin. Bunda izlanuvchanlik asosiy o‘rin tutadi. Masalan, muammoli o‘qitishda o‘quvchilar nazariy va amaliy ko‘rinishdagi turli muammolarni yechish orqali yangi bilim va malakalarni egallaydi. Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, qiziqarli muammolarni qo‘yish va ularning yechilishiga yordam berish o‘quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirib, o‘tilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Natijada o‘quvchilar olgan bilim va ko‘nikmalaridan foydalanishni o‘rganishadi va o‘zlarining ijodiy imkoniyatlari va aniq fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

Ta'lim jarayonining qizi-qarli bo'lishi turli didaktik tizimlar majmuyining qanday tanlanishi-ga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda esa reyting tizimini tatbiq etish ko'rsatilmagan. Ta'lim sohasida Yevropada katta yutuqlarga erishgan Finlyandiya kabi rivojlangan davlatda ham boshlang'ich sinf o'quvchilariiga reyting tizimi qo'llanilmaydi. Buning natijasida:

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda ko'proq yodlash va bilim olishga layoqati kuchli bo'ladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda yangi terminlarni o'quvchilar eslab qolishlari uchun iloji boricha ko'proq beriladi. Bu terminlarning ma'nosini bolalarga mukammal tushuntirishga ko'p vaqt sarflashning keragi yo'q. Bolalarning yodlab qolish qobiliyatları susayganda esa yuqori sinflarda olingen barcha bilimlarni tatbiq etish va foydalanish ko'nikma va malakalarini oshirishga e'tiborni ko'proq qaratish kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarda dars soatining ko'p qismi o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini tekshirib, ularga baho qo'yishga sarflanadi. Shuning uchun o'quvchilarga baho qo'yish o'minga darsga ajratilgan vaqtini ko'proq bilim berish, didaktik o'yinlar o'tkazishga sarflash kerak. Natijada ta'lim samaradorligining keskin oshirilishiga erishiladi.

"Qattiqqo'l" o'qituvchida "3" o'lgan o'quvchi "yumshoq" o'qituvchida "5" bahoga o'qishi mumkin. Demak, qo'yilayotgan baholarni absolyut to'g'ri deb bo'imas ekan. O'qituvchilarning ko'p vahti qo'yilgan baholar bo'yicha sifat va samaradorliklarni hisoblab, turli ko'rinishdagi hisobot to'ldirishga sarflanadi. Reyting tizimi bo'Imaganida esa o'qituvchilar o'z malakalarini oshirish ustida ishlashlari uchun ko'proq vaqt paydo bo'ladi.

Reyting tizimi bo'Imaganida ta'lim sifat-samaradorligi ortgan holda, ta'limga sarflanadigan mablag'ning iqtisod qilinishiga erishiladi;

"5" baho ololmagan yosh o'quvchilarning baho bilan bog'liq psixologik ichki kechinmalardan saqlanadi. O'quvchi baho uchun emas, bilim olish uchun

*"Kompetensiya"
(Barkamollik) atamasi
birinchil marta 1959-yilda
R.W. Uayt tomonidan
yozilgan maqolada ishash
motivatsiyasi konsepsiysi
sifatida paydo bo'lgan.*

o'qiydi.

Ota-onalar farzandlarining o'zlash-tirishlari bilan bog'liq emotional tashvishlardan forig' qilinadi. Natijada kam vaqt davomida katta hajmdagi ma'lumotlar o'quvchilar tomonidan egallanib, ta'lim samaradorligi keskin oshirilishiga erishiladi.

Ta'limga bo'lgan e'tibor iqtisodiyot rivojining asosiy omili ekanligini jahon rivojlanish tajribasi yaqqol isbotlam-oqda.

Bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha o'qitish asosiy ta'lim mazmunini modernizatsiya qilib, yangicha o'qitish yo'nalishiga aylangan. Umumiy ta'limda-gi yangicha mazmunning asosini o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini hosil qilish va rivojlantirish tashkil etadi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda bilim olishga qiziqish kat-ta bo'ladi. Bundan unumliroq foydalanish maqsadida matematikaning asosiy bo'limlaridan boshlang'ich ma'lumotlar beriladi.

Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichidir. Amal-dagi boshlang'ich ta'lim fanlari o'qitishga asoslangan bo'lib, undan ko'zlangan maqsad bolalarda elementar tarzdagi o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan hamda ob'yektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishdan iborat.

Ko'rinib turibdiki, amaldagi boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun uni takomillashtirish va yangi yondashuvlar bilan boyitib borish lozim.

**Feruza TUROB qizi,
boshlang'ich ta'lim uslubchisi.**



BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA

AKTning O'RNI VA AHAMIYATI

Mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi.

Pedagogik va psixologik tad-qiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, AKT o'quvchilarning nazariyi, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad – aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bo'lgan o'quv faoliyatlaridagi yangi turlarining paydo bo'lishidir.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim – ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitishning sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich maktab o'qituvchisining zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Uzoq vaqt davomida ta'lim tizimida boshlang'ich maktab "ko'nikmalar maktabi" bo'lib keldi, ya'ni o'quvchi keyingi ta'lim olish uchun o'qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko'nikmalarni o'zlashtirishi kerak bo'lgan. Bugungi kunda boshlang'ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Ya'ni bolaning birinchi tajribasi ta'lim olish kuchlarini sinash joyi bo'lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faoliikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotSIONAL xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatlari ta'lim jarayoniga AKTni joriy etish bilan rivojlanayotganligining

guvohi bo'lmoqdamiz. AKTdan foydalilaniganda ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi. Butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash, darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va rus tili darslarida bolalar kompyuterlarda savodxonlikni oshirish bo'yicha turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmalmashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash

mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rghanish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdag'i o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirish, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi. Shuningdek, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiysi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Boshlang'ich sinfda o'rganiladi-gan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar



har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari dan biri – istalgan paytda masalaning boshiga qaytish, uning alohida

bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashiga imkon beradi.

Tabiatshunoslik fanining barcha mavzulari bo'yicha ham kompyuter testlarini ishlab chiqish mumkin. Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishda va birlıklarni turlarga ajratishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o'quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so'zning to'g'ri va ko'chma

o'rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar.

Barcha o'quv fanlarida qo'shimcha va rivojlantirish materiallari sifatida ko'plab videofilm hamda fotolavhalardan, o'lkashunoslik materialidan foydalanish mumkin. Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta'lim jarayonida AKTdan foydalanishning juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotning ahamiyatligi – axborotliligi, ko'rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimot-



qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish mumkin. Bunday slaydlarni yaratish uchun esa Internetedagi animatsion kartinkalardan foydalanish kifoya.

Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishdagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKTdan foydalaniib matematika, badiiy o'qish, ona tili va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Ushbu testlarda o'quvchining bahosini kompyuterning o'zi darhol taqdim etib, u yoki

ma'nosini topishga, sinonimlarni to'g'ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni bir-biridan farqlashga o'rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag'ishlangan "Teskari o'yin" testidan foydalanish esa o'quvchilarga darsni tushuntirishda samarali ta'sir etadi.

Asosiysi, test topshiriqlarini bajarishda o'quvchining ko'zi, miyasi va qo'llari ishtirok etadi, o'yin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni rivojlantirishga, ta'lim jarayoni jadalligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Testlardan tashqari, krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, o'quvchilar dars materiallarini mustaqil

lar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish zamonaviy boshlang'ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Sharofat JUMANIYOZOVA,
*Qoraqalpog'iston Respublikasi
Ellikqal'a tumani 27-maktabning
boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi.*

O'sib kelayotgan yosh avlodni ma'nani yetuk, bilimli va ziyoli qilib tarbiyalashda umumta'lim mакtablarida olib boriladigan darslarning o'rni beqiyosdir. Albatta, barcha fanlarning bu borada o'z o'mi, ahamiyati bor. Ammo ularning ichida ona tili va adabiyot, o'zbek tili fanlarining o'rni o'zgacha. Nega deganda, bu fanlar o'quvchilarining shaxs sifatida shakllanishida, hozirjavob, nuktodon, o'z fikrini dadil va tushunarli ifoda etishiga xizmat qiladi.

FE'L NISBATLARI MAVZUSINI SAMARALI O'ZLASHTIRISHDA INTERAKTIV O'YINLARDAN QANDAY FOYDALANISH LOZIM?



O'zbek tili fani o'qituvchisi haqiqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif qilishga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirish, o'z fikri, g'oyalarini o'zgalarga yetkaza bilish ko'nikmalarining shakllanishini nazorat qila olishi lozim.

Fe'l – so'z turkumlari ichida eng katta va ko'lamdori hisoblanadi. Shuning uchun ham umumta'lim mакtablarida o'quvchilarining o'zlashtirishi biroz muammoli. Qolaversa, yildan yilga bu mavzuga ajratilgan dars vaqtleri qisqarib bormoqda. *Nima qilmoq?, nima bo'lmox? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs yoki narsalarning harakatini, holatini ifodalagan so'z turkumi fe'l deyiladi.* O'z navbatida, fe'llar ham harakat va holat fe'llari ga ajraladi. Fe'l nisbatlari esa alohida kategoriya sifatida o'rganiladi. O'zbek tilshunosligi tarixida fe'l nisbatlari alohida kategoriya

sifatida ajratilmagan. Buyuk bobokalonimiz Fitrat ham o'z asarlarida shu kabi fikrlarni keltirib o'tadi. Fe'llarning nisbat kategoriyasi alohida ajratilmasa ham, bu kategoriya ifodalagan ma'no va uning muayyan shakkari yordamida ifodalanishi haqida ba'zi ma'lumotlar beriladi. Masalan, o'timli fe'llarni o'timsizga, o'timsiz fe'llarni o'timliga aylantirish yo'llari haqida fikr yuritilganda -(i) qo'shimchasi ishtirok etgan fe'llar majhul fe'l, -(i)n qo'shimchasini olgan fe'l o'zlik fe'l deyilishi ta'kidlanadi. Masalan, *yuvildi-yuvindi*.

Ma'lumki, mamlakatimiz ta'lim sohasida dunyoda yuz bergan pandemiya natijasida uzilishlar ro'y berdi. Bu esa o'quvchilarning bilim olishida, yangi mavzularni o'zlashtirishda sustakashlikka borayotganliklari ko'zga tashlanmoqda. Shu sababdan ham avvalgi an'anaviy darslar ular uchun zerikarli tuyulmoqda. Zamonaviy pedagog zamon bilan hamnafas yurmog'i, har qanday o'zgarishlarga o'z vaqtida javob bermog'i, o'quvchilarining samarali bilim olishiga o'z hissasini qo'shmog'i lozim. Bunda no-an'anaviy usullar, interfaol o'yinlarning o'rni beqiyos. Fe'l nisbatlari mavzusini yanada samarali o'zlashtirish uchun bir nechta shunday metodlarni birlgiligidaka ko'rib chiqamiz.



“Mantiqiy savol-javob” metodi

Bu metodning afzallik taraflari: o'quvchilarni dars jarayoniga olib kirish, darsga qiziqtirish, erkin fikrlash va hozirjavoblik kabi qobiliyatlarini o'stirishga xizmat qiladi. O'qituvchi tomonidan o'yin shartlari tushuntiriladi. Bunda doskaga savollar turli xil shakllardagi qog'ozlar ortiga yozilgan bo'ladi. Har bir guruhdan navbatma-navbat o'quvchilar chiqib, savollarga javob beradilar. **Masalan:**

- 1-savol.** Fe'l so'z tur-kumidagi so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
- 2-savol.** Harakat fe'llariga misollar aytildi?
- 3-savol.** Holat fe'llariga

misollar aytинг?

Savollar shu kabi davom etadi. Bu metod orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, diqqati ortadi.



“Kim bilimdon?” metodi

Bu metodda sinf ikki guruhgaga bo'linadi va o'tilgan mavzular yuzasidan guruhlar bir-biriga savol berishadi. **Masalan:**

- 1-savol.** Fe'l nisbatlari deb nimaga aytildi?

Javob: Bajaruvchining harakat va holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi yoki fe'ldan anglashilgan harakat-holat bilan shu harakatni yuzaga chiqaruvchi shakllar o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi fe'l shakllari *nisbat shakllari* sanaladi.

- 2-savol.** O'zbek tilida nechta fe'l nisbatli bor?

Javob: 5 ta;

- 3-savol.** Fe'l nisbatlarini sanab bering?

Javob: Aniq, o'zlik, majhul, orttirma, birgalik;

- 4-savol.** Aniq nisbat deb nimaga aytildi, misollar kel-

tiring?

Javob: Bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shaklidir. Fe'lning barcha nisbatlari aniq nisbat orqali aniqlanadi. Aniq nisbat hech qanday grammatik qo'shimcha olmagan nisbat sanaladi. **Masalan:** o'qidi, yozdi, yugurdi;

- 5-savol.** O'zlik nisbat deb nimaga aytildi, misollar keltiring?

Javob: O'zlik nisbat bajaruvchining o'z ustida amalga oshadigan harakat-holatni ifodalaydi. O'zlik nisbat harakatni bajaruvchi shaxs bilan harakat tushgan ob'yekt birlashgan holda bo'ladi: *tebrandi, tarandi*.

“Yopiq test” metodi

Ushbu metod ham samarali metodlardan biridir. Bu metodni o'tkazishdan maqsad o'quvchining yozma nutqini rivojlantirish, mantiqiy fikrlashga undash, bilimlarini yanada mustahkamlashga ko'maklashishdan iborat. Bunda ham guruh bilan ishlaniadi. O'qituvchi tomonidan ikkala guruhga ham bir xil yopiq test beriladi. Qaysi guruh testni tez va to'g'ri bajarsa, o'sha guruh g'olib sanaladi. **Masalan:**

Orttirma nisbat deb nimalarga aytildi?

Orttirma nisbat qo'shimchalarini yozing.

Yuvintirildi so'zida qaysi nisbat qo'shimchalari ishtirok etgan?

Orttirma nisbatdagi fe'llarga 5 ta misol yozing?

-ir, -ar, -iz qo'shimchalari qanday so'zlarga qo'shiladi?

Dars davomida yuqoridaqidek interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jamlash, tafakkur, xotira, ijodiy tasavvurini va nutqiy faolligini oshirishga ham xizmat qiladi. Qolaversa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, mavzuni o'rganish layoqati o'sib boradi. Buning bosh sababchisi esa o'qituvchi va uning pedagogik malakasidir.

Bugungi kun o'qituvchisi yoshlarning axloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy xislatlarni singdira bilishi lozim. O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda, interfaol va intellektual o'yinlar orqali tashkil qilish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, faolligini ta'minlash bugungi kun o'qituvchisining pedagogik faoliyatidagi bosh mezon hisoblanadi.

Fayzullo YAHYOEV,
Toshkent shahar Shayxontohur
tumani 19-sonli maktabning
o'zbek tili fani o'qituvchisi,
“Xalq ta'limi a'lanchisi”.

TABIATSHUNOSLIK FANIDAN O'QUVCHILARNING BILIMIDA ANIQLANGAN BO'SHLIQLAR USTIDA ISHLASH

Boshlang'ich maktab tabiatshunoslik fani tabiat hodisalarining keng doirasini qamrab oladi, shu sababli ba'zan o'rganilayotgan hodisalar bilan o'zaro bog'liq holda kuzatishlar olib borish qiyin kechadi. Shuning uchun ham tabiatshunoslikni dastlab o'rganish uchun ob'yektlar tanlashda quyidagilarni: o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, o'rganilayotgan materialning tushunarli bo'lishini, uning ta'limiylarini va rivojlantiruvchi ta'sirini, o'lakashunoslik materiali bo'lishini, olingan bilimlarni maktab jonli tabiat burchagi va o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar bajarilishida foydalanish imkoniyatini hisobga olish zarur.

Bola maktabga kelishi bilan o'qituvchi rahbarligida olam bilan maqsadga yo'nalgan holda tanishib boradi. Dastlabki tanishish bolalarning sezgi organlarining qabul qilishiga asoslanadi. Olamni bilib olishning birinchi bosqichi ularning barcha yangiliklarni qarab chiqishga, iloji bo'lsa ushlab ko'rishga qaratilgan tug'ma intilishidir. Shunga ko'ra, dastlabki tasavvurlar tushunchalarni shakllantirishda o'quvchiga o'rganish ob'yekti bilan bevo-

sita muloqotda bo'lish imkoniyatini ham berishi kerak.

Takomillashtirilgan standartlar va yangi o'quv dasturlari boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning erkin fikr yuritish orqali muloqotga kirisha olish qobiliyatini shakllantirish, so'z boyligini oshirish, o'qish texnikasini yaxshi egallash, chiroyli va savodli yozish ko'nikmalarini hosil qilish, nutq madaniyatini yuksaltirishga e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.





Axborot-kommunikatsion texnologiyalar innovatsion pedagogik texnologiyalarning rivojlanib borayotgan zamonaviy yo'nalishi bo'lib, ular asosidagi ta'lif kompyuter das-turlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmog'idan foydalanish asosida o'qitish hamda mediata'lif metodlaridan iborat.

Ushbu fanni o'qitish usullari orasida o'quvchilarning turli tabiat ob'yeqtllari: Yer, osmon, ob-havo, o'simliklar, jonivorlar, ularning tuzilishi, o'sishi, tabiat hodisalarini, daryo, tog', o'rmon, tekislik, qir, adir, dash, cho'l, foydali qazilmalarini kuzatish orqali ular to'g'risidagi bilimlarni o'rganishlarini tashkil qilish eng asosiy usul hisoblanadi. Shu bilan birga, o'quvchining o'rganilayotgan ob'yektini bevosita kuzatish orqali bilim olishini ta'minlash bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lifning eng samarali texnologiyalaridan sanaladi.

1-sinfda o'quvchilar tabiatni yil fasllari – qish, bahor, yoz va kuzni mavsumlar bo'yicha o'rganib, o't, buta, daraxt va dala o'simliklarini ko'rinishlariga qarab ajratishni bilib oladilar. Ularning qismlari bilan tanishadilar. Xona o'simliklarini parvarish etishga doir amaliy ishlarni o'rganadilar. Bolalarga tanish-

bo'lgan gullarning rasmlari ko'rsatilib, ular bilan yaqindan tanishtiriladi. Gul urug'larini yig'ish, gerbariy tuzish, o'simliklarni payhon qilmaslik, gullarni uzmaslik haqida tushunchalar beriladi.

Bu mashg'uoltarda o'quvchilarni faollashtirish bo'yicha innovatsion texnologiyalar:

- *yil fasllari va har bir faslda ro'y beradigan o'zgarishlar to'g'risida o'quvchilar o'zlarining taassurotlarini so'zlashlari hamda e'tiboridan chetda qolgan jihatlarni o'qituvchi rahbarligida to'ldirib borish;*

- *texnika vositalaridan foydalanib mavzuga tegishli tasvirlarni namoyish qilib, muhokamalar uyushtirish;*

- *o'simliklar turlari, ularning qismlari to'g'risida o'quvchilarning bilganlariga tegishli to'ldirishlar qilish, namoyish va muhokamalar o'tkazish;*

- *xona o'simliklari, turli gullarni ko'rsatib tanishtirish, ularning urug'larini namoyish qilish, ularni yig'ish hamda gerbariyalar tuzishni o'rgatish maqsadlariga qaratilgan bo'lib, ular 1-sinfdag'i o'simliklarga doir das-tlabki tushunchalarni o'z ichiga oladi.*

(Davomi 40-43-sahifalarda)

(Davomi. Boshi 38-39-sahifalarda)

Ma'lumki, inson o'rganish jarayonida eshitish orqali yangi axborotning 15 foizini, ko'rish orqali 25 foizini, eshitish bilan bir vaqtida ko'rish orqali esa 65 foizini esda saqlab qoladi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham o'quvchilariga tevarak-atrof, tabiat, olam haqida ma'lumot bergenida har bir mavzuni hayotga bog'lab, milliy qadriyatlarga tayangan holda va ko'rgazmali asosida o'rgatishi lozim.

Tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarni faollashtirishning yana bir vositasi sifatida tegishli darslar mavzusiga muvofiq ravishda buyuk ajdodlarimiz yaratgan ibratli rivoyatlar, "ob-havo darakchilari" bilan tanishtirib borish yaxshi natija beradi.

Rivoyatlar o'quvchilardagi flora va faunaga bo'lgan mehrni kuchaytirsa, "ob-havo darakchilari" haqidagi ma'lumotlar esa ularning chor-atrofga bo'lgan qiziqishi va kuzatuvchanligini oshiradi. O'quvchi dars jarayonida olgan bilimlarining isbotini tabiatdan aniqlashga harakat qiladi.

"Ob-havo darakchilari" haqidagi ma'lumotlarni to'plab borish, ulardan dars jarayonida o'rinli foydalanish ham samarali natijalarni beradi. Ularni bilish, anglash tabiat bilan uyg'unlik, unga g'amxo'rlik, o'lka ob-havosi, tabiatiga bo'lgan qiziqish va mehrni oshiradi.

Tabiatshunoslikdagi mavzularga moslab ob-havo darakchilari haqidagi ma'lumotlarni ham ma'lum mavzularga ajratish mumkin.



Qushlarning harakati va holati ob-havodan darak beradi:

- 1.** Issiq o'lkalardan uchib kelgan qushlar erta bahorda uzoq vaqtgacha sayramay yurishsa, hali-beri harorat ko'tarilmaydi, vaqt-vaqt bilan sovuq bo'lishi kuzatiladi.
- 2.** Ertalungda chumchuqlar baland ovozda chirqillasa, o'sha kuni havo ancha issiq bo'ladi.
- 3.** Turnalar sayrasa, yomg'ir yog'adi.
- 4.** Bulbul tuni bilan xonish qilib chiqsa, ertasi kuni havo ochiq va issiq bo'ladi.
- 5.** Turnalar barvaqt uchib kelsa, bahor erta boshlanadi.
- 6.** Kaptarlar "g'uv-g'uv" lasa, havo ochiq bo'ladi.
- 7.** O'rdak va g'ozlar tumshug'ini qanotlari ostiga berkitishi sovuq bo'lishidan darak beradi.

Jonivorlar harakatida ob-havodan darak beruvchi holatlar

- 1.** Sigir o'tlamay yotaversa, havo isib ketadi.
- 2.** Itning o'z-o'zidan aylana boshlashi yomg'ir va qor yog'ishidan darak beradi.
- 3.** Hayvonlar qaysi tomonga orqa o'girib yotsa, o'sha tomondan shamol esadi.
- 4.** Qanotli chumoli chiqsa, yomg'ir yog'ishi kutiladi.
- 5.** Chuvalchang yer yuziga chiqsa, yomg'ir yog'adi.
- 6.** Mol kam suv ichib, kunduzi mudray boshlasa, tez orada yog'ingarchilik bo'ladi.

O'simliklar holati ob-havodan darak beradi

- 1.** Gullarning odatdagidan ko'proq hid taratib turishi yomg'ir yog'ishidan dalolat.
- 2.** Daraxtlar kech barg yozsa, yoz uzoq davom etadi.
- 3.** O'rik barvaqt gullasa, bemavrid sovuq tushishi mumkin.
- 4.** Mevalar tez yetilsa, qish erta keladi.
- 5.** Bodom daraxti ikkinchi marta gullasa, qish qattiq keladi.
- 6.** Agar daraxt yaproqlari aralash holatda sarg'aysa, qish ob-havosi o'zgaruvchan bo'ladi.

Tabiat hodisalari ham ob-havodan darak beradi

1. Ertalab tuman tushsa, havo ochilib ketadi.
2. Tushga yaqin osmon xiralashsa, havo ayniydi.
3. Osmonda kamalak ko'rinsa, tez orada yomg'ir tinadi, agar qo'sh kamalak chiqsa, yomg'ir yog'adi.
4. Erta bahorda chaqmoq chaqib, momaqaldiroq ovozi eshitilsa, yoz qurg'oq keladi.
5. Qish qattiq kelsa, yoz issiq bo'ladi.
6. Yulduzlarning ko'p jimirlashi havoning o'zgarishidan dalolat beradi.

Bu kabi ma'lumotlarga tayanib, yil fasllaridagi ob-havo qanday bo'lishini oldindan bilish ham mumkin. Buning ahamiyati katta bo'lib, kelayotgan qishda juda qattiq sovuq bo'lishi yoki yozda o'ta issiq bo'lishi ma'lum bo'lган hollarda, bunday noqulay ob-havo sharoitlari ga oldindan zarur tayyorgarlik ko'rish, shunday davrlarda chorva mollari, parrandalar, yovvoyi hayvonlar, ekinlarni saqlab qolish chora-tadbirlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Ob-havo darakchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plab, jajji kitobcha shaklida ko'paytirib, o'quvchilarga tarqatilsa, ular kitobchani o'zлari bilan olib yurib, keltirilgan ma'lumotlar bilan yaqindan tanishadilar, ba'zi o'rinnarini yod ham olishadi. Shuningdek, har bir ma'lumotning tasdig'ini tabiatni kuzatish asosida topishga harakat qilishadi va shu asosda tabiadagi muayyan o'zgarishlarni oldindan bilishga o'rGANIB borishadi. Buning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, bu kabi metodlarni qo'llash darslarda ta'lim samaradorligini oshirishga muayyan darajada hissa qo'shadi.

3-4-sinf o'quvchilariga tabiat va ekologiyaga bog'liq rivoyat va ma'lumotlarni izlab topish, "Chumolining foydasи", "Qushlarni asrang" kabi mavzularda mustaqil yozma ish yozish kabi vazifalar berish mumkin.



Bunday topshiriplar o'quvchilarni izlanishga undab, ularning kitob bilan do'stlashishlariiga yordam beradi, og'zaki va yozma nutqini o'stiradi, fanlararo bog'lanishni ta'minlab, puxta bilim olishga bo'lган rag'batini oshiradi.

O'qituvchi mahorati darsni aniq rejalashtirishda o'z ak-sini topadi. Chunki darsning rejasi qanday sifatda bo'lsa, uning natijaviy sifati va samaradorligi ham shunday bo'ladi.

Ayrim o'qituvchilar dars rejasini tuzishda ba'zi xatolarga yo'l qo'yishadi, masalan:

1. Darsning maqsadi aniq yozilmagan, o'quvchilar darsda nimani o'rganishlari va nima qilishlari aniq belgilanmagan.
2. Darsning maqsadi bilan darsdan ko'zda tutiladigan natija o'zaro nomuvofiq belgilangan hollar uchraydi.
3. O'rganish uchun tavsiya qilingan materiallar darsning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.
4. O'qituvchi berayotgan yo'llanmalar o'quvchining darsda bilimlarni samarali o'rganishini ta'minlamaydi.
5. Dars rejasida ko'rsatilgan o'quvchilarning xattiharakatlari dars maqsadini amalga oshirishning samarali vositasi bo'la olmaydi.

Bunday xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun dars rejasini tuzgandan keyin uni diqqat bilan qayta ko'rib chiqish va xatolar aniqlangan holda ularni bartaraf etish ustida ishslash lozim.

O'qituvchi har bir darsni rejalashtirishda uning davomida amalga oshiriladigan barcha jarayonlar va ularning maqsadga muvofiq ketma-ketligini yaxlit holda ko'ra bilishi zarur bo'lib, uni aniq tasavvur qilish uchun loyihalashtirib olishi lozim. Bunday loyihalashtirishni darsning texnologik xaritasini tuzish shaklida amalga oshiriladi. Darsning texnologik xaritasi o'quv predmetining xususiyatlari, o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tuziladi.

(Davomi 42-43-sahifalarda)

Bundan asosiy maqsad o'quvchilarning o'qishga qiziqishlari, darsda faol bo'lishlari, mustaqil fikrlash va shaxsiy ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Boshlang'ich ta'limga o'ziga xos xususiyatlarni hisobga oлgan holda o'qituvchi ta'limga jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish metodlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarni boshlang'ich ta'limga jarayoniga tatbiq etishda ma'lum qiyinchiliklarga duch keladi.

O'quv-tarbiya jarayoniga yangiliklarni kiritib borishda o'quvchi faolligini oshirish ta'limga sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Buni hisobga oлgan holda ta'limga jarayoniga, ayniqsa boshlang'ich ta'limga zamonaviy ilg'or yangiliklarni kiritib borish bilan bog'liq bo'lgan o'quvchining faolligini oshirish, uni ta'limga jarayonida shaxsan ishtirot etishini ta'minlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi ma'lum bo'ladi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun vazifalarni quyidagicha belgilash mumkin:

- *hozirda mavjud pedagogik texnologiyalarning boshlang'ich sinflardagi tabiatshunoslik darslarida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lganlarini belgilash va ularning o'quv-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha imkoniyatlarini aniqlash;*

- *boshlang'ich sinflar tabiatshunoslik darslarida o'qituvchilar qo'llayotgan pedagogik texnologiyalarni hamda ularning shu yo'nalishdagi innovatsion faoliyatlarini ahvolini o'rganish;*

- *o'quvchilarning dars jarayonidagi faoliyklarini oshirish imkoniyatini beruvchi innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil qilish shaki va usullarini o'rganish va yanada takomil-lashish yo'llarini belgilash.*

Yuqorida ta'kidlanganidek, innovatsion metodlardan foydalanib, o'quvchilarning faolligini oshirish mumkin. Ularda mustaqil fikrlash malaka va ko'nikmalarini hosil qilish, zehnini o'stirish, atrof-olamga nisbatan mehr va e'tibor, fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, darslarda ularning faoliyklarini ta'minlash orqali ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishga keng imkoniyat ochiladi.

Tabiatshunoslik tushunchalarini samarali o'zlashtirilishi ni ta'minlovchi metodik sharoitlar. O'quv materialini o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirmaslik hollari ham kam emas. Buning sababi shundaki, ularning bilimlari tasavvurlar darajasida qolgan. Bu darsda yoki bir mavzu bo'yicha shakllantirilgan tushunchalar keyinchalik rivojlantirilmaydi va boshqa tushunchalar bilan bog'lanmaydi. Tushunchalarni rivojlantirishning zarur sharoiti sistemadir. Jumladan, tabiatshunoslik tushunchalarining hosil bo'lishi ham muayyan metodik sharoitlarda amalga oshadi. Chunonchi, tabiiy ob'yeektni kuzatishlar, qabul qilishni aniqlovchi mashqlar; o'qituvchining hayajonli hikoyasi qabul qilishning

to'g'ri bo'lishini ta'minlaydi. O'qituvchining savollari xotiradan rasm chizish, har xil narsalarni tanib olish bo'yicha mashqlar tasavvurlarning to'g'ri bo'lishiga yordam beradi. O'qituvchi tomonidan o'quv materialini bayon qilish mantiqi; aniqlash va taqqoslash bo'yicha mashqlar; tushunchalarni bog'lovchi va rivojlantiruvchi takrorlash sistemasi; umumlashtirishni talab qiluvchi savollar; tushunchalarni o'quv va ko'nikmalar bilan bog'lovchi savollar tushunchalarning to'g'ri bo'lishini ta'minlaydi.

Tabiatshunoslik tushunchalari bevosita kuzatishlarga asoslanib, o'rganilayotgan narsa yoki hodisa to'g'risida aniq va ravshan tasavvur hosil qilingan sharoitda to'g'ri bo'lishi mumkin. Tushunchani birlamchi tarzda hosil bo'lishida ob'yeektlar va ko'rgazmali materialning har xil turlari (*jadvallar, sxemalar, suratlar va h.k.*) katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirmasdan, ularni fikrlash ishiga jalb qilmasdan turib tushunchalarning o'zlashtirilishiga erishish mumkin emas. O'quvchilarning fikrlash faoliyatini rag'batlantirish uchun o'qituvchi mavzu va dars boshida ular oldiga muammolar qo'yadi. O'quv materialini bayon qilayotib, o'quvchilarni sabab va oqibatlarini, tabiat hodisalari o'rtafiga bog'lanishlarni aniqlashga jalb qilish uchun harakat qiladi.

O'quvchilarning faol fikrlashlarini tarbiyalashda o'qituvchining savollari katta rol o'ynaydi.

Tabiatshunoslik darslarida darslik matnini tiklashda (esga olishda) tahlilni, sintezni umumlashtirishni talab qiluvchi savollar berish kerak. Javobda sintezni talab qiluvchi, tushunchalarni kengaytiruvchi savollar alohida ahamiyat kasb etadi. Quyidagi savollar misol bo'lishi mumkin: Cho'lda yashovchi hayvonlarning qaysi moslanishlari ularga qurg'oqchilikka va jazirama issiqliq chidashga yordam beradi? Dasht va cho'l tabiatining o'xhashligi nimada? Nima uchun tundrada katta daraxtlar o'smaydi?

O'quvchilar jadvaldan foydalanib, o'simlik va hayvonlarning tashqi xususiyatlarini taqqoslaydilar, ular har xil tabiiy sharoitlarda yashashga qanday moslashganliklarini hikoya qiladi. Tushuntirish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning o'z ijodiy daftarlari ko'chirib olishlari uchun xattaxtaga oddiy sxemalarni chizishi mumkin. O'quvchilarga uyda sxemalar chizishni taklif qilishi ham mumkin, j a m o a kelgusi darsda esa chizilgan sxemalar bo'lib aniqlanadi va to'ldiriladi.

Shunga o'xhash ishlar o'qituvchi tomonidan oldindan ilib qo'yilgan jadvallarni to'ldirish bo'yicha ham o'tkaziladi. Jadvallar ham taqqoslash va umumlashtirish uchun (umumlashtiruvchi darslarda) hamda



uya to'ldirilishi mumkin. Solishtirma jadvallar sinfdagi amaliy ishlarda tirik tabiat burchagida hamda maktab o'quv-tajriba maydonchasida tajribalar o'tkazishda qo'llaniladi.

O'qituvchi tushunchalar tarkibini bilib, ularni tashkil qiluvchi elementlar bo'yicha o'quvchilarining bilimini ob'yeaktiv baholashi mumkin. Tushunchalar o'zlashtirilishining darajasini bilish o'qituvchiga o'qitishning borishini fahmflashga, bilimni o'zlashtirish jarayoniga to'g'ri rahbarlik qilishga yordam beradi. Tushunchalarni ajratib o'qituvchi tegishli metodik uslublarni tanlaydi va qo'llaydi.

Mantiqiy tafakkur va nutqni rivoj-lantirish: Tabiatshunoslik tasavvurlari va tushunchalarini shakllantirishda tafakkur va nutq katta rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilar nutqining to'g'riligini kuzatib borishi kerak. Nutqni mashq qildirish uchun eng muhim materiallardan biri o'quvchining atrofidagi tabiatdir. Atrof tabiat bilan tanishtirish bolalarning kuzatishlariga asoslanadi. Tabiatni kuzatish jarayonida to'plangan material leksikani boyitish, jumllalar va og'zaki hikoyalari tuzish, lug'aviy mashqlar, yozma insho bajarish, suhbatlar o'tkazish uchun xizmat qiladi. Ko'pincha kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini tabiatni kuzatib xulosa chiqara olmaydilar, bajargan ishlarning mazmunini aytib berolmaydilar, kuzatishlarini amaliy tajriba, darslik matni bilan bog'lashga qiynaladilar, o'rganilgan mavzu bo'yicha og'zaki hikoya tuzolmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi tabiatshunoslik darslari-da foydalananish uchun nutqiy mashqlar ishlab, aqliy ishning muayyan shakllariga – tahlil va sintezga, induksiya va deduksiyaga, eng muhim belgilarni ajratishga, umumlashtirishga, fikr yuritish bo'yicha masalalar yechishga, sabab va oqibat bog'lanishlarini aniqlashga, taqqoslash va qarama-qarshi qo'yishga tayanishi kerak.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini ko'pincha narsalarning, hodisalarning, faoliyatning belgilarni ajratishga qiy-naladilar. Shu sababli bu ishni borliq yoki o'quvchilarining tasavvurlariga asoslanib yoki xotiralari bo'yicha o'tkazish zarur. Kuzatishlar muntazam ravishda xilma-xil materialda olib boriladi. Gul va uning tabiatda tovlanishini kuzatish ham o'quvchilar qiziquvchanlikni tarbiyalashga, o'rabi olgan olamni ko'ra bilish va qabul qila olishga yordam beradi. Bularning hammasi tafakkur va nutqni rivojlanishini



ta'minlovchi bazadir.

Kuzatishlar jarayonida o'quvchilar narsalarning belgilarini payqashga o'rganadilar. Chunonchi, birinchi sinf o'quvchilarini bilan istirohat bog'ida o'tkaziladigan kuzgi sayr vaqtida suhbat o'tkaziladi, suhbat jarayonida bolalar daraxt barglaridagi ranglarning o'zgar-ganini ko'radi. Bunda ularning e'tibori bir xil daraxtlarda barglar rangining pastki shoxlarda, boshqalarida yuqoridagi shoxlarda o'zgarganligiga, nastarin va ligustrum kabi o'simliklarda esa o'zgar-maganligiga qaratiladi. Shu sayrning o'zida bolalarga o'simliklarning o'lchami, rangi, shakli yoki boshqa xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan narsalarning belgilarni ajratish bo'yicha topshiriqlar berish mumkin.

Tabiatshunoslik o'zining mazmuni va metodlari bilan o'quvchilarini har tomonlama tarbiyalash uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. Zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash o'qituvchining yaxshi tarbiyaviy ta'sir ko'rsata olishini ta'minlaydi. U o'qituvchining kuchini, vaqtini tejab, ijodiy ishlashi uchun sharoit yaratadi. O'qituvchi faoliyatida ijod turli shakllarda va mazmunda namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda pedagogik texnologiya tushunchasi keng o'quvchilar ommasining ijodiy faoliyatining mahsulidir. Pedagogik texnologiya ijodning eng muhim sharti shu sohani bilish, tushunish, uni sevish, unga jonku-yarlik, tashabbus bilan yondashishdir. Shu bilan birga, o'qituvchining yuksak madaniyati timsolidir. Yuksak madaniyat keng tushuncha bo'lib, u eng avvalo

o'qituvchining chuqur bilim saviyasi, har tomonlama qiziqishlarini, yuksak aqliy rivojlanganligi, ijtimoiy faolligi, kamtarin, mehnatsevarligi, pedagogik odobi, jamaa va o'quvchilar bilan muomalasi, kelajakka ishonchi hamda xushchaqchaqlik kabi xislatlarning majmuasini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilar tabiatshunoslik darsini o'qitish jarayonida tabiat haqida chuqur bilimga ega bo'lishlari, bolalarni tabiatga muhabbatlarini uyg'otish, ularni tabiatni asrab-avaylash kerakligini va o'z faoliyatini rivojlantirib borishlari kerakligini bilishlari zarur. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilarining ishini shunday tashkil qilishi kerakki, ular shu darsda o'rganiladiganlarni ilgari o'tilganlar bilan bog'lanishini tushun-sinlar hamda materialni puxta tushunib o'zlashtirsinlar.

Bolalarni tabiatshunoslik darslariga qiziqtirib borish uchun ekskursiyaga olib chiqilsa, tabiatdagi o'zgarishlar tanishtirib borilsa, ularda fanga bo'lgan qiziqish yanada ortib boradi. Ularni amalga oshirish uchun esa o'qituvchi o'z faoliyatidan kelib chiqib tegishli o'simliklar, maxsus asboblar, boshqa jihozlar va tirik tabiat burchaklarini, o'quv tajriba maydonchalarini va tabiatda bajariladigan ishlarga oid topshiriqlarni tashkil qilishlari lozim. Buning uchun o'quvchilar ham o'z o'qituvchilariga yordam berishlari kerak bo'ladi.

Feruza HAYTOVA,
Qashqadaryo viloyati
Dehqonobod tuman Xalq ta'limi
bo'limi boshlang'ich ta'lim metodisti.

O'QUVCHILARNI O'ZBEK TILIGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASH - **DAVR TALABI**

Mustaqil O'zbekistonimizning yangilanish pallasiga yuz tutganini mamlakatda o'zbek tilining davlat va jamiyat hayotidagi ta'siri va nufuzini oshirish yuzasidan ko'riliyotgan chora-tadbirlar hamda muhim o'zgarishlar yaqqol ko'rsatib turibdi.

Bugungi kunda har birimiz tilimizning obro'-e'tibori uchun kurashadigan jonkuyar insonlarga aylanishimiz kerakligini davr taqozo qilmoqda. O'zligimiz va davlatchiligidan timsoli bo'lgan o'zbek tilini talaba va o'quvchi yoshlarga puxta o'rgatish biz kabi mutaxassislarning muqaddas burchimiz va vijdon ishimizdir. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy asos solgan va rivojlantirgan bu til o'zini o'zbekman, o'zbekistonlikman, deb hisoblaydigan millionlab insonlar uchun aloqa-aratlashuv, fikr bildirish va ijod qilish vositasidir. Xalqimizda "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz" degan hikmatga amal qilish hamisha muhim sanalgan. Ona tiliga bepisandlik el-u yurtga, ona Vatanga hurmatsizlikdir.

Biz yoshlarni davlat tilimizga e'tibor va e'tiqod bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish borasida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida olib boriladigan mashg'ulotlar tizimini tashkil qilish masalasida anchadan beri izlanishlar olib bormoqdamiz.



Auditoriyada olib boriladigan ishlar:

1. Tolibi ilmlarning og'zaki va yozma nutqiga talabchan bo'lish.
2. Lug'at boyligi, so'zlashuv uslubi va savodxonligi ustida ishlash.
3. Buyuk ajdodlarimizning til haqidagi fikrlarini uqtirish.
4. Qiziqarli ijodiy topshiriqlar berish.

Auditoriyadan tashqari olib boriladigan ishlar:

1. Tilni puxta o'rganishga yo'naltirilgan turli to'garaklar tashkil etish.
2. Badiiy ijod teatr-studiylarining ishini yo'lga qo'yish.
3. Devoriy, elektron gazeta va jurnallar tayyorlash.
4. Mavzuviy kechalar, suhbatlar, uchrashuvlar uyushtirish.
5. Badiiy asarlar tahlili yuzasidan munozara, muhokama klublari faoliyatini tashkil qilish.

O'z faoliyatimiz davomida yuqorida sanab o'tilgan mashg'ulotlardan qariyb bar-chasini qo'llab kelmoqdamiz. Ularning natijasida shogirdlarimiz orasidan ijodkorlar, olimpiada g'oliblari, iqtidorli filologlar, shirinzabon va shirinsuxan insonlar yetishib chiqmoqda.

Hozirgi zamon texnik vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi yoshlar faolligini inobatga olgan holda Toshkent

shahar Shayxontohur turmanidagi 169-maktabda "169 TIMES" nomli onlayn gazeta tashkil etdi. Ushbu onlayn gazetada maktab o'quvchilari va o'qituvchilari, ota-onalar tomonidan yozilgan maqolalar, she'r va hikoyalar, mulohazalar e'lon qilinmoqda. O'quvchilarning ustozlaridan olgan interv'yulari, ularga bildirgan dil so'zları va tabriklari, maktab ijtimoiy hayotida sodir bo'layotgan vo-



qealar, tadbirlar, tanlovlар tafsilotlari ham gazeta sahifalarida muntazam berib boriladi. Ushbu onlaysiz gazeta o'quvchilarimiz ijodkorligi, uslu-biyati, savodxonligini rivojlantirish, maktab hayotidagi ishtirokini faol-lashtirish bilan bir qatorda so'zga zargarona munosabatda bo'lish, ravon va chiroylı jumllalar tuzish ko'nikmalarini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

"Yosh kitobxonlar" to'garagi a'zolari bilan Alisher Navoiyning

"G'aroyib us-sig'ar" devonida "gul" so'zining ishlatalishiga doir izlanish-larimiz natijasini videorolik shaklida ijtimoiy tarmoqlarda va onlaysiz gazeta sahifalarida taqdim qildik.

O'quvchilarga Navoiy ijodi yuza-sidan mustaqil topshiriqlar berib, ijodkorning so'z haqidagi fikrlarini topib kelishga undadik. Natijada ular buyuk mutafakkirimizning ijodidan "Chin so'z – mo'tabar, yaxshi so'z – muxtasar", "Achchiq so'zdan achchiq ovqat yaxshi", "Kishining so'zi aqliga dalolatdур", "So'z bila kufr ahli musulmon erur, So'z bila hayvon degan inson erur", "Jism bo'stonig'a shajar so'zdurur, Ruh ashjorig'a samar so'zdurur", "Avval-u oxiringg'a solg'in ko'z, Bil ham avval so'z-u, ham oxur so'z" kabi namunalarni topib kelishdi. Bu izlanish natijasi Navoiy ijodini puxta o'rganish bilan birga, ijodkorning so'z haqidagi hikmatli misralarini dillariga jo qilishlari uchun imkon berdi. Maqsadimiz, shogirdlarni so'z qadrini bilishga, so'zning buyuk qudrati va ahamiyatini anglab yetishga undash edi.

Xorijiy multfilm va badiiy film-laridagi mashhur qo'shiqlarni havaskor sifatida o'zbek tiliga tarjima qildik, kuylab videomon-tajni amalga oshirdik, Telegram va YouTube tarmoqlariga joyladik. Bundan kutilgan natija: o'zbek

tilimizning maqomini, uning im-koniyatlarini ta'kidlab ko'rsatishga va ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan edi. Keyinchalik bu loyihaga shogirdlarimizni ham jaib qildik. Ular bilan tarjima matnlarni she'rga solib, kuyga mosladik. Bu jarayon ular uchun juda qiziqarli va ibratli bo'ldi.

Inson butun hayoti davomida bilim olish, o'rganish faoliyatidan to'xtamaydi. Ona tilimizning xazinasi ham bir umr nutqimizni boyituvchi, tafakkurimizni va zehnimizni o'stiruvchi durdonalar bilan limmo-lim to'lgan tilsimdir. Bu xazinadan qay yo'sinda foydalishni shogirdlarimizga o'rga-tar ekanmiz, ularni o'zimizning hamfikr, hammaslagimizga aylan-tirishimiz juda muhim. Bizning bar-chaga faoliyatimiz, sa'y-harakatlari-miz ilmi toliblardan ona tilimizning qadr-qimmati uchun kurashuvchi salohiyatli avlodni tarbiyalab yetishtirishga yo'naltirilgan.

Noto'g'ri gapirganlarni to'g'ri talaffuzga chaqirish, xatoliklar bilan bitilgan maktub va SMSlarga bir og'iz e'tiroz bildirish barchamizga burchdir. "O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir", "So'zning so'zdan farqi bor, o'ttiz ikki narxi bor", – deydi xalqimiz. Ajdodlarimizdan beba-ho meros sifatida avloddan avlodga o'tib kelayotgan ona tilimiz bizning jon-u dilimizdir. Bu borada atoqli olimlarimiz, buyuk mutafakkirlarimiz o'zlarining nodir mulohazalarini, noyob fikrlarini aytib o'tganlar. Bu fikrlarini o'rganib, dilimizga jo qilib, ularga amal qilmoq bizning vorislik burchimizdir.

Tilimizdan uchgan har bir so'z, har bir jumla, har bir matn uchun ajdodlar ruhi oldida javobgar ekani-mizni unutmaylik. Tilimizdagи har bir so'zni zargar zarni e'zozlagan-day e'zozlaylik.

Nargizaxon XAMIDOVA,
Toshkent shahar Shayxontohur
tumanı 169-maktabning
ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi, "Xalq ta'limi a'lanchisi".



XALQARO BAHOLASH DASTURLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Xalqaro standartlashtirilgan testlar (PISA, PIRLS) ta'lrimizimlarini tartibga solish maqsadida o'quvchilarning faoliyatini bir mamlakatdan boshqasiga solishtirishga qaratilgan bo'lib, dastlab sertifikatlash uchun mo'jallanmagan. Biroq ularning ta'siri shundan iboratki, bu mahalliy sertifikatlash imtihonlari va hatto baholash protseduralarining mazmuniga ham taalluqlidir.

Shunday qilib, ushbu testlar o'quvchilarning savodxonligini o'zgartirishga bilvosita hissa qo'shadilar. Avvalo, standartlashtirilgan testlarning kelib chiqishini muhokama qilamiz. Keyin ular orqali yetkazilgan sifat tushunchasini, ustunliklar (*ta'lim tizimining aks ettirilishi, ularni tartibga solish asoslari va boshqalar*) va chegaralar (*ta'limgagi raqobatning yaxshilishi, o'ziga xoslikni yo'qotish, funktsiyaning o'zgarishi*)ni tahlil qilamiz.

Ushbu testlar mahalliy, min-taqaviy yoki milliy voqelikni hisobga olmagan holda, "ideal o'quvchi" g'oyasiga assoslanadi. Garchi bu tafovutning yaxshi tomonini ochib bersa ham. Shu sababli ular o'quv dasturlarining dekontekstualizatsiyasini kuchaytiradi. Natijada o'quvchilarning va umuman butun jamiyatning madaniy ahvoli yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Chunki har bir davlat, eng

avvalo, o'z ichki hududida kadrlar yetishtirish siyosatini ko'zlagan holda ta'lim bosqichlarini yaratadi, standartlar va qonunlar yaratadi. Shundan keyingina o'quv rejalar tuzilib, o'quv adabiyotlar tavsiya etiladi. Lekin xalqaro standartlashtirilgan baholash dasturlariga qatnashish uchun bir butun ta'lim tizimini o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Standart xalqaro sinovlardan foydalanish ta'lim tizimini ijtimoiy roldan chalg'itishi mumkin. Darhaqiqat, xalqaro reytingga ko'tarilishning pirovard maqsadini amalga oshirish orqali ta'lim olamining siyosiy hokimiylari ba'zan mamlakatning asosiy kasbiy mahoratiga ega bo'lish kabi ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldiradilar. Ba'zi mamlakatlar malakali mahalliy mutaxassislar yetishmasligi sababli ta'larning traektorial yirik infratuzilmasi ishlarini amalga oshirish uchun chet el ishchilarini jaib qilishga majbur bo'lmoqda.



Ushbu sinovlar yopiq turdag'i standartlar bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ularga shaxsiy yondashuv asosida materiallar ishlab chiqish, mos didaktik vositalalar tayyorlash va hammasini birlashtirish juda qiyin. Standart xalqaro sinovlarga murojaat qilish utilitarizmning ham avj olishiga olib keladi. Xuddi shu ma'nio bilangina biz unga yangi ta'limiyo yo'l sifatida qarashimiz mumkin.

Bugun ta'limi baholash madaniyati bilan bir qatorda, o'qituvchilarning vakolatlari, muktabda reyting tartibini o'rnatishga moyillik hamda siyosiy baholash madaniyati toborra rivojlamoqda. Shuningdek, o'z reytingini oshirish ta'larning eng oldingi o'rindagi maqsadiga aylandi.

Oyimxol KENJAYEVA,
Surxondaryo viloyati
Qiziriq tumani 6-umumiyo'rta
ta'lim muktabi boshlang'ich
sinf o'qituvchisi.

TARIX FANIDAGI MURAKKAB MAVZULARNI O'QITISH UCHUN METODIK TAVSIYALAR

**TARIX FANIDA SHUNDAY MAVZULAR BORKI, O'QITUVCHI ULARNI
O'QUVCHIGA YETKAZIB BERISHGA, O'QUVCHILAR ESA ULARNI
O'ZLASHTIRISHGA QIYNALISHADI. BUGUN SHUNDAY MURAKKAB MAVZULAR
YUZASIDAN BIR NECHTA TAVSIYALARINI KO'RIB CHIQAMIZ.**

1-topshiriq:

Xarita bilan ishlash

9-sinfning "Jahon tarixi" darsligidagi "Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlari" mavzusini o'tish jarayonida o'quvchilarga, avvalo, yozuvlari xarita beriladi. Ular 1-bosqichda Afrika davlatlari nomini mustaqil yozishlari, 2-bosqichda esa Afrika davlatlari qaysi Yevropa mamlakatlari mustamlakasi ekanligini topishlari lozim. Bu jarayonda o'quvchining xotirasi mustahkamlanadi, xarita bilan mustaqil ishlay olish jarayoni sinovdan o'tkaziladi.

hududni darrov ko'z oldiga keltira olishi hamda taraqqiyotida AQShning ta'siri bo'lganligini tushunishi lozim.

Yuqoridagiga o'xshagan topshiriqlar dars jarayonining so'ngida yoki takrorlash darslarida o'quvchilar bilan qiziqlari o'yinlar o'ynalsa, yaxshi natija beradi.

Quyidagi topshiriq orqali esa ham xarita, ham bayroqlar bilan tanishamiz. Avvalo, o'quvchilar xaritada keltirilgan davlatni topgan holda unga biriktirilgan bayroqlar bilan qanday bog'liqlik borligini topishga harakat qilishadi va ma'lumot berishadi. Shu tariqa tarix darsi davomida o'quvchilar ham tarix, ham tarixiy jarayonlar haqida ko'plab faktlarga ega bo'ladilar.


2-topshiriq:

PISA

So'nggi ikki yillikda ta'lim tizimimizga PISA kirib keldi. PISA ni tarix fani doirasi da qo'llash o'z-o'zidan barchani qiziqtiradi. Ko'pchilikning fikricha, PISA bu shunchaki rasmi savoldir. Aslini olganda bunday emas. Tarix darsi davomida xaritalar bilan ishlashda PISA ni qo'llasak, maqsadga muvofiq bo'lar edi.



Xarita bilan ishlashda PISAdan foydalanish jarayonida o'quvchilar shunchaki davlat va uning poytaxti yoki tarixiga doir ma'lumotlarnigina eslab qolmasdan, xaritadagi o'rni va ko'rnishi haqida bilimga ega bo'lsa, tarixiy jarayonlarni, shuningdek qo'shni mamlakatlardan aloqalarini ham tushunishi osonroq bo'ladi. Masalan, Meksika haqida gap ketganda, o'quvchi ushbu



Yoki 7-sinf jahon tarixi darsida Franklar imperiyasi haqida gap ketganda o'quvchi ongiga Yevropaning ulkan hududlarini egallagan Buyuk Karl davlati misolida Fransiyani ko'z oldiga keltira olsa, nafaqat tarixiy nuqtai nazardan fikrlash qobiliyatini, balki geografik bilimlarini ham oshirib boradi. PISA bilan birgalikda kompetensiyaviylikni ham ta'minlagan bo'lamiz.



3-topshiriq: O'quvchilarning fanlararo kompetentligini aniqlash

Topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil etish, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradilar. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda innovatsion g'oyalarni egallashga ko'maklashadi. Darslarda tarixiy ma'nabalar bilan ishlash bo'yicha topshiriqlar nazariy yoki amaliy tarzda bo'ladi. Darsda hosil qilinadigan muammoli vaziyat hamda o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab-topshiriqlar ularning qiziqishini oshiradigan, eng kamida qiziqish hosil qiladigan bo'lishi kerak.

**Komila OQQO'ZIYEVA,
Qashqadaryo viloyati
Kitob tumani 1-son ixtisoslashgan
umumta'lim maktab internati
tarix fani o'qituvchisi.**

**XIZR ALAYHIS SALOM DAN
TA'LIM OLGAN ALLOMA**


Jahoniy ehtiromga sazovor bo'lgan termizlik buyuk siymolardan biri al-Hakim at-Termiziyydir. Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al-Hasan ibn Bashir al-Hakim at-Termiziyy bo'lib, tarjimai holiga oid ma'lumotlar o'rta asr arab mualliflaridan Tojuddin as-Subkiy, al-Xatib al-Bag'dodiy, Ibn Hajar al-Asqaloniy, as-Sullamiy va boshqalar asarlarida, shuningdek o'zining qalamiga mansub "Bad'u sha'ni Abu Abdulloh" ("Abu Abdulloh ishining boshlanishi") nomli avtobiografik risolasida keltirilgan.

Allomaning ota-onasi haqidagi ba'zi xabarlardan ma'lum bo'lishicha, uning otasi Ali ibn al-Hasan o'z davrida hadis ilmining ko'zga ko'ringan olimlaridan biri sifatida mashhur bo'lgan. Al-Hakim at-Termiziyy o'zining avtobiografik risolasi "Bad'u sha'ni Abu Abdulloh" va "Ar-Radd a'lol-muattila" kabi asarlarida yozishicha, uning onasi va bobosi ham o'z davrida hadis ilmining yetuk bilimdonlari dan bo'lgan. Bu ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, al-Hakim at-Termiziyy ilm-ma'rifikat yuksak qadrlanadigan, ziyoli bir xonadonda dunyoga kelib, mana shu ilmiy-ma'naviy muhitda o'sib ulg'aygan. Ayni vaqtida shuni alohida ta'kidlash kerakki, al-Hakim at-Termiziyyning ilmiy kamolotida uning otasi Ali ibn al-Hasanning xizmatlari benihoya katta. Chunonchi, u o'z farzandi uchun nafaqat mehribon va g'amxo'r ota, balki unga nisbatan talabchan murabbiy va ma'rifikatli ustoz maqomida ham bo'lgan. Bu xususda al-Hakim at-Termiziyy o'z kitoblaridan birida shunday hikoya qildi:

"Olloh taolo meni ustozim – padari buzrukvorimdan judo qilganda men sakkiz yoshda edim. Uning sa'y-harakatlari bois men ilm olishga shunday berilib ketgandimki, kitob mutolaa qilish men uchun asosiy mashg'ulot bo'lib qolgan edi. Vaholanki, mening tengqurlarim o'yin-kulgi va vaqtixushlik bilan band bo'lardilar. Padarimning ijtihodlari tufayli men shu yoshimda "Ilm al-osor" (Qadimiylar rivoyatlar (hadislar) haqidagi ilm) va "Ilm ar-ray" ("E'tiqod haqidagi ilm") bilimlarini to'liq egallab olgan edim....".

Otasi vafotidan keyin al-Hakim at-Termiziyy o'z shahridagi yetuk olimlardan asosan tafsir, hadis va fiqh ilmlaridan saboq oladi. Xususan, hadis ilmini Abu Muhammad Solih ibn Muhammad ibn Nasr at-Termiziyy, Solih ibn Abdulloh at-Termiziyyidan o'rganganligi haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilgan. Fari-diddin al-Attorning yozishicha, yoshi yigirma yettiga yetganda al-Hakim at-Termiziyy ikki o'rtoq'i bilan o'sha paytda butun Sharqda ilm-u ma'rifikatning eng yirik markazlaridan biri sanalgan Bag'dodga borib ilm olishni niyat qilganda birdan onasi betob bo'lib qoladi va unga: "Ey o'g'lim, men bir mushtipar, zaifa ayol bo'lsam, menga sendan bo'lak boshpanoh bo'lib yordam beradigan biror kimsa bo'lmasa, mening butun borlig'im faqat sen bilan bog'liq bo'lsa, sen meni kimga tashlab ketmoqchisan?" – deb iltijo qildi. Validasining bu so'zlari al-Hakim at-Termiziya qattiq ta'sir qilib, u ilm talabidagi ushbu safaridan voz kechadi. Uning ikki o'rtoq'i esa o'z safarlariga otlanib yo'lga tushadilar. Ushbu voqeadan talay vaqt o'tgach, al-Hakim at-Termiziyy Bag'dodga borolmaganligi uchun g'oyatda af-suslanib, maqbaralardan birining yonida yig'lab turganida, yonida yuzidan nur yog'ilib turgan bir shayx





paydo bo'lib, undan yig'lashining sababini so'raydi. Al-Hakim unga yuz bergan voqeani birma-bir aytib beradi. Shunda shayx: "Istasang, men senga har kuni turli ilmlardan saboq berib, seni o'qitaman", – deydi. Termiziy shayxning bu so'ziga darhol rozi bo'ladi. Bu g'ayrioddiy hodisa bir necha yil davom etadi. Keyinchalik Termiziy bu ustozning Xizr alayhissalom ekanligini tushunib yetadi. Shubhaisiz, uning bu saodatlari marhamatga erishishi volidayi mushfiqasining duosidan bo'lgan edi.

Ayni vaqtgacha al-Hakim at-Termiziy saboq olgan ustozlari haqida manbalarda quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

1. Al-Hakim at-Termiziyning birinchi ustozi – otasi **Ali ibn al-Hasan at-Termiziy** edi. Bu haqidagi ma'lumotlar al-Xatib al-Bag'dodiyning "Tarixi Bag'dod" (2-jild, 373-bet) nomli asarida keltirilgan.

2. **Qutayba ibn Sa'iyd as-Saqifiy al-Balxiy**. U haqidagi ma'lumotlar ham al-Xatib al-Bag'dodiyning "Tarixi Bag'dod" (4-jild, 264-bet) nomli asarida keltiriladi.

3. **Solih ibn Abdulloh at-Termiziy**. U haqidagi muxtasar ma'lumotlar al-Xatib al-Bag'dodiyning "Bag'dod tarixi" (1-jild, 315-bet) va Ibn Hajar al-Asqaloniyning "Lison al-meyzon" kabi asarlarida keltirilgan.

4. **Solih ibn Muhammad at-Termiziy**. Uning ismi sharifi al-Xatib

al-Bag'dodiyning "Tarixi Bag'dod", Shamsuddin az-Zahabiyning "Meyzon al-e'tidol" va "Lison al-meyzon" kabi asarlarida zikr qilingan.

5. **Sufyon ibn Vakiy**. Taniqli tarixchi Shamsuddin az-Zahabi o'zining "Meyzon al-e'tidol" nomli asarida (2-jild, 173-bet) uning ismini Sufyon ibn Vakiy Ibn al-Jarrah Abu Muhammad ar-Ravosi deb to'liq keltirgan.

6. **Ahmad ibn Hizravayh**. Uning to'liq ismi Abu Xomid Ahmad ibn Hizravayh al-Balxiy bo'lib, u haqidagi qisqacha ma'lumotlar Abu Nuaymning "al-Hilya" (10-jild, 42-bet), Abu Abdurrahmon as-Sullamiyning "at-Tabaqot" (103-106-betlar) nomli asarlarida keltiriladi.

7. **Abu Turob an-Naxshabi**. Abu Turob an-Naxshabiyning to'liq ismini tarixchilar Asqar ibn Muhammad Hasiyn Abu Turob an-Naxshabi deb keltirganlar. As-Sullamiy "Tabaqot as-sufiyya", Tojuddin as-Subkiy "Tabaqot ash-shofoi'yya al-kubro" nomli asarlarida Abu Turob an-Naxshabi Xurosionning eng buyuk mashoyixlaridan biri bo'lganligini, u o'z ilmi, futuvvati, zohidlik va xudojo'yligi bilan alohida ajralib turganligini ta'kidlaydilar.

8. **Yahyo ibn Maoz ar-Roziy**. U haqidagi ma'lumotlar al-Xatib al-Bag'dodiyning "Tarixi Bag'dod", as-Sullamiyning "Tabaqot as-sufiyya" va boshqa ba'zi asarlarda keltirilgan.

10. **Yaqub ibn Shayba ibn as-Salt**. Uning to'liq ismi Yaqub ibn Shayba ibn as-Salt ibn Asfur Abu as-Sadusiy bo'lib, asli Basra ahlidan. Yaqub ibn Shayba haqidagi ma'lumotlar tarixchi Shamsuddin az-Zahabiyning "Tazkira huffoz" ("Hofizlar haqida tazkira"), al-Xatib al-Bag'dodiyning "Tarixi Bag'dod" nomli asarlarida keltirilgan.

Shuningdek, Termiziy talabalik davrida **Ali ibn Osim, Yazid ibn Horun, Affon ibn Muslim, Muhammad ibn Abdulloh al-Ansoriy, Asvad ibn Omir, Yahya ibn Abu Bakr** kabi ko'plab olimlardan hadislar eshitigan. Al-Hakim at-Termiziyning yuqorida nomlari zikr etilgan ustozlaridan olgan bilimi, o'z davrining yirik allomasi darajasigacha yetishida salmoqli ta'sir ko'rsatgan, albatta.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ustozga hurmat, ustozga sadoqat kabi xislatlarni buyuk allomalarimizdan o'rganib, ularning ustoz-shogirdlik an'analarni davom ettirsak ustozining duosini olgan shogirdlarning ko'payishiga hissa qo'shgan bo'lamiz. Zero, Maxdumi A'zam aytganidek:

Pirsiz kirma janggohga hech ham,

Iskandari zamon bo'lsang ham.

Alibek ALLABERGANOV,
Urganch davlat universiteti,
mustaqil tadqiqotchi.



Ijtimoiy bulling
 - turli tadbirlar, o'yinlar,
 sport musobaqalarida
 kimnidir namoyishkorona tarzda
 atayin chetlatish. Ma'lumotlarga
 ko'ra, ijtimoiy izolyatsiyani,
 so'zsiz yoki hissiy bezorilikni qizlar
 o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq
 og'riqli o'tkazishadi. Ushbu turdag'i
 bezorilikning ruhiy og'rig'i jismoniy
 zo'ravonlik kabi kuchli bo'lishi
 va uzoqroq davom etishi
 mumkin.

Vaziyat

Iroda ismli qizning ota-onasi uni yangi o'quv yilidan boshqa mактабга o'tkazishga qaror qilishdi. Sababi ota-onasi qizini yaxshiroq bilim beradigan maktabda o'qitishmoqchi, chunki farzandlarining intellektual darajasi hozirgi o'qiyotgan maktabidagi o'qituvchilar berayotgan bilimdan yuqoriroq. Yangi maktabda esa Iroda har qancha harakat qilmasin, sinfdoshlari uni "qabul qilishmadi". Sinf rahbari ham faqat bir martagina Irodani chaqirib: "Sinfdoshlaring bilan do'stlashib oldingmi", – deb so'raganida, Iroda: "Ha, hammasi joyida", – deb javob berdi. Lekin Iroda va sinfdoshlari o'tasidagi munosabat yaxshi tomonga o'zgarmadi. Shu tariqa Iroda maktabga borishdan bosh torta boshladi. Ota-onasi va inf rahbari ham buning sababini surishtirib, unga yordam bera olishmadi. Ota-onasi uni yana boshqa mактабга o'tkazishga qaror qilishdi.



IJTIMOIY BULLING

Yechim

Ota-onalar! Farzandlaringiz bilan ularning har bir kuni qanday o'tganligi haqida suhbatlashishni odat qiling. Ularga har narsadan ijobiy tomonlarni izlashga yordam bering, yaxshi fazilatlarni shakllantirishga e'tibor bering va ularni sevadigan, g'amxo'rlik qiladigan odamlar borligini bilishiga ishonch hosil qiling. Farzandlaringiz mактабдан tashqari aloqalarini o'natishi uchun musiqa, san'at, sport, o'qish va sinfdan tashqari ishlarda ularning iste'dodi va qiziqishlarini rivojlantirishga e'tibor bering.

Bulling bolaga zarar yetkazmasligi uchun nima qilish kerak? Bunda boshqa mактабга o'tish, albatta, eng maqbul deb topildi. Bu ota-onalar tomonidan to'g'ri ishdir. Biroq boshqacha xarakterli bolaga bu usul faqat zarar yetkazishi ham mumkin. Yangi maktabga o'tish – bu bola uchun stress, agar u stressni avvalroq, ya'ni sinfdoshlarining unga bo'lgan munosabati natijasida olgan bo'lsa, bu vaziyatni yanada kuchaytirishi mumkin.

Sinf o'qituvchisining xatti-harakatlari uning mutaxassis sifatidagi faoliyatiga tamoman ziddigini ko'rsatadi. Uning birinchi qarori: qizni butun sinf oldida suhbatga chaqirishi (*bu asosiy to'qnashuv uchun turki bo'lib xizmat qilgan*) noto'g'ri. O'qituvchi Irodani oshkora suhbatga chaqirmsligi va muammoni hal qilishning boshqa yo'llarini izlashi lozim edi. Albatta, Iroda va inf rahbar o'tasidagi yuzaki suhbatda, pedagogik nuqtai nazaridan qaraganda, mas'uliyatsizlik mavjud. Chunki Irodaning bиргина "hammasi yaxshi" degan javobidan qoniqib, muammoni hal etishdagi vazifasini faqat shundan iborat, deb xulosa qiladi. Avvalo, o'qituvchi bu muammo yuzasidan mактаб psixologiga murojaat qilishi va u bilan birgalikda yechim topishga, sinfda qulay sharoit yaratishga harakat qilishi kerak edi. Afsuski, yuqorida holatda boshlang'ich yordam ko'rsatilmadi.

Shunday qilib, biz aniq bir vaziyatda boshqa mактабga o'tish muammoning eng yaxshi yechimi bo'lganligini ko'ramiz. Biroq ushbu variant universal emasligini hisobga olish kerak. Bulling haqida gap ketganda, uni hal qilishning universal usullari yo'q. Aynan muayyan muammo kontektsidan va qiyin vaziyatga tushib qolgan bola nuqtai nazaridan muammoga yechim izlash to'g'ri bo'ladi.

Dilshod JAHONGIR
 o'g'li tayyorladi.

Matolarga BAXSHIDA UMR

Bugungi ipak matolarda ko'p asrlik jahon madaniy merosi o'z in'ikosini topgan. Xalq amaliy san'atining bu noyob turi – shoyi to'qimachiligi rivojida yuzlab mohir abrbandchi ustalarning hissasi bor. Turg'unboy MIRZA AHMEDOV abrbandchilikda ham usta, ham ustozdir.

Ustoz marg'ilonlik abrbandchi-ustalar sulolasining sakkizinchı avlodı, shoyi matosining yangi timsol va betakror bezaklarini kashf etgan ijodiy tafakkur sohibi, shoyi to'qish san'atini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish an'analarini sharaf bilan davom ettirgan hunarmand hamdir. U yuksak mahorat va nozik did bilan yaratgan "O'roq", "Chaqirim yakbast", "Karam bargi", "Yodgorlik", "Marg'ilon", "Tumor", "Favvora", "Sadoqat", "Gulibodom", "Gulinamozshom", "Dilnavoz", "Sharq guli", "To'lqin", "Oltin sirg'a" singari yuzdan ortiq naqsh nusxalari milliy shoyi to'qish san'atimizni munosib boyitgan.

Ustoz bu muvaffaqiyatga osonlikcha erishmagan. U o'spirinlik kezlaridayoq yoshi ulug' abrbandchi-ustalarning bir-biridan go'zal naqshlarini havasu ishtiyoq bilan tomosha qilib, o'zi kelajakda yaratajak shoyi matolar haqida orzular qilgan. Marg'ilonda shoyi mahsulotini mashinada to'qishga o'tilgan kezlar, mustaqil hunarmandlar faoliyatiga chek qo'yilgan. Bu esa badiiy hunarmandchilik an'anaları asta-sekin yo'qolib ketishiga sabab bo'layotgan edi. Yosh abrbandchi esa ota-bobolari hunarini tashlab qo'ymadi, qo'l bola dastgohini to'xtatmadı. Bu jasorati uchun jazoga tortilib, qamoqqa ham olingan. Ammo bu uni to'xtata olmadi va Marg'ilonga

qaytgach o'zbek milliy shoyi to'qish san'atining qadimiyligi an'analarini tiklash ishini yana davom ettirdi. To'qilmay qo'yilgan shoyi va yarim shoyi matolarining ko'plab turlarini, Marg'ilon va Andijonning unutila boshlagan mashhur adreslari-yu, Samarcandning ipak aralash be-qasamlarini tayyorlash an'analarini qayta tiklab shuhrat qozondi.

Turg'unboy Mirzaahmedov nafaqat usta sifatida, balki abr san'atini avlodlarga o'rgatgan va an'anani saqlab qolgan ustoz sifatida ham hurmatga loyiqidir. Zero, ustaning yoniga kelib, undan jilokor matolar to'qish sirlarini o'rgangan, ustoz yaratgan naqshlarni to'qishni davom ettirayotgan shogirdlar bisyordir. Ana shu shogirdlari orasida uning farzandi, sulolaning sakkizinchı avlod vakili Rasuljon Mirzaahmedov ham bor.

– Otam ustozlik qilib, oilaviy an'anani davom ettirishimga turki bergen, – deydi Rasuljon usta. – U kishining fidokorligi, ishiga bergen mehri bizni ham ko'plab nafis san'at namunalarini yaratish va dunyoga tanitishga undardi. Mana shu bizni Yevropa va Osyo davlatlariga tanitdi, G'arbdagi yetakchi dizaynerlar bilan hamkorlikni yo'lg'a qo'yidik. O'zbek milliy matolarini jahon sahnalarida namoyish qilishga erishgan ilk o'zbek abrbandchi bo'lish nasib qildi. Unutilgan buxorocha

"a'lo baxmal", "olacha", xorazmcha "turma belbog" kabi g'oyat noyob matolarni tayyorlash an'analarini tikladik. Otam kabi 2005-yilda YUNESKO sertifikatiga ega bo'ldim.

Darhaqiqat ustoz Turg'unboy Mirzaahmedovning tom ma'noda, milliy matolalarimizga baxsh etgan yangi umri, an'anaviy san'atni asrab-avaylash va tiklash yo'lidagi samarali izlanishlari 1994-yil YUNESKO e'tirofiga va sertifikatiga loyiq ko'rildi. Marg'ilondagi qo'l mehnatiga asoslangan "Yodgorlik" shoyi to'qish fabrikasining ishga tushirilishida ham ustozning hissasi katta. Ana shunday ezgu ishlarga umrini baxsh etgan ustoz bugungi o'zbek milliy matolari tarixida o'chmas iz qoldirgan.

**Dilnavoz
QO'L DOSHEVA,
jurnalist.**



IMLODAGI CHALKASH HOLATLAR: YECHIM BOR



IMLO VA TINISH
BELGILARINI QO'LLASH
BILAN BOG'LIQ HAR BIR
HOLAT QOIDALARDA
KO'RSATIB O'TILMAGAN
BO'LISHI MUMKIN.
LEKIN MAVJUD
QOIDALARDAN KERAKLI
XULOSA VA QOIDALAR
CHIQARIB OLSA
BO'LADI.
QUYIDA QOIDALARDA
ANIQ KO'RSATILMAGAN,
SHU SABABLIS BA'ZAN
CHALKASHLIKLER
PAYDO QILADIGAN
AYRIM HOLATLAR
HAQIDA SO'Z BORADI.

Esa: vergul kerakmi yoki yo'q?

Hatto musahhih va muharrirlarni ham o'ylantiradigan, chalkashtiradigan holatlardan biri – **esa** so'zidan keyin vergul qo'yish yoki qo'ymaslik masalasi. Chunki u ba'zida vergul talab qiladi, ba'zida esa – yo'q.

Xo'sh, qachon **vergul qo'yiladi?**

1. Esa bog'lama vazifasini bajarsa va **bo'lsa** ma'nosini anglatса. Bu tarzda kam qo'ilanadi. Bunday paytda ko'pincha unga -da yuklamasi qo'shiladi:

Burni biroz beo'xshovroq esa-da, lekin uning umuman yuz bichimi kelishgan edi.
Oybek, "Tanlangan asarlar".

2. Unday bo'lsa, u holda ma'nolarini ifoda etsa. Odatda bu ma'noda shevada ishlatalidi:

Esa, Oqqiz, borib sen ham ko'rib kel-chi.
"Ravshan" dostoni.

Qachon **vergul kerak emas?**

Esa shaxs, narsa, hodisalar ketma-ketligida ularni boshqalariga *nisbatlab, ajratib qayd etsa*:

Men esa uni ovuntirishga, yupatishga urinardim.
"Guldasta".

Misrda ro'y bergen mana bu voqeа esa hammasidan oshib tushadi.

"Fan va turmush".

-u, -yu va chiziqcha

Bu qo'shimchalar bog'lovchi ham, yuklama ham bo'lib kela oladi.

Bog'lovchi bo'lib kelganda va, *hamda, bilan* so'zlariga ma'nodosh bo'ladi. Bunday paytarda **kirill imlosida** so'zga *qo'shib* yoziladi:

Сену мен, Фарҳоду Ширин, яхшию ёмон, камтамо кичик, куну тун.

Lekin **lotin imlosida** undan oldin chiziqcha qo'yish kerak:

Sen-u men, Farhod-u Shirin, yaxshi-yu yomon, katta-yu kichik, kun-u tun.

↗ Yuklama bo'lib kelganda esa, kirilda ham, lotinda ham chiziqcha bilan yoziladi:

Ҳаёв бироз салқинлади-ю, лекин ҳали ҳам иссик.

Havo biroz salqinladi-yu, lekin hali ham issiq.

Аўмаў дедим-y, айтмадим.
Aytay dedim-u, aytmadim.

¶ Ba'zi kitoblar yuqoridagi jumllalarda kelgan -u, -yu yordamchilarini zidlov bog'lovchisi o'rniда qo'llangan deb hisoblagan va chiziq-

cha qo'ymaslik kerakligini aytgan. Ayrim qo'llanmalar esa chiziqcha ishlatgan va uni yuklama deb bergan.

Men u nima deb atalishidan qat'i nazar, chiziqcha ishlash tarafdiriman. Shunda uni teng bog'lovchi o'rnida kelgan holatidan farqlash mumkin. Bu ma'noni farqlashga ham xizmat qiladi.

Шуни олдинроқ айтсанг бўларди-ю!
Shuni oldinroq aytsang bo'lardi-yu!

Сенга тушунтиридим-у.
Senga tushuntirdim-u.

Yuqoridagi ikki misolda -u, -yu yuklamasini -ku yuklamasi bilan almashtirish ham mumkin.

❖ Demak:

Сену мен, тоғу тош, кексаю ёш, ою кун

Sen-u men, tog'-u tosh, keksa-yu yosh, oy-u kun

Сен-у мен, тоғ-у тош, senu men, tog'u tosh

Ўқиди-ю, тушунмади. Неча марталаб айтдим-у!

O'qidi-yu, tushunmadi. Necha marta lab aytdim-u!

Ўқидиу, тушунмади. Necha marta lab aytdimu!

Tartib sonlardan so'ng qachon chiziqcha qo'yish kerak?

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga ko'ra, tartib son **arab raqamlari**, ya'ni biz odatda foydalanadigan raqamlar bilan yozilsa, -(i)nchi qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi:

7-sinf, 5-“A” sinf, 3-, 7-, 8-sinf o'quvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri.

Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi:

XX asr, X sinf, XXXII Olimpiada o'yinlari.

Kirill yozuvi imlosida qanday **farq** bor?

Kirilda yil, oy va kunni bildiruvchi tartib sonlardan keyin **chiziqcha qo'yilmaydi**. Lekin bir necha yillar umumlashtirib ifodalanganda kirilda ham **chiziqcha qo'yiladi**:

XX асрнинг 90-йиллари, 2010-йилларнинг боши, 50-йиллар kabi.

Agar sana faqat sonlar bilan, qisqartma ko'rinishda ifodalansa, lotinda ham, kirilda ham raqamlardan keyin chiziqcha qo'yish kerak emas:

28.07.2021, 28.07.21, 28.7.21, 28/07/2021
2021.07.28, 2021.28.07 (bu nostandart ko'rinish)

Faxriy unvonlar nomi qanday yoziladi?

Unvonlar nomini yozishda xatoliklar uchrab turadi. Kichkinagina qoidasi bor. Shuni bilib olsangiz, yanglishmaysiz.

Faxriy unvonlar nomi qo'shtirnoqqa olinadi. Biroq unvon egasi nazarda tutilgan bo'lsa, qo'shtirnoq kerak emas:

Erkin Vohidov 1999-yili “O'zbekiston Qahramoni” faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov 1997-yili “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

❖ Eslatma: davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: “O'zbekiston Qahramoni” (unvon), “Oltin Yulduz” (medal). Boshqa mukofotlar, faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi so'zgina bosh harf bilan boshlanadi: “Sog'lim avlod uchun” (orden), “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi” (faxriy unvon), “Matbaa a'lchisi” (nishon) kabi.

Kitoblar, gazeta-jurnallar va saytlarda shaxs nomi, undan so'ng esa uning faxriy unvoni keltirilganda ham qo'shtirnoq kerak emas:

*Erkin A'zam,
O'zbekiston xalq yozuvchisi.*

Lekin bu holatda ham faxriy unvon nomi bevosita shaxsnini bildirmasa, qo'shtirnoqda beriladi:

*Erkin A'zam,
“O'zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni sohibi.*

❖ Odatda nashrlar mualliflar nomini bunday ko'rinishda bermaydi.

Aslida aksariyat faxriy unvonlarining rasmiy nomida **respublika** so'zi ham qatnashgan. Lekin amaliyotda, jumladan, katta obro'ga ega O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham unvonlar nomi **respublika** so'zisiz ishlatalaveradi:

O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri – O'zbekiston xalq shoiri.

*O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist
– O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.*

Bunga mantiqiy asos topsa bo'ladi. O'zbekiston va O'zbekiston Respublikasi nomlari bir ma'noni anglatadi.

Shaxsni ifodalash xususiyati bo'limgan orden va medal-lar nomi hamisha qo'shtirnoqda beriladi:

“Sog'lim avlod uchun” ordeni, “Sog'lim avlod uchun” ordeni sohibi.

“Shuhrat” medali, “Shuhrat” medali sohibi.

Orif TOLIB,
Respublika ta'lim markazi mutaxassisi.



maktab direktorining o'zлari, Qalqonov muallim.

Maktab hovlisida yoshi oltmishlarni qoralagan kishi parision turar edi. U mashinani ko'rди-yu darhol hushyor tortib, biz tomon ildam yurdi. Yalpoq yuzlari xavotir-u hadikdan battar yalpaygan, mitti, qiyiq ko'zлari pir-pir uchadi, quyuq oq oralagan sochlari to'zg'in, egnidagi kulrang kostyumi dudama xanjarday galstugi shalvirabgina turibdi.

- Assalomu alaykum, og'ajonlar.

Qalqonov muallim biz bilan birma-bir qo'shqo'llab ko'rishdi:

- Charchamaygina yetib keldilaringizmi?

- Domilla, tanishing, - deya mas'ul xodim men tomonga ishora qildi. - ...poytaxtdan kelgan jurnalist. Shunqor Qobilning oshnasi. O'roq bechora haqida asar yozmoqchi.

- Yaxshi, yaxshi, - deya bosh irg'adi Qalqonov muallim.

- Qani, ichkariga kiramiz.

Maktab hovlisi keng va ozoda edi. Hayhotdek maydonda qo'r to'kib turgan o'quv binosi anchayin ta'mirtalab bo'lса-da, fayzli va shinamgina ko'rindi. Imorat pesh-toqida issig'u sovuqdan rangi unniqqan bayroq mag'rur hilpirab turibdi. Hovlidagi daraxt shox-butoqlarida chumchuqlar chug'urlashadi.

- Darslar qizg'inmi deyman-a, - dedi mas'ul xodim u yon-bu yon alanglab. - Hammayoq jimjit. Zog' uchmaydi.

Qalqonov muallim bosh irg'adi:

- Ha, hozirgina uchinchi dars boshlandi, - so'ng men tomon yuzlanib ehtirom bilan mavzuga ko'chdi. - Umrzoq O'roq o'zimizdan, bug'alter bovaning o'g'li. Askarlikda Vatan uchun halok bo'lgan. So'ng... biz idorama-idora yelib-yugurib, nomini maktabimizga qo'yidik.

- Domilla, - dedi mas'ul xodim vaziyatga jiddiy va rasmiy tus berishga urinib. - An'anamizni tark etmaymiz. Ishni qahramonning yodgorligini ziyorat qilishdan boshlaylik, haykal yonida besh-olti minut sukul saqlaylik.

Maktab direktori tuyqus taqqa to'xtadi. Rang-quti o'chgancha bir menga, bir hamrohimga jonsarak tikildi.

- Ha, tinchlikmi? - deb so'radi mas'ul xodim taajjublanib.

- Yo'-o', o'zim...

Qalqonov muallim g'udranganicha o'quv binosi ro'parasidagi maydoncha tomon boshladi. Darhaqiqat, ulkan qayrag'och yoniga qizg'ish g'ishtdan balandgina ustun qurilgan ekan. Biroq... yo'l-yo'lakay mas'ul xodim faxr bilan tilga olgan yodgorlik-byustdan nom-nishon yo'q.

- Haykalcha qani? - so'radiim hayron-u lol.

Xijolatdan iyak qashlab turgan Qalqonov muallim duduqlandi.

- Bor edi... o'rnatganmiz... Bir haftacha ilgari o'g'irlab ketishibdi.

- O'g'irlab?! - beixtiyor chinqirib yubordi mas'ul xodim.

- Kim?! Kimga kerak ekan shu... byust-kalla?

- Bilmadim... mismi, alyuminmi, ishqilib, shunday qimatbaho narsadan yasalgan ekan o'sha byust. O'g'rilar qo'porib ketishibdi.

Mas'ul xodim battar tutaqdi:

- Darrov organga xabar bermadilaringmi? A?!

- Berdik, uchastkovoya aytgandik...

- Xo'sh-sh...

- Kuldi. Qo'yinglar-e, uyat bo'ladi, dedi. Bir yasama kalla uchun to'rt-besh tirik kallani kundaga qo'yishni istamas emish.

- Uchastkani nazorat qilish o'rniga kallalarning g'ami ni yeb yurgan qanaqa melisa o'zi?

- Halim Norbo'ta o'g'li.

- Iya, o'shami?! Otasi zo'r melisa edi-ku, suyak sribilbi-da, yaramas.

Qalqonov muallim tuyqus uchastka nazoratchisini sobib qo'yanidan battar kalovlangan edi. Mas'ul xodim esa asabiy tarzda bosh chayqagancha qo'l siltab tag'in xiyla vaqt javragach, men tomon xijolatli yuzlandi.

- Uzr. Kutilmagan muammo...

- Hechqisi yo'q, - dedim ularni yupatgan bo'lib. - Bo'p turadi. Yangi byust zakaz qilasizlar.

Xullas, allaqanday qaroqchilarning fitnasiga uchmay, o'sha safardan vatanparvarlik, fidoyilik tarannum etilgan tappa-tuzuk ocherk yozib qaytdim. Bosh muharririmiz xo'p maqtadi. Mana, non-nasiba chorlab yana o'sha yoqlarga chog'lanib turibman.

- Cho'lma-cho'l sang'ib yurmang, - deya bot-bot tayinladi bosh muharririmiz. - Hoynahoy, Najot G'aybulla deganlariga jinoyat ishi ochilgan. To'ppa-to'g'ri borib avval tergovchiga uchrashing, keyin vaziyatga qaraysiz... *

Idorama idora kirib-chiqib, so'rab-surishtirib, oxiri kerakli tergovchiga duch bo'ldim.

- Ha, - dedi u oldimga ustiga "Delo" deb yozilgan papkani surib. - O'sha nusxaning ishi menda. Ikki-uch marta posyolkaga borib keldim. Maktab jamoasi bilan uchrashdim. Ba'zi birlari tushuntirish xati yozib bergen, marhamat, istasangiz tanishib chiqing.

- Rahmat.

Tergovchi shosha-pisha qo'l soatiga ko'z tashlab oldi.

- Zaril ishim bor edi-da, bir yerga borib kelsam maylimi? Darrov qaytaman.

- Xo'p, bernalol.

- Siz ishni bernalol o'qib chiqavering, - dedi tergovchi eshik tomon yurarkan. - Sizdan yashiradigan sirimiz yo'q.

- Men qalingina papkani ochib shoshilmay o'qishga tushdim.

(Davomi 56-57-sahifalarda)



(Davomi. Боши 54-55-sahifada)

(Maktab direktori Q.Qalqonovning tushuntirish xati) Suyagim maktabda qotdi. Yigirma yoshimdan beri muallimlik qilaman. Bolalarning qiy-chuvini eshitib turmasam, boshim og'riydigan bo'lib qolgan. Bir paytlar jomadon ko'tarib o'qishga otlangan chog'im uchuvchilikni orzu qilganman. (Orzu-istiklar qanotida rosa uchib-qo'nib yurgan paytlarimiz ekan-da) Yo'q, taqdir taqozo-siga ko'ra, rus tili mutaxassisi bo'ldik. Ishladik. Mana, ishlayapmiz. O'qituvchilikning etagidan tutganimiz uchun hech kim bizni yomonotliq qilgan emas. Davralarning to'rini berishmasa-da, har nechuk poygakka tushirib tashlashmaydi. Hozirgi yoshlarga qarab hayron bo'laman, muallimlikdan or qilishadimi-ey... Ayniqsa, o'gil bolalar. Qay bir kun oltinchi sinfda o'qiydigan uch-to'rt bolaning gurungi tasodifan qulog'imga chalinib qoldi. "Kelajakda prokuror bo'laman, - derdi ulardan biri viqor bilan, -hamma mendan qo'rqadi, hurmat qiladi. Boylikka ko'milib yashayman". "Prokuror ko'p oylik oladimi?" - deb so'radi tag'in bir soddarog'i. Do'sti avval miriqib kului, so'ng ishonch bilan dedi: "Yo'-o'q, gap oylikdamas. Jinoyatchilar qamalib ketmasligi uchun cho'ntagingga jaraqlatib solib qo'yadi". "Men mafiya bo'lamani!" - deya tantanali hayqirdi bolalardan biri. Haligi soddarog'i yana so'radi: "Mafiya?! Nima u?" Tantanali ovoz egasi, hoynahoy mafiya nimaligini tuzukroq anglamasa kerak, biroz taraddudlanib arang tilga kirdi: "Mafiyani kinolarda ko'rmaganmisan? Ulardan kerak bo'lsa prokurorlar ham qo'rqishadi". "Men qo'rqlayman!" - qonun himoyachisi bo'lish orzusidagi o'quvchi dik etib o'rnidan turdi. - Men hamma mafiyani zirillataman!" "Mafiya" u tomon xezlandi. "O'chir ovozingni qo'lingdan hech narsa kelmaydi". Ular bir-birining yoqalariga chang solishdi. Shu orada tomoq qirib, panadan chiqdim. Bolakaylar olishuvni bas qilib, joy-joyiga o'tirishdi. O'zlaricha uzun-qisqa salom berishgan ham bo'lismi. Men ularni bir zum kuzatib turdim. Ich-ichimdan allanechuk iztirob, g'ussa qo'zg'aldi. Bolalar hanuz hansirashgan ko'yi bir-biriga o'grayishar edi. Mafiya orzusidagi bola uchastka nazoratchisining o'gli Zokir. O'qishlari a'lo, xulqi ham binoyigina. Shaxsan men uning kelajagiga katta umid bog'lagman. Shu sabab bolalar to'pidan uni imlab chaqirdim. Dovdirabgina yonimga keldi. "Zokirboy, - dedim qo'lidan tutib, - nima u mafiya-pafiya? Unaqa bema'ni gaplarni qo'ying, bolam. Siz a'lochi o'quvchisiz-ku, kelajakda olimmi, bilimdon o'qituvchimi bo'lasiz, degan umiddamiz". Orqada shumshayib-shumshayib turgan bolalar piq-piq kula boshlashdi. Zokir qo'limdan yulqinib chiqdi. "Babar mafiya bo'lamani!" Shu voqeadan so'ng biror hafta o'tar-o'tmas Zokirning onasi Mohigul - huv, Safarmurod chavandozning qizi maktabga bostirib keldi: "O'v, o'rtoq Qalqonip, nega mening bolamga muallim bo'lasan dedingiz? O'g'lim bechora necha kundan beri qahshab yig'lab yuribdi". Men hang-u mang qotib qolgan edim. Tilim arang kalimaga aylandi. "Nega yig'laydi?! Nima, yomon tilak bildiribmanmi?" "Jo'ralari ustidan kulib yurishibdi ekan. Nega unday dedingiz? Bolam kimdan kam, nega u

muallim bo'lar ekan?!" Men jo'yali bir javob topgunimcha Mohigul qarg'ana-qarg'ana xonamdan chiqib ketdi. Yurak bag'rim zirqiragancha xiyla vaqt o'tirib qoldim. Xayollarim alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Yo Xudo, o'qituvchi bo'lasan deyish haqoratmi?! Nega shunday tabarruk kasbdan or qilishadi? Muallim qachon ularning arpasini xom o'rdi, qachon birovning oshtobog'iga qo'l cho'zdi? Yo o'qituvchi otning kallasiday maosh olib, bular quruq qolishdimi? O'qituvchi dang'llama uylar qurib, gijinglagan mashinada yuribdimi? Axir hamma-hammasi el qatori-ku, yo'g'ini yashirib, borini oshirib kun ko'ryapti-ku?! Yo Xudo, yo G'ulomxon pirim, bu qanday nafrat, bu qanday ko'rgilik? O'sha kuni kechgacha idorada biqinib, shunday og'ir o'ylarg'a yem bo'lib o'tirdim. Umuman, men maktabdan kech qaytaman. Iloji bo'lsa, shu yerda yotib qolsam, huvillagan uyimga bormasam, deyman. So'qqaboshning hayoti shu ekan-da. Qizlarim uy-joyli bo'lib ketishgan. Kichik qizim qo'shni. Shu bechora ro'zg'orimga qarab turadi. Nu... baribir rahmatli xotinimning o'rnini hech kim, hech narsa bosolmas ekan. Yo'q, men nolimayman, men yig'lamayman. Allaqanday sentimental kayfiyat bizga yet. Mingta Mohigullar ayyuhannos solib, shang'llab kelishsa-da, kasbimga bo'lgan mehrimni so'ndirolmaydi. Ha, men o'qituvchiman, muallimman, bu kasbim bilan faxrlanaman! Qolaversa, necha bir Mohigullar haqarat deb biladigan, necha bir to'ralar mensimay qaraydigan xizmatda bo'lishning o'zi jasorat-ku?! Lekin quvonchli kunlarimiz ham ko'p. O'qituvchi o'z mehnating mevasini ko'rganda o'n yoshga yasharadi, balqiydi. "Mehnatning mevasi" deganda, hoynahoy, uch-to'rt oyda arang qo'lga yetib keladigan maoshni o'ylasangiz, adashasiz. Muallim mehnating mevasi bu - tirishqoq, omadli o'quvchilar! O'z o'quvchisining kamolini, obro'-e'tiborini ko'rgan qaysi muallim loqayd qo'l siltab qo'ya qoladi? Hech qanday. Men shunday azamat kadrlar bizning maktabdan ham yetishib chiqqanini mammuniyat bilan qayd etishim mumkin. Masalan, Qorjov polvon. Hozir u Qorjov Chorshanbiyevich bo'lib ketgan. Poytaxtda yashaydi. Ba'zi birovlar polvon shaharlik xotinining orqasidan ko'tarilib ketdi, degan sassiq gap tarqatib yurishibdi. Lekin bu g'irt yolg'on. Qorjovjon o'zi omadli yigit, Xizr ko'rganlardan. Yana bir faxrli shogirdimiz - Dolanov Samad. U ham zo'r bir ilmiy tekshirish institutida ishlaydi hozir. Qolaversa, Vatan uchun halok bo'lgan Umrzoqov O'roq ham bizning maktabda ta'lim olgan. U haqda Ulash agronom shoir doston bitishga chog'lanib, ba'zi bir sabablarga ko'ra rejalarini barbos bo'lgan edi. Ulashboyni tanisangiz kerak-a? Ko'zingiz tushgandir: xumkalla, tikanak soch, yapasqi burun, qop-qora kishi. Huv, a'robiy birodarlarini eslatib yuboradi. U kishi sovxozimizning kichik agronomi, lekin katta shoiri. Men hazillashib "cho'llik Pushkin" deb atayman. Hozirgi kunda bu ijodkor Qorjov Chorshanbiyevich hayotidan bir epik asar yozish taraddudida. Xullas, hayot-faoliyati ming bir doston bo'ladigan shogirdlarimiz talaygina. Yana bir takrorlayman, ular bilan faxrlanamiz, ko'ringanga maqtanamiz. Hurmatli tergovchi, endi sizni qiziqtirgan masalaga o'tsak. Bu yog'i bir tushga o'xshaydi.

Roppa-rosa to'rt oycha avval edi. Uch oylik paxta hasharidan qaytib, endigina o'qishni boshlagan kunlar. Darsga qo'ng'iroq chalinib, maktabning ich-u tashida shovqin-suron andak bosilgan bir payt. Men xonamning eshigini lang ochib, o'z yozuv stolimda ishlab o'tiribman. Pastki sinflar uchun grammatikadan ko'rgazma tayyorlayotgan edim. Sinfxonalarda dars o'tayotgan muallimlarning past-baland tovushlari eshitilib turibdi. Qay bir sinfda musiqa sabog'i bo'lsa kerak, rubobning ting'llagan sasi qulqoqqa chalindadi. Men ko'rgazma bilan band bo'lsmoq-da, maktabning yo'lagini hushyor kuzatib turibman. Eshikni ham shuning uchun atay lang ochib qo'ygan edim. To'g'risi, dars payti behuda sang'ib yurgan o'quvchi-yu o'qituvchini jinim suymaydi. Shunaqalarga ko'zim tushsa, darrov to'xtatib so'rab-surishtiraman, jo'yali bahonasi bo'lmasa ozgina koyib, ozgina erkabal darsga kirgizib yuboraman. Bir payt bo'sag'amga bir sharpa ko'ndalang bo'ldi. Sharitta bosh ko'tarib qaradim. Qaradim-u beixtiyor o'rniidan turib ketdim. "Taftishchi-yov?!" - lip etib o'tdi xayolimdan. Bunday o'y kallamga behuda urilmadi. Axir, bo'sag'ada baland bo'yli, kelishgan, yap-yangi, qimmatbaho kostyum-shim, oppoq ko'ylik kiygan yigit turar edi. Yuz-ko'zlaridan allanechuk nur yog'iladi. - Assalomu alaykum, domla, - dedi u qiroat bilan. - Kirishga mumkinmi?

- Keling, keling... Ko'zlarimni notanish yigitdan uzolmay qoldim. Haligi... Hollivudmi-ey, Gollivudmi-ey degan joylarning kinoartistlariga o'xshaydi. Ko'zları chaqnab turibdi, lablarida nintabassum. Yoshi nari borsa o'ttizlarda. Meni xayol qurg'ur har yoqlarga olib qochadi. Ishqilib, tinchlik bo'lsin-da! Kim ekan bu? Chet ellikmi deyman? Bizning ovloq posyolkamizda nima qilib yuribdi? Yo ijaraga joy izlab yurgan tadbirkormikan? Biror kichik korxona ochmoqchidir? Ana, tuman markazidagi qaysidir mакtab shunday ishbilarmonlarga o'quv korpusining bir bo'lagini ijaraga topshirib maza qilib yurishibdi-kul! Rahbariyat ham o'shalarni maqtaydi. Xudo bizga ham "ol, qulim" deb, yubordimikan?! Yigit men ishora qilgan stulga o'tirib qolini ko'ksiga qo'ydi.

- Uzr, domla, bezovta qildim. Siz direktor bo'lsangiz kerag-a? Men hayajon bilan bosh irg'ab, o'zimni tanishtirdim.

- Men Najot G'aybullaman, - deya gap boshladi yigit. - Tuman markazidan keldim.

- Xush kelibsiz, xush ko'rdik.

- Men... - Najot G'ayulla bir oz kalovlanib yerga qaradi. - Men ish izlab keldim. O'qituvchiman.

"Fu-u..." - shu lahzadayoq hafsalam pir bo'ldi-qoldi; es-hushim darrov joyiga qaytib, hadik-hayajonlar targadi-ketdi.

- Mutaxassislik qanaqa, uka? - so'radim rahbarlarga xos sovuqqonlik bilan.

- Jug'rofiya.

- Ma'lumot oliymi?

- Oliy.


- Ilgari qayerda ishlagansiz?

- Ikki yil poytaxtda ishladim. So'ng oilaviy sharoitga ko'ra o'zimizning tumanga qaytib keldim. Bir yildan oshdi, bekorchiman.

- Nima, markazda ish topolmadingizmi?

- So'rab-surishtirdim, - Najot G'ayulla bir zum sarosimalanib qoldi. - Ikki-uch maktabga kirib chiqdim. Jug'rofiya o'qituvchisi kerak emas ekan. Maorif bo'limidagilar shu yoqqa yuborishdi. Bilaman, maorifdagilar yigitni behuda bu yoqqa yuborishmagan. Ular bizning bosh og'riqdan ancha-muncha xabardor. Ko'pdan beri jug'rofiya muallimiga yalchimay yurganimizni juda yaxshi bilishadi. Ilgari bu fandan Rayhon muallima saboq berardi. O'rta-maxsus ta'limotli bu qizimizning sululligi-yu xulq atvori ham o'rtagina. Sovchilarni o'poqso'poq, deya-deya oxiri qari qiz bo'lib o'tirib qolgan. Ana shu muallimamizni malaka oshirishga yubordigu undan ayrildik-qoldik. Viloyat markazidan qaytmadi. Birov bilan suyushib qolib ketdi. Ota-onasi imi-jimida to'y qilib berdi. Shu-shu jug'rofiya o'qituvchisiga zor-intizor edik. Mana, niyoyat ko'nglimizdagi kadr o'z oyog'i bilan keldi. Ishqilib, Rayhonning ham bizning, ham baxtimiz ochilgani chin bo'lsin-da, bilimdon yigitga o'xshaydi. Shunday o'ylar bilan Najot G'ayullaga sinchkov ko'z tashladim.

(Davomi keyingi sonda.)



ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ МЕСТОИМЕНИЯ

(BO'LISTHSIZLIK OLMOSSHARI)

Inkor olmoshlari "никто" (hech kim), "ничто" (hech nima), "никакой" (hech qanday, hech qanaqa, hech qaysi), "ничей" (hech kimniki), "некого", "нечего" savollariga javob bo'lib, predmet, shaxs hamda belgining mavjud emasligiga ishora qiladi.

Olmoshlar ichida belgi yoki miqdorni ko'rsatadigan olmoshlar orasidan bo'lishsiz olmoshlarni toifalarga ajratishimiz mumkin.

Образование отрицательных местоимений



Ularning muhim belgisi predmet va shaxsning yo'qligi va belgini rad qilishda ko'rindi.

Bolani *hech narsa tinchlantira olmadi*.

Tabiatning bunday g'aroyib hodisasini hech qanday so'z bilan ifoda qila olmaysan.

Bu kabi bo'lishsiz olmoshlar so'roq olmoshlariiga **не-** (urg'uli) va **ни-** (urg'usiz) inkor old qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi.

- чей – **ничей**;
- кого – **некого**.

Rus tilidagi bo'lishsiz olmoshlar agar shaxs va predmetni yo'qligini ko'rsatsa, u holda "кто?", "что?" savollariga javob bo'ladi. Belgining yo'qligini ko'rsatsa, "какой?", "чей?" so'roqlariga javob bo'ladi.

Отрицательные местоимения - никто, ничто, никакой,ничей, некого, нечего
указывают на отсутствие предмета и образуются от вопросительных местоимений с помощью приставок **НЕ-** и **НИ-**.

Приставка **НЕ-** всегда ударная, **НИ-** – безударная.

Если **НИ** и **НЕ** отделяются от местоимения предлогом, то они в отрицательных местоимениях пишутся раздельно:
Ни у кого, не с кем, ни от кого, ни перед чем.



изменяется
Как вопросительные не имеют И.П.

Синтаксич.роль
Подлежащее, дополнение

Bo'lishsiz olmoshning turlanishi

		Birlik son			Ko'plik son
		Муж. род	Жен. род	Ср. род	
И. п.	никто, ничто hech kim, hech nima	никакой ничей	никакая ничья	никакое ничье	никакие ничьи
Р. п.	никого ничего	никакого ничьего	никакой ничьей	никакого ничьего	никаких ничьих
Д. п.	никому ничему	никакому ничему	никакой ничьей	никакому ничьему	никаким ничьим
В. п.	никого/ ничто	никакого/ ничью/ничей	никакую ничью	никакое ничье	никаких/ ничьих/ничьи
Т. п.	никем ничем	никаким ничьим	никакой ничьей	никаким ничьим	никакими ничьими
П. п.	ни о ком ни о чем	ни о каком ни о чём	ни о какой ни о чьей	ни о каком ни о чём	ни о каких ни о чьих

Bo'lishsiz olmoshlar turlanishi ayrim grammatik xususiyatlarga ega.

"Никто" ва "ничто"

"Никто" ва "ничто" bo'lishsizlik olmoshlari rod va sonlarda o'zgarmaydi hamda turlanmaydi:

- И.п. кто? никто; что? ничто
- р.п. нет кого? никого; чего? ничего
- д.п. отдаю кому? никому; чему? ничему
- В.п. вижу кого? никого; что? ничто
- Т.п. горжусь кем? никем; чем? ничем
- П.п. расскажешь о ком? ни о ком; о чём? ни о чём.

"Некого" ва "нечего"

"Некого" ва "нечего" bo'lishsizlik olmoshlarining imenitelniy padej shakli yo'q.

Ularning turlanishini ko'rib o'tamiz:

- И.п. —
- Р.п. некого, нечего
- Д.п. некому, нечему
- В.п. некого, нечего
- Т.п. некем, нечем
- П.п. не о ком, не о чем.

"Никакой" ва "ничей"

"Никакой" ва "ничей" bo'lishsiz olmoshlari sifatlardek rodлarda, son va padejda o'zgaradi:

- никакой дом, никакая ягода, никакое предложение, никакие признаки;
- ничей ответ, ничья просьба, ничё слово, ничьи признания.

Mos predloglarni qo'yib ko'chiring. Olmoshlarning padejini aniqlang.

- 1) Егор сидел рядом ... мной. 2) Ты всегда был строг ... мне. 3) Сердце ... мне скжалось. 4) Вникните ... всё это хорошико. 5) Все принялись хохотать ... мною. 6) Вспомните ... мне. 7) Мелькнуло ... мною моё детство. 8) Он славился ... всём округе гостеприимством и радушием. 9) В темноте я сильно ушибся... что-то.

НЕОПРЕДЕЛЕННЫЕ МЕСТОИМЕНИЯ

NOANIQ OLMOSSHARLAR

“Некто”, “нечто”, “некоторый”, “несколько”, “кое-кто”, “кто-то”, “кто-либо”, “кто-нибудь”, “что-то”, “кое-какой”, “чей-то”, “чей-либо” noaniq olmoshlari predmet, belgi, miqdor yoki sonning mavhumligiga ishora qiladi.

Noaniq olmoshlari qaysi noma'lum ob'yekti, belgi yoki son va miqdorni ko'satisiga qarab kto? что? какой? чей? сколько? savollariga javob bo'ladi.

Shuningdek, rus tilidagi noaniq olmoshlari (*lot. pronomen indefinitum, ingliz. indefinite pronouns*) o'zi ishora qilgan ob'yekti haqida qo'shimcha ma'lumotlar jinsi, raqami, jonli yoki jonsizligi va hokazo jihatlarini ham ifodalashi mumkin. Masalan:

(Кто?) Кто-то смеялся, кто-то говорил с соседом, а кто-то смотрел, как пароход рассекает носом волну.

Kimdir kulardi, kimdir qo'shnisi bilan gaplashar, kimdir esa paroxod tumshug'i bilan suv to'lqinini yorib o'tayotganini tomosha qilardi.

Детей интересует (что?) что-то новое и увлекательное.

Bolalarni yangi va qiziqarli nimadir qiziqtiradi.

К бабушке пришел (какой?) некий человек и рассказал ей эту историю про деда.

Kampirkiga qandaydir kishi keldi va unga bobosi bilan bog'liq xotirani so'zlab berdi.

(Чей?) Чей-то хвост мелькнул в зарослях лесной малины.

O'rmon xo'jag'atlari orasida nimaningdir dumi ko'rinib ketdi.

(Через сколько?) Через несколько часов работы под водой на борт катера был поднят аквалангист.

Bir necha soatlik ishdan keyin akvalangchi suv ostidan katerni bortiga chiqarib olindi.

Неопределённые местоимения

Приставка **не-** всегда находится под ударением.

некто, нечто
(имеют только форму II. п.)
некоторый

Приставка **кое-**, постфикс **-то, -либо, -нибудь** пишутся через дефис.

кое-кто
что-то
сколько-нибудь

Если **кое-** отделяется от местоимения **предлогом**, то все три слова пишутся раздельно.

кое у кого
кое о чём

Noaniq olmoshlar (ro'yxat)

кто-то, что-то, некто, нечто, кое-кто, кое-что, кто-либо, кто-нибудь, что-либо, что-нибудь (*kimdir, nimadir, hech kim, kim bo'lsa-da, biron kim, nima bo'lsa-da, biror narsa*);

некоторый, некий, кое-какой, какой-то, какой-либо, какой-нибудь (*ba'zi, ...degan, qaysidir, qanaqadir*,

qandaydir, qanaqa bo'lsa ham, qaysidir, biron bir);
чей-то, чей-либо, чей-нибудь (*kimningdir, nimaningdir ham, nimadadir*);
несколько, сколько-то, сколько-нибудь, сколько-либо (*bir qancha, qanchadir, qancha bo'lsa-da, qanchadir ham*).

Noaniq olmoshlari so'roq va so'roq olmoshlari va doim urg'uli bo'lgan не- hamda кое-, -то, -либо, -нибудь kabi bo'laklar bilan yasalgan so'zlar tire bilan yoziladi.

кто — некто, кое-кто, кто-нибудь;
что — нечто, кое-что, что-либо;
сколько — несколько, сколько-то.

Noaniq olmoshlarning yasalishi

So'roq olmoshlari	Noaniq olmoshlular				
	не-	кое-	-то	-либо	-нибудь
кто	некто	кое-кто	кто-то	кто-либо	кто-нибудь
что	нечто	кое-что	что-то	что-либо	что-нибудь
какой	(некий)	кое-какой	какой-то	какой-либо	какой-нибудь
чей	-	кое-чей	чей-то	чей-либо	чей-нибудь
который	некоторый	-	-	который-либо	который-нибудь
сколько	несколько	-	сколько-то	-	сколько-нибудь

Noaniq olmoshlarning turlanishi

Noaniq olmoshlari o'zi hosil bo'lgan boshqa olmoshlarning tipidan kelib chiqib o'zgaradi.

кто-то — кого-то, кому-то
какой-то — какого-то, каким-то

I. “Некто”, “некий”, “нечто”, “несколько” bo'lishsizlik olmoshlaridan foydalanim gaplarni to'ldiring.

1) в темном плаще пересек улицу. 2) В кафе ... господин усился за угловым столиком. 3) ... яркое сверкнуло на небе (ега Им. падеж *ko'rinishida*). 4) увидел ... блестящее на пес-

чаном дне залива (*to'ldiruvchi Bnim. падеж *ko'rinishida**). 5) ... друзей отправились в путешествие на плотах по бурной горной реке. 6) Я пролистала ... страниц книги, но так и не нашла нужного афоризма.

II. Quyidagi gaplarda ega, to'ldiruvchi va aniqlovchi vazifalarida kelgan bo'lishsizlik olmoshlarini belgilang.

1) Кто-то стучится в дверь. 2) Что-то послышалось со стороны дороги. 3) Малыш явно чем-то увлечен, поэтому в комнате тихо. 4) Тут нашему бурному разговору помешало некоторое обстоятельство. 5) Через несколько минут вспыхнули прожекторы и началось цирковое представление.

Подлежащий	—	Ega
Дополнение	—	To'ldiruvchi
Определение	—	Aniqlovchi

Dilshod IBODULLAYEV tayyorladi.

ADJECTIVES

(Sifat)



Narsaning yoki predmetning xususiyatini, shaklini, holini bildirib, qanday yoki qanaqa savollariga javob bo'ladigan so'zlar sifat deyiladi. Ingliz tilida sifat birlik yoki ko'plikka, jinsga yoki kelishikka qarab o'zgarmaydi, doim bir xil bo'ladi. Shuningdek, sifatlar oddiy yoki yasama bo'lishi mumkin. Oddiy sifat tarkibida hech qanaqangi qo'shimcha yoki o'zgartirishlar bo'lmaydi: red – qizil, tall – baland. Yasama sifat boshqa so'zlardan sifat yasaydigan suffikslar yoki prefikslar qo'shish orqali yasaladi. Bunda quyidagi **suffikslar**:

- **ful** (use+ful = useful, ya'nii foydali),
- **less** (useless – befoyda),
- **ous** (famous-mashhur),
- **al** (formal-rasmiy),
- **able/-ible** (capable-qobiliyatli) hamda **prefikslar**:
- **un** (un+happy=unhappy, ya'nii baxtsiz),
- **in** (incomplete-tugallanmagan), misol bo'ladi.

Bundan tashqari, qo'shma sifatlar ham bo'lib, bir nechta sifatlarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Masalan, **dark-blue** (*to'q-ko'k*), **snow-white** (*oppoq*).



HEALTHY

UNHEALTHY

Degrees of Adjective (Sifat darajalari)

Ingliz tilida sifatning uch xil darajasi bor, bular: oddiy (positive), qiyosiy (comparative) va orttirma (superlative):

Bir bo'g'ini sifatlarning darajalanishi:

1. Oddiy (Positive)

Sifatning oddiy darajasi hech qanaqangi qiyoslashni ko'rsatmaydi va o'z shaklini o'zgartirmaydi: brave-botir, new-yangi, happy-baxtli.

2. Qiyosiy (Comparative)

Sifatning qiyosiy darajasi ikki predmetni bir-biriga qiyoslanganda yoki solishtirilganda ishlataladi. Sifatning oddiy darajasi -er qo'shimchasi qo'shish bilan yasaladi va sifatdan keyin than (-dan ko'ra, qaraganda) so'zi ishlataladi: braver-botiroq, happier-baxtliroq, bigger-kattaroq.

3. Orttirma (Superlative)

Bu bir nechta predmetlar orasidan eng yuqori sifat darajasiga ega bo'lganini tanlaganda ishlataladi va sifatga -est qo'shimchasini qo'shish yordamida yasaladi. Sifatdan oldin esa the aniq artikli qo'yiladi: the bravest-eng botir, the happiest-eng baxtli, the biggest-eng katta.


Oddiy daraja.	Qiyosiy daraja.	Orttirma daraja.
Lond-uzun	Longer-uzunroq	(the) longest- eng uzun
Big-katta	Bigger-kattaroq	(the) biggest- eng katta
Dry-quruq	Drier-quruqroq	(the) driest – eng quruq

Agar sifat -e harfi bilan tugasa, uning qiyosiy va orttirma darajalarini yasashda, bitta -e tushirib qoldiriladi: **brave+er = braver yoki brave+est = bravest** kabi.

Agar sifat qisqa tovushdan keyin undosh harf bilan tugasa, uning boshqa darajalari, oxirgi harfning ikkilaniishi bilan yasaladi: **big+er = bigger, big+est = biggest** kabi.

Agar sifat undosh harfdan keyin keladigan -y bilan tugasa, -y ning o'rniga -i ishlataladi: **busy+er=busier, happy+est=happiest** singari.

Agar sifat unli harfdan keyin keladigan -y bilan tugasa, unda -y o'zgarmaydi: **gay+er=gayer, gay+est=gayest**.



Ikki bo'g'inli sifatlarning darajalanishi

Sifatlar 3 usulda yasaladi:

1. Ko'p bo'g'inli sifatlarning oddiy darajasi qanday bo'lsa, shundayligicha yoziladi. Masalan, *important – muhim, beautiful – chiroyli, difficult – qiyin*.

2. Ko'p bo'g'inli sifatlarning qiyosiy darajasini yasashda sifatga qo'shimcha qo'shilmaydi, aksincha, sifatdan oldinga "more" so'zi qo'yiladi va bir bo'g'inli sifat kabi **than** yordamida solishtirib, qiyoslanadi. Tarjima qilinganda **-roq** ma'nosini beradi. Masalan, *more important – muhimroq, more beautiful – chiroyliroq, more difficult – qiyinroq*.

3. Orttirma darajani yasashda esa "**the**" aniq artikli hamda "**most**" so'zi sifatdan oldinga qo'yiladi. Tarjima qilganda "**eng**" degan ma'no beradi. Masalan, *the most important – eng muhimi, the most beautiful – eng chiroyli, the most difficult – eng qiyini*.

O'zagi o'zgaradigan sifat darajalari

Ingliz tilidagi ba'zi sifatlarning darajalanishi yuqoridagi qoidalardan mustasno hisoblanadi. Bunday sifatlarning darajalanishi so'z o'zagining to'liq o'zgarishi bilan yasaladi. Bu **irregular adjectives** (noto'g'ri sifatlar) deb ataladi.

good	better	best
bad	worse	worst
far	farther	farthest
little	less	least
many	more	most

Exercise 1

Berilgan gaplarni qavs ichida berilgan sifatning qiyosiy yoki orttirma darajasida yozing. Yanglishmaslik uchun gaplarni diqqat bilan o'qing.

- I am _____ that my sister. (tall)
- Russia is _____ country in the world. (big)
- Susan's hair is _____ than Maria's hair. (long)
- Cars are _____ than bikes, but planes are _____. (fast)
- Mount Everest is _____ in the world. (high)
- An elephant is _____ than a dog. (heavy)



Exercise 2

Berilgan gaplarga sifatning mos darajasini qo'yib yozing.

- | | |
|---|----------|
| 1) Jill ate _____ sweets than Kate at the birthday party. | 1 MANY |
| 2) Look at this funny boy. He is as _____ as a lark . | 2 HAPPY |
| 3) She is not so _____ as her sister. | 3 SMART |
| 4) Helen is _____ girl in our school. | 4 PRETTY |
| 5) I'm very tired and depressed. It was _____ day in my whole life. | 5 BAD |
| 6) What is the _____ lesson? | 6 NEAR |

Uyga vazifa

Quyida berilgan jadvaldagи bo'sh kataklarga sifat darajalarining mosini yozing. Ana shu sifatlardan foydalanib, mustaqil ravishda gaplar tuzishga harakat qiling.

	ADJECTIVE	COMPARATIVE	SUPERLATIVE
1.	blue	bluer	bluest
2.	old		
3.		sweeter	
4.			happiest
5.		shinier	
6.	clean		
7.		finer	
8.			highest
9.		nastier	
10.	rich		

Noilaxon AHADOVA tayyorladi.



– 100 gramm asal yig'ish
uchun asalari 46 ming
kilometr masofani uchib
o'tadi. Bu butun Yer sharini
ekvator bo'ylab kezib
chiqishdir.

– AQSHning Arizona
shtatida kaktusni yerdan
sug'urib olganlar 25 yilga
ozodlikdan mahrum etiladi.
Tuya ovlagan esa katta
miqdorda jarimaga tortiladi.

– Platon sayyorasi quyosh
atrofida bir marta aylanib
chiqishi uchun 247 yil kerak.

Urg'ochi sher sutkasiga
20 soat uxlaydi. Qolgan vaqt
esa ov qiladi va ovqat yeydi.

– Qurbaqa umri davomida
uch tonna chivinni yeb
bitiradi.

– Ignaning ko'zidek
teshikdan sutkasiga 840 litr
suv oqishi mumkin.

– Odamzod shunday
yaratilganki, unga kimdir
jilmayib boqsa, u ham
albatta jilmayish bilan
javob qaytaradi. Bu fanda
emotsional empatiya deb
ataladi.

– Odam suyaklarining
to'rtidan bir foizi oyoq
qismida joylashgan.

– Jirafaning tili 45
santimetr uzunlikka ega.
Shuning uchun u quloqlarini
ham bermalol yalay oladi.



– Har 5 soniyada
yer yuzi bo'ylab
5 nafr chaqaloq
dunyoga keladi.



– Akulada
qo'shimcha
oshqozon mayjud
bo'lib, undagi
ovqat 20 kungacha
aynimaydi



– Bitta qalam
bilan 64 ming 820
metr uzunlikda
chiziq chizish yoki
50 mingta so'z
yozish mumkin.



– Odam hayoti
davomida 5 ta Yer
ekvatoriga teng
masofani bosib
o'tadi.



– Har bir odam tunda
kamida 15 martadan
uyg'onadi. Bu bilan u
bir uyqu bosqichidan
boshqasiga o'tadi. Ammo
bu o'tish davri shu qadar
tez va qisqa bo'ladiki, biz
anglay olmaymiz.



– Fil bir daqiqada 10
marta nafas oladi sichqonlar
esa 200 marta.

– Chumolilar o'z inini
isitish uchun tanalaridan
foydalananadi. Ular quyoshda
isinib olgach darhol inlariiga
yuguradi. Shuning uchun
chumolilar inidagi harorat
tashqi olamdan 10 daraja
yuqori bo'ladi.



– Dunyodagi eng katta
quduq lordinianing
Muxeyba hududida
joylashgan. Bu quduq
soatiga 9 ming kubometr
suv beradi.

– Quyoshning pochta markasi hajmicha keladigan qismi 1,5 million lampochka quvvaticha yorug'lik beradi.

– Inson yiliga 84 million marta ko'zini ochib yumadi.

– Odam uxlaganda, organizm tinchlanadi. Ammo tana uxlamaydi. Ertalabga qadar u o'zini turli zaharli moddalardan tozalab, darz ketgan to'qimalarni sozlash bilan band bo'ladi.



– Ayollarning bir o'rim sochi 200 ming toladan iborat bo'lib, 20 tonnagacha yukni ko'tara oladi.

– Qush iniga inson qo'li tekkach, inini tashlab ketadi va hech qachon bu joyga qaytib kelmaydi.

– 100 yoshgacha va undan ko'p umr ko'rganlarning 80 foizini ayollar tashkil etar ekan.

– Har yili milliardlab dengiz jonivorlari va qushlar plastik axlatlarni yutish oqibatida halok bo'ladi.

– Bir kunda bolalar o'rtacha 400 marta, kattalar esa 15 marotaba kular ekan.

* * *

– Chumoli o'limi yaqinlashganini sezgach, o'z inini tashlab chiqib ketadi.

* * *

– Dengiz suvi tarkibida juda oz miqdorda, dunyo miqyosidagi suvda esa 10 milliard tonna oltin mavjud.



trillion tonnaga og'irlashadi.

* * *

– Dunyoda eng ko'p ko'prik Sankt-Peterburgda. Ularning umumiy miqdori 539 tani tashkil etadi.

* * *

– Xitoyda tuxum tiriklik ramzidir, agar oilada farzand tug'ilsa, tuxumni qizil rangga bo'yashadi.

* * *

– "Chixua xua" degan zotli itlar dunyodagi eng uzoq umr ko'rvuchis hisoblanadi. Ular kamida 20 yil yashaydi.

* * *

– Uylarni raqamlash ilk bor XVIII asrda Londonda paydo bo'lgan, ungacha uy egasining nomi bilan atalgan.

* * *

– Eman daraxti ming yilgacha yashaydi. Umrining 80 yilida yuqoriga, keyin esa butun umri davomida yonga qarab o'sadi.

* * *


– Janubiy Afrika Respublikasida dunyo oltinining uchdan ikki qismi kavlab olinadi.

* * *

– Mushuk boshi sig'adigan har qanday teshikdan o'tishga qodir.

* * *

– Mushukning old oyoqlari istalgan tomonga qayrilishi mumkin.



– Dunyodagi birinchi dorixoncha 1000-yilda Bog'dodda ochilgan.

* * *

– Butun dunyodagi 10 foiz erkak, 8 foiz ayol chapaqay.

* * *

– Suyanchiqli stullar bundan 400 yil muqaddamma ixtiro qilingan.

* * *

– Bolalar olti-yetti oylik paytida kam ovqat yeb, kam nafas oladi. Kattalar esa bu ishni uddalay olishmaydi.

* * *

– Eng katta orol Grenlandiya orollari. Uning maydoni 21,756,000 kvadrat kilometrni tashkil etadi.

* * *

– Har yili Shimoliy yarim sharda qor va muzlar to'planishi natijasida Yer 10



– 2003-yil yana bir sport turi rasman ta'sis etilgan. U "Shaxboks" deb atalib, boks va shaxmatni o'zida birlashtirgan.

– Inson umri davomida 100 ming kilometr piyoda yuradi.

– Hamma qushlar pastki jag'i bilan harakat qilsa, boyo'g'li yuqori jag'in qimirlatadi.

– AQSHda taxminan 2.383.000 nafar Smit sharif (ism familiya)li kishi bor. Italiyada eng keng tarqalgan ism Mario Rossi bo'lsa, Xitoyda 90 milliondan ortiq kishi Li sharifiga ega.

– Yevropaning eng ko'p shamol esadigan joyi Shotlandiya hisoblanadi. U yerdagi shamollar butun Yevropada shamol energiyasining 25 foizini beradi.

– Boyo'g'li boshini vertikal bo'ylab 270 darajaga, gorizontal esa 180 darajagacha bura oladi.

BOG'CHA YOSHI DAGI BOLALAR Ning

MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLAQNTIRUVCHI O'YINLAR

Maktabgacha yoshdaqi bolalarda fikrlashning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular nafaqat fikrni sintez qila oladi, balki uni so'z bilan ifodelaydi.

Pedagog-psixologlar ularning fikrlash jarayonini vizual-majoziy deb ta'riflashadi, ya'ni bola ob'yektni ko'radi va u bilan hech qanday harakat qilmasdan, uning xususiyatlarini, maqsadini aniqlay oladi. Vizual-majoziy fikrlash asosida siz mantiqiy rivojlanishingiz mumkin. Maktabgacha yoshdagи bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish o'yinlarning maqsadi bolalarga asosiy mantiqiy amallarni o'rgatishdir. Ya'ni, 4-6 yoshli bolalar o'yin shaklida:

- tahlil qilish;
- umumlashtirish;
- qismi ajratib ko'rsatish (sintez qilish);
- solishtirish;
- farazlarni tuzish kabilarni o'rganadi.


Bundan tashqari, mantiqiy o'yinlar maktabgacha yoshdagи bolalarning old shartlarini shakkllantiradi, ular kelajakda ularga murakkab matematik muammolarni yechishga yordam beradi.

Mantiqiy o'yinlarning turlari:



1. "Bir so'z bilan nomlang". Boladan nafaqat shunga o'xshash obyektlar guruhiga nom berish talab qilinadi. Balki ularning bajaruvchi vazifasi haqida aytib berish ham so'raladi.


2. "Birinchisi nima, keyingisi-chi?". O'yin hikoya tuzishni o'rgatib, bolaning so'z boyligini kengaytiradi, mantiqiy fikrlashni, nutqdagi izchillikni rivojlantiradi; olingen bilimlarni tizimlashtiradi.




3. "Labirintlar". Bolalar uchun juda qiziqarli va foydali mashg'ulot – labirintdagi chigal yo'llarni ochish. Birinchidan, barmoq

yoki flomaster bilan chigallashgan yo'ldan boriladi, keyin bitta ko'z bilan chiqish yo'llari qidiriladi. Labirintlardan o'tish maktabgacha yoshdagи bolanining mantiqiy va fazoviy fikrlashini, maqsadlarga erishish qobiliyatini rivojlantiradi.

4. "Qatorni davom ettiring" yoki "algoritmlar". O'yin ob'yektlar o'tasidagi aloqalarni aqliy ravishda o'rnatish va ularni ma'lum bir ketma-ketlikda joylashtirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, u katta maktabgacha yoshdagи bolalarda aqliy operatsiyalarni faollashtiradi.



5. "Mantiqiy zanjirlar". O'yin yordamida bola ob'yektlar va hodisalar o'tasidagi munosabatni topishni, mantiqiy fikrlashni va izchil nutqni rivojlantiradi.



6. "Pentomino". O'yinchining vazifasi – to'rtta bo'sh katakni qoldirib, maydonga barcha raqamlarni joylashtirish.

7. "Rebus". Rebus – bu mantiqiy o'yin, unda rasmlarga asoslanib javobni taxmin qilish kerak. Narsalar, hayvonlar va o'simliklar, harflar va raqamlar tasvirlangan. Ularning o'zaro kelishuvni muhim ahamiyatga ega.

8. "To'rtinchisi ortiqcha". Ushbu o'yinda bola mantiqan o'ylab, qatorlarda ortiqcha bo'lgan narsani ajrata olishga o'rganadi.

9. "Nimaning soyasi?". Bolalar mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun jumboq. Jumboqning mohiyati shundaki, bola rasmdagi to'g'ri soyani aniqlaydi. Bolalarni maktabga muvaffaqiyatlari tayyorlash uchun nafaqat ma'lum bilimlar, balki izchil va mantiqiy fikrlash, taxmin qilish va aqliy zo'riqish ham kerak. Va bu ijodkorlikni namoyon qilishda bolalarni o'z harakatlarini rejalashtirishga, ularni o'ylashga, javob izlashga, natijani taxmin qilishga o'rgatadigan mantiqiy o'yinlarning vazifasi hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu o'yin bolanining aqliy faoliyatini faollashtiradi, unda qaysi sohada ishlashidan qat'i nazar, professional mahorat uchun zarur bo'lgan fazilatlarni rivojlantiradi.



Dilrabo tayyorladi.

ZAMONAVIY USTOZ

Muassis:
"Ta'lim muassasasi" MChJ

Bosh muharrir:
Abdulla CHIMIRZAYEV

Muharrir o'rinosbosari:
Javlon YAXSHIBOYEV

Manzilimiz: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Shastri ko'chasi, 19A-uy. Telefon: (+998) 71-209-93-39.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2021-yil 16-martda 1159-raqami bilan ro'yxtagta olingen.

Dizayner: Marks YUSUPOV

Topshirildi – 12:00 3.09.2021. Buyurtma – 63, hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-4.

12 302 nusxada bosildi. Nasr indeksi – 425. ISSN № 2181-2004

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi. Gazetada chop etilgan reklama va e'lonlar uchun tahririyat javobgar emas. Gazetaning yetkazib berilishiga uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta "SANO-STANDARD" MChJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent sh. Olmazor t. "Shiroq" ko'chasi, 100. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiha "SANO-STANDARD" MChJ bosmaxonasini mas'ul. Bosmaxona telefonasi: (71) 228-07-94.